

T.Almamatov, Q.M.Yadgarov, Sh.Almamatova

**O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA
INNOVATSION PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH
(Metodik qo‘llanma)**

Toshkent – 2013

KIRISH (SO‘Z BOSHI)

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Vazirlar mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 5-son hamda 1998 yil 13-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida”gi 203-sonli Qarorlariga asosan ona tili o‘quv fanidan davlat ta’lim standartlari (DTS) ishlab chiqildi.

DTS o‘quvchilarning ma’lumot saviyasiga qo‘yiladigan talabni, ona tili ta’limi jarayoniga qo‘yiladigan ijtimoiy talabdan kelib chiqib belgilaydi. Hozirgi davr talabi o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, uni og‘zaki va yozma ravishda bayon qilishga o‘rgatish, kommunikativ savodxonlikni ta’minlashdan iboratdir.

Kommunikativ savodxonlikni ta’minlashda ona tili va uni o‘qitish metodlari asosiy hal qiluvchi vazifani bajaradi. Kommunikativ savodxonlikni yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni talablari asosida takomillashtirilgan (uzviylashtirilgan) DTS ishlab chiqildi. Unda asosiy e’tibor o‘quvchi nutqini o‘stirishga qaratilgan. Bu o‘z o‘rnida o‘rta umumiy ta’lim tizimi uchun “ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan” shaxsni voyaga yetkazdiradigan yetuk mutaxassislar tayyorlashda oliy ta’lim tizimining mas’uliyatini oshiradi.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” studentlarni o‘zbek tili ilmiy grammatikasidan egallagan bilimlarini o‘rta maktab ta’lim tizimiga yetkazishda asosiy rol o‘ynaydi.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasidan o‘qiladigan ma’ruzalarning ko‘proq umumlashtiruvchi xarakterdaligi, talabalarning metodik qonun-qoidalarini bir-biridan ajratishda asosiy e’tibor berish kerak bo‘lgan o‘rinlarni tanlashda qiynalayotganliklarini e’tiborga ol ushbu qo‘llanma o‘zlashtirilishi zaruriy bo‘lgan tushuncha va bilimlar kichik-kichik mavzular asosida berildi.

Masalan, ko'pchilik hollarda ayrim studentlar ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari bilan ona tili o'qitish metodlarining farqini, ularning maqsadlarini ochib berolmaydilar. Ana shu holatlarni nazarda tutib, aniq xulosalar, zaruriy ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, talabalar u yoki bu hodisaning maqsadi yoki vazifasini belgilashda qiynalishmoqda. Shuning uchun maqsad va vazifani aniqlashda nimalarga e'tibor berish kerakligi ko'rsatildi. Chunonchi, leksikologiya bo'limini o'rgatishda so'z va tushunchalarning o'zaro munosabati, so'zlarning ma'no tiplari, so'z ma'nolarining ifodalanish yo'llarini o'rgatish asosiy maqsad qilib belgilanadigan bo'lsa, ana shu maqsad – asosiy tushunchalarni detallashtirilgan holda o'quvchilarga yetkazish uning vazifasi sanaladi, ya'ni so'z ma'nolarining taraqqiyoti, ko'p ma'nolilikning hosil bo'lishi, lug'at tarkibining grammatik qurilish bilan bog'liqligi, so'zning grammatika ixtiyoriga o'tgandan keyin o'zgarish sabablari, iboralar va ularning shakllarini o'rganishdir.

Bu o'rinda so'zlarning grammatika ixtiyoriga o'tgandan keyin o'zgarish sabablari deyilganda so'zning grammatik jihatdan o'zgarishi nazarda tutiladi. Masalan: Maydondagi chiroyli gullardan terdik gapidagi ajratilgan so'zlarning maydon, gul, ter shakllari leksema sifatida mavjud. Ular grammatika ixtiyoriga o'tgandan keyin, ya'ni gap tarkibida qanday o'zgarishga yuz tutganligi tushuntiriladi va hokazo.

Shuningdek, ona tili o'qitishning tarbiya bilan bevosita bog'liq bo'lganligini nazarda tutib, o'zbek tili o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va unga doir materiallar ham kiritildi.

Ona tili mashg'ulotlari o'quvchi tafakkuri taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Bu mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali o'tkazishda yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llash, ta'limiy o'yin-topshiriqlar, topishmoqlar, boshqotirmalar va boshqa usullarni qo'llash ko'zlangan natijani beradi. Shu maqsadda bir qator o'yin-topshiriqlar va uni o'tkazish usullari berildi.

Umuman olganda ona tili o'qitish metodikasi o'qituvchining pedagogik dunyo qarashini va ona tili o'qitishga munosabatini shakllantiradi: o'z kasbiga hurmat bilan qarashni tarbiyalaydi.

Mazkur o‘quv-metodik qo‘llanma universitetlarning filologiya yo‘nalishi, pedagogika institutlarining o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari, yosh o‘qituvchilar va shu soha bilan qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

ONA TILI O‘QITISH METODIKASI-FAN SIFATIDA

“O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” pedagogika fanlari sirasiga kirib, pedagogika oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlarining yetakchi mutaxassislik fanlaridandir. U fan sifatida shu kursning maqsadi, mazmuni, vositalari, metodlari, tashkiliy formalarini o‘rganadi. Ona tili ta’limining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatlarini asoslaydi.

O‘rta maktab o‘quv dasturlaridagi fanlar orasida ona tili salmoqli o‘rinni egallaydi. Bu boradagi dastlabki vazifalar ona tili o‘qituvchilarini metodika asoslari bilan tanishtirish va metodik adabiyotlar bilan ta’minlash edi.

Ona tili o‘qitish metodikasi fan sifatida pedagogika bilim yurtlari va oliy o‘quv yurtlarida 1930 yillardan boshlab o‘qitila boshlagan. Bu fanga oid darslik va qo‘llanmalar 1940 yillarda yuzaga kela boshladi. (Bungacha ham o‘z o‘qitish metodikamiz mavjud bo‘lgan va ilm fan ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz yetishib chiqqan). Bulardan, zamonaviy metodikaga asoslangan, S.A. Fessalonitskiyning “Ona tili metodikasi”(1940 yil) kitobi o‘zbek tili o‘qitish metodikasi tarixida nazariy va amliy jihatdan alohida o‘rin tutadi.

Qo‘llanmada dars rejasi va konspektidan namunalar, turli sxemalar, jadvallar berilgan, grammatika orfografiya bilan bog‘langan holda talqin qilingan. Unda asosiy e’tibor nutq o‘stirishlari metodikasiga qaratilib “Lug‘at ishidagi priyomlar”, “Obrazli nutqni o‘stirish”, “Yozma nutq”, “Insho” haqidagi metodik maslahatlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. 1950 yillardan boshlab qator qo‘llanmalar yaratildi. 1960 yillardan keyin metodika sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘lami kengaydi. O‘qituvchilar uchun maxsus nashrlar: “Sovet maktabi” (hozirgi “Til va adabiyot ta’limi”) jurnali, “O‘qituvchilar gazetasi” (hozirgi “Ma’rifat”) chiqa boshladi.

Ona tili o‘qitish metodikasining maqsad va vazifalari:

O‘zbek tili o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi o‘quvchilarda til imkoniyatlaridan mustaqil holatda to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy istiqlol

g'oyasi hamda sharqona tarbiyani berishdan iborat. Shu asnoda ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qartilmog'i lozim.

Ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifasi – o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha talabalarni adabiy til me'yorlaridan to'g'ri foydalanadigan, adabiy nutq me'yorlarini egallagan yetuk ona tili o'qituvchisi qilib yetkazishdan iborat. Shuningdek, maktab o'quvchilarini orfografik va punktuatsion to'g'i yozishga, adabiy til va nutq normalariga rioya qilgan holda talaffuz etish va yozishga, buni amalga oshirish uchun xilma-xil mashqlarni bajarishga o'rgatish zarur.

Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish metodlari.

1) kuzatish metodi. Bunda o'quvchilar darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda va uyda ona tilidan bajargan ishlari asosida kuzatiladi, ularning faoliyatlari hisobga olinib tahlil qilinadi;

2) tajribani o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish pedagogika fanlarini rivojlantirishning bosh omillaridan biridir. Bunda ilg'or o'qituvchilarning faoliyati tahlil qilinadi. Bu bir tomondan , metodika fani berayotgan nazariy xulosalarning to'g'riligini tekshirishda ishonchli mezon bo'lsa, ikkinchi tomondan, metodika fani yangiliklar bilan boyib boradi;

3) o'quvchilar bilan shaxsiy suhbat metodi. Bunda o'quvchilar bilan maqsadga yo'naltirilgan suhbat o'tkaziladi;

4) anketa metodi. Bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchiga savol berib, ularning ayni bir hodisaga turlicha munosabati aniqlanadi;

5) eksperiment metodi. Bu metod yordamida metodist olimlar o'zlari yozgan qo'llanmalaridagi tavsiya va ko'rsatmalarining samaradorligi sinfda tajriba qilib ko'riladi;

6) metodik merosni o'rganish metodi. O'zbek tili o'qitish metodikasi nisbatan yangi fan. Tilning ijtimoiy ahamiyati haqida boy falsafiy va pedagogik

meros qolgan bo'lsa-da, uni o'qitish metodikasi bilan bog'liq masalalar keyingi davr bilan aloqador. Shuning uchun ham bu metod ijobiy samara beradi.

Bu sanalganlar ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun hamma vaqt faoliyat ko'rsatadi. Ana shu jihati bilan o'qitish metodikalaridan farq qiladi.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va ona tili o’qitish metodikasi.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning qabul qilinishi ta’lim tizimida keskin burilish yasadi. An’anaviy ta’limdan tubdan farq qiladigan kommunikativ modelga asoslangan yangi ta’lim mazmuni yaratildi. (Ta’lim mazmuni dasturlarda, darsliklarda, metodik qo’llanmalarda o’z aksini topadi.) O’quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan ta’lim tizimi shakllandi. Bu jarayonni tartibga solib va boshqarib turadigan DTS ishlab chiqildi.

Ta’limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berish emas, ularni bilim olishga o’rgatishdir. Ularni bilim olish jarayonining aktiv ishtirokchisiga aylantirishdir. Boladagi bunday ko’nikmani takomillashtirish ona tilini o’qitish bilan bevosita bog’liq. Bunda ona tilining rivojlantiruvchi xususiyati namoyon bo’ladi. Ona tili o’qitish o’qituvchi va o’quvchi hamkorligidagi faoliyat bo’lib, shu jarayonda shaxs taraqqiyoti hamda tarbiyasi ham amalga oshadi. Ona tili nutq odobi, o’zligini anglash, o’zgalar fikrini nutq sharoitiga mos og’zaki va yozma ravishda to’g’ri, ravon, aniq, tushunarli ifodalash malakalarini singdiradi.

Ona tili o’qitishning umumdidaktik tamoyillari.

Maktabda o’tiladigan hamma predmetlar uchun umumiy bo’lgan didaktik tamoyillar mavjud. Ular maktablar oldiga qo’yiladigan talablardan kelib chiqadi. Ularni muvafaqqiyatli qo’llash shaxsning har tomonlama kamol topishida ahamiyati katta.

1. Ta’lim-tarbiya mosligi umumta’lim maktablarining asosi hisoblandi. Bu orqali o’quvchilar ma’naviy-g’oyaviy rivojlanishining tamoyillari belgilanadi. Mavzu uchun tanlangan mashqlar ham ta’limiy xarakterda, ham g’oyaviy xarakterda bo’lishi kerak. Bunday mashqlarni bajarish orqali o’quvchilarning aqliy faoliyati rivojlanadi.

2. Ilmiylik va tushunarlik tamoyili. Maktabda ona tilidan hozirgi tilshunoslikda qat'iy hal qilingan, ilmiy asoslangan ma'lumotlarga beriladi (-larcha ravish yasovchi qo'shimcha, -lar+cha otlarning nokategorial shakli. Lekin ravish yasovchi deb qaralaveradi). O'qitishning ilmiylik tamoyili o'qituvchining hamisha ziyraklik bilan fan yutuqlarini kuzatib borishini talab qiladi. (bilan, -ga yordamchilarining vazifasining kengayotganligi). O'qitishning tushunarli bo'lishi, asosan, o'qituvchiga bog'liq. Sinfda teng yoshli o'quvchilar o'tirsa-da, ularning materialni qabul qilishi bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun o'qituvchi bunday holatni e'tiborga olishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olishi darkor. Ilmiylik va tushunarlik bir-birini to'ldiradi.

3. Tizimlilik va izchillik. Ta'limda tizimlilik bilan izchillik uzviy bog'lanadi. Tizimlilik va izchillik o'zbek tili o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ona tili bo'limlarini tartib bilan o'rganishdan tashqari, o'zlashtirish jarayonini ham tezlashtiradi. Shuning uchun ham dastur va darsliklar tizishda ushbu tamoyilga qat'iy amal qilinadi. Tizimlilik va izchillikka kundalik darsda ham amal qilinadi. Bunda yangi mavzu o'tgan mavzu bilan bog'lab tushuntiriladi.

4. Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilish. Tilning ijtimoiy hayotdagi o'rnini beqiyosdir. Chunki til bo'lmasa jamiyat ham, ijtimoiy hayot ham bo'lmaydi. Maktabni bitirgan o'quvchi ijtimoiy hayotdan o'rin oladi. Shuning uchun ona tili ta'limining yangilangan mazmuni ta'lim jarayoni tuzilishining maqsadi, vazifasi, bayon etish usullarini belgilab berishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bilimlarning puxtaligi va ongli o'zlashtirilganligi amaliy ko'nikmalarni hosil qiladi.

O'quvchilarning nazariy bilimlari bilan amaliy tayyorgarligi orasida farq bo'lishi mumkin. Tilning qonun-qoidalarini bilgan holda unga amal qilmagan, o'z fikrini ona tilida to'g'ri, ravon ifodalay olmagan o'quvchining amaliyotdan tayyorgarligi past hisoblanadi. O'quvchilarda boshqalar bilan muloqotda ona tilining go'zal va rang-barangligini namoyish qilish kabi amaliy ko'nikmalarni hosil qilish lozim.

5. O'qitishda ko'rgazmalilik. Ona tili predmetining tabiati ko'rgazmalilikni ko'proq talab qiladi. Tildagi mavhumlik, umumlashtirish, uning mohiyatini anglash va ongli o'zlashtirish ko'rgazmali vositalar yordamida jonli va qiziqarli bo'ladi. Ko'rgazmali vositalar tabiiy yoki aniq buyumlardan hamda rasm, jadval, sxema, kartina kabi tasvir vositalaridan iborat bo'lishi mumkin. Shuningdek, rasmi va grammatik topshiriqli tarqatmalardan barcha shakldagi darslarda, darsning barcha bosqichlarida fydalanish mumkin.

Ona tili darslarining tiplari va tuzilishi.

O'quvchilar ona tilidan bilim va ko'nikmalarni, asosan, dars jarayonida oladi. Bundan tashqari, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham oladi. Demak, maktab, darslik, o'qituvchi tushunchalari bir butunlikni tashkil qiladi.

Dars o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining ko'zgusi sanalib, unda samaradorlikka erishish uchun, birinchidan, material g'oyaviy jihatdan yuqori saviyada o'tilishi, ikkinchidan, o'quvchilarni uyushtirish uchun puxta tayyorgarlik kerak.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan ichki va tashqi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. O'quvchilarning doimiy gruppasi, qat'iy rejim, dars jadvali, mashg'ulotlarning ma'lum xonalarda o'tilishi darsning tashqi xususiyatlari bo'lsa; darsning maqsadi, o'quvchilarning bilimga qiziqishlari, ta'lim materialini his qilish, tushunish ichki xususiyati sanaladi.

Zamonaviy darslarning uchta tipini ko'rsatish mumkin:

- 1) ona tilidan yangi bilim berish darslari;
- 2) o'tganlarni mustahkamlash darslari;
- 3) bilim va malakalarni tekshirish darslari.

Darsning tarkibiy tuzilishiga yangi bilimlarni izohlash, uy vazifalarini tekshirish, o'tilganlarni mustahkamlash, qaytarish (takrorlash), darsni tashkil etish va xulosalashni kiritish mumkin. Darsning tuzilish tartibi darsning xususiyatiga qarab o'zgarib turishi mumkin.

1. Yangi materialni izohlash darslari. Har bir darsning tuzilishi materialning mazmuni, sinfnings umumiy saviyasi sari, pedagogik sistema kabi faktorlar bilan

belgilanadi. Yangi bilim berishning kulminatsiyasi o'quvchilarga notanish yangi narsani ochishdir. Bu o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi: a) o'quvchiga yangi material tushunarli bo'lsin; b) o'quvchilarda shu mavzuga qiziqish uyg'onsin. Bunda eng muhimi yangi bilimni o'quvchilarga tanish bilimlar bilan bog'lab olib borishdir. Yangi bilim berish darsining tuzilishi:

- 1) Darsning tashkiliy qismi, uy vazifasini so'rash – 5-7 minut.
- 2) Yangi mavzu bayoni – 15 minutgacha.
- 3) Grammatik qoida va xulosalar ustida ishlash, ularni o'quvchilarga takrorlatish – 3-5 minut.
- 4) O'tilgan materialni mustahkamlash – 13-15 minut.
- 5) Uyga vazifa berish – 3-5 minut.

2. O'tilganlarni mustahkamlash darslari.

Bilimlarni puxta o'zlashtirish muntazam mashq qilishni talab etadi. O'quvchilar ma'lum bir xulosaga til faktlarini kuzatish, analiz qilish, qiyoslash mashq qilish orqali keladilar. Ayniqsa, orfografiya va punktuatsiya qoidalari amaliy mashqlar vositasida o'rganiladi. Shuning uchun ham ona tilidan tez-tez mustahkamlash va takrorlash darslari o'tkazib turiladi. Bunda 3-4 soatlik, ba'zan, 1 soatlik darslar ustida ham mashq qilinadi. Mustahkamlash darslari katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan maqsad uchun jiddiy ishlaydi, irodasi mustahkamlanadi, qat'iyati o'sadi. Bunday darslar uchun 20-25 minut ajratiladi.

3. Bilim va malakalarni tekshirish darslari. O'quvchilarning mustaqil ishlarini va qiziqishlarini tekshirish orqali o'qituvchi o'z metodining holatini aniqlab oladi. O'quvchilarning bilim darajasiga qarab metodini o'zgartiradi. Bunday darslar darsning har qanday holatida, xususan, nazariy yozma ishlarida uyushtiriladi.

Uy vazifalari va ularni tekshirish.

Uyga vazifa ona tili darslarining tarkibiy qismi sanaladi. O'quvchilarning ona tilidan bilim va ko'nikmalarini oshirishda, imlo qoidalarini o'zlashtirishda uyga vazifaning ahamiyati bor. Uyga vazifa sinfda o'tkazilgan dars mashg'ulotlarining

davomi sanaladi. Uyga vazifa tariqasida hamma turdagi mashqlar – ko‘chirib yozishdan inshogacha – nazariy materiallar beriladi.

Ona tili o‘qituvchisi sinf rahbari va ota-onalar bilan kelishib, uy vazifasining hajmi, murakkabligi va boshqa masalalarda yagona rejimga kelishib olishlari lozim.

Uyga vazifalarni to‘g‘ri bajarish o‘quvchilarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlariga bog‘liq. Uy vazifalarini bajarishda o‘quvchilarni quyidagilarga odatlantirish kerak:

- avvalo, sinfda o‘tilgan qoidani eslash;
- keyin darslikdan o‘sha paragrafni o‘qib chiqish;
- berilgan mashqni bir-ikki marta sinchiklab o‘qish;
- mashq shartiga bog‘lab og‘zaki bajarish;
- shundan so‘ng topshiriqni yozma bajarish.

Uyga vazifalar tekshirilib daftarlar vaqti-vaqti bilan yig‘ishtirib olinadi. Bo‘shroq o‘quvchilarning daftarlari doimo nazorat qilinadi. Ona tili darslarida o‘tgan darsni so‘rash ko‘proq frontal savollar asosida bajariladi, ya‘ni savol butun sinfga beriladi, javobga mo‘ljaldagi o‘quvchi chaqiriladi.

O‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar.

Metod – umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli, muayyan tartibga solingan faoliyat demakdir. Didaktik ma’noda hamma fanlar uchun umumiy bo‘lgan o‘qitish usullari va vositalarini o‘z ichiga oladi. Dars jarayonida ko‘plab metodlardan foydalaniladi. Metod tanlashda quyidagi faktorlarga asoslanadi:

- o‘quvchilar bilimni qaysi manbadan oladi (o‘qituvchidan, kitobdan).
- o‘quvchilarni mashg‘ulotlarga jalb qilish jarayoni (moyillik, qiziqish).
- o‘quvchilarning mustaqil ishlash shakllari (yozma, og‘zaki) va o‘rni (sinfda, uyda).

Metodika tarixidan shu narsa ma’lumki, hamma fanlar uchun umumiy bo‘lgan metodlar va alohida fanlar uchun xarakterli bo‘lgan metodlar mavjud. Ona tili o‘qitish metodikasida ham xilma-xil metodlar qo‘llaniladi. Bu metodlarni umumiy lashtirib ikkiga ajratish mumkin:

1. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar;
2. O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni uchga ajratamiz:

- bilimlarni tayyor holida bayon qilish;
- bilimlarni suhbat vositasida bayon qilish;
- bilimlarni muammoli bayon qilish.

A. Bilimlarni tayyor holida bayon qilish usuli. Bu metod ona tili darslarida juda ko'p qo'llanadi. Bayon qilish davomida murakkabroq, o'quvchilarga oldindan noma'lum mavzular izohlanadi. Bu usulning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomonlaridan biri vaqtni tejaydi. Salbiy tomoni o'quvchilarni fikrlash faoliyati ma'lum darajada chegaralanadi. O'quvchi passiv tinglovchiga aylanib qolishi mumkin. Bu negativ holatning oldini olish uchun o'qituvchi quyidagilarga amal qilgani ma'qul:

1. O'qituvchi nutq madaniyatiga e'tiborini kuchaytirish.
2. Ishontirish va asoslash usulini keng qo'llash.
3. Qat'iy rejaga amal qilish.

B. Bilimlarni suhbat yo'li bilan bayon qilish usuli. Bu usuldan darsning hamma bosqichlarida: yangi bilim berishda, bilimlarni takrorlash va mustahkamlashda, bilimlarni tekshirish va baholashda foydalansa bo'ladi. O'rganilayotgan material o'quvchilarga oldingi sinfdan qisman ma'lum bo'lsa yoki o'quv materiali oldingi mavzu bilan bevosita bog'lansa darsda suhbat metodi qo'llasa bo'ladi. Suhbatda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida berilgan faktlarni kuzatadilar, o'zaro qiyoslaydilar va muhokama qiladilar. Bu usul o'quvchilar nutqini o'stirishda muhim omillardan sanaladi.

Suhbat uch xil bo'ladi: a) axborot xarakteridagi suhbat; b) evristik suhbat; c) o'tilgan mavzuni mustahkamlash xarakteridagi suhbat.

1. Axborot xarakteridagi suhbat. Yangi material o'tilayotganda o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan faktlarni nazarda tutib, ular suhbatga jalb qilinadi. Bunday suhbat qiyosiy usulda o'tiladigan mavzularda qo'l keladi: sifat o'tilayotganda o'quvchilardan sifatdoshning grammatik belgisini so'rash mumkin:

o'qigan bola – yaxshi bola misoli vositasida ular o'rtasidagi umumiylik aniqlanadi. Yoki qaysi so'z turkumi zamon anglatadi?

2. Evristik (grek. heurisko–topmoq) suhbatda o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari ancha kengayadi. Bunda o'qituvchi oldindan ma'lum bo'lmagan yangi o'quv materiallari yuzasidan savollar beradi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash xarakteridagi suhbat. Suhbatning bu turidan o'tilganlarni takrorlash, 5-6 kun oldin o'tilgan qoidalarni eslatish maqsadida foydalaniladi. Bunda savollar qo'shaloq bo'lmasligi kerak. Ba'zi savollar alternativ xarakterda bo'lishi mumkin.

D. Bilimlarni muammoli bayon qilish. Bu usulda o'qituvchi til materiallarini tayyor holda bayon etmaydi, balki kuzatish, taqqoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumiyashtirish kabi logik-lingvistik vositalardan foydalanib o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammo qo'yadi. “Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi” (V. O. Distervng). O'quvchilar o'zlarida mavjud bilim va ko'nikmalar asosida muammoni yechadilar. Masalan, “Nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi” mavzusida:

- Har biringiz nutq tovushlarini hosil qilib ko'ring. Uni hosil qilishda qaysi nutq organlari ishtirok etadi?

- Nutq tovushlari talaffuzida qaysi nutq a'zolari aktiv ishtirok etadi?

O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

Ular ham uchta:

- reproduktiv metodlar;
- qisman izlanuvchanlik metodlari;
- izlanuvchanlikka asoslangan metodlar.

A. Reproduktiv metodlar. Bu usulda o'quvchilar tayyor material bilan ishlaydilar. Topshiriqni bajarishda namunaga qarab ish ko'radi: ko'chirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant O'quvchilarning orfografik va punktuatsion savodxonligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini o'strishda reproduktiv topshiriqlarning roli katta. Bu o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatadi va ayni

paytda keyingi metodlar qisman izlanuvchanlik va izlanuvchanlikka zamin yaratadi.

B. Qisman izlanuvchanlik metodlari. Bu usul o'quvchilarning interpretatsion (sharhlash, tushuntirib berish) faolligini oshirishga qaratilgan. Qisman izlanuvchanlik metodi tarkibida qayta xotirlash (reproduktiv) asosiy o'rinni egallaydi. Chunki o'quvchi har qanday fikrini asoslashi kerak...

Bu metodda quyidagi ish usullari qo'llaniladi:

- nuqtalar o'rniga zarur harf, qo'shimcha, so'zlar qo'yish;
- ma'lum bir so'zni boshqasi bilan almashtirish;
- gapga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish orqali ma'no o'zgarishini tushuntirish;
- ma'lum uslubga muvofiq matn tanlash;
- tayanch so'zlar yordamida (ishtirokida) matn tuzish kabilar.

D. Izlanishga asoslangan metodlar. Bu metod asosida bajariladigan ishlar o'quvchi faoliyatining kulminatsiyasi sanaladi. Bu usul izlash, yangilik topish uchun harakat qilish, qidirish, axtarish ma'nolarini anglatadi. Bu metod o'quvchidan ona tilidan o'rganilgan qonun-qoidalarni tamoman yangi vaziyatda qo'llashni talab etadi. O'quvchilarning grammatik qoida talabiga muvofiq so'z, so'z birikmasi, gap va matn tanlashi; erkin diktant, insho; o'qilgan badiiy asarga taqriz yozish; badiiy asar tilini mustaqil o'rganish; gazeta va jurnallarga maqola yozish, referat tayyorlash kabi ish usullarida tadqiqotchilik faoliyati namoyon bo'ladi.

Fonetika o'qitish prinsplari, maqsad va vazifalari.

Til haqidagi fanlarning har bir bo'limi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni o'rganishda umummetodik prinsplardan tashqari shu bo'limlarning xususiyatlaridan kelib chiqadigan xususiy metodik prinsplarni ham e'tiborga olish kerak. Fonetika o'qitish quyidagi xususiy metodik prinsplarga ega:

- o'quvchilarning o'z nutq ohangiga tayanish;
- tovushni morfema tarkibida ko'rib chiqish;
- tovush va harfni qiyoslash.

Maktabda “Fonetika” bo‘limini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda amaliy malakalar – savodxonlikni, to‘g‘ri so‘zlashni shakllantirish va takomillashtirishdan iborat.

Nutq tovushlarining kishilik hayotida tutgan o‘rnini, nutq tovushlarining boshqa tovushlardan farqini, nutq tovushlarining paydo bo‘lish yo‘llarini, nutq tovushlarini hosil qiladigan organlarning vazifalarini, tovush va harf munosabatini, bo‘g‘in va urg‘uni o‘quvchilarga o‘rgatish fonetika bo‘limini o‘qitish vazifalari sanaladi.

O‘quvchilarning orfografik savodxonligi ko‘proq talaffuz bilan bog‘liq bo‘lgani uchun fonetika o‘qitishga diqqatni ko‘proq qaratmoq kerak.

Nutq tovushlarini o‘qitishning metod va usullari.

Fonetika termini haqida ma’lumot...-Bu bo‘lim nutq tovushlari, tovushlarning yozuvdagi ifodasi – harf, alfavit, unlilar imlosi, urg‘u, undoshlar imlosi, bo‘g‘in, nutq tovushlarining so‘z ma’nosiga ta’siri kabi materiallarni qamrab oladi.

O‘quvchilarga “Fonetika” bo‘limini his qildirish uchun biror matn olinib, u so‘zlarga ajratiladi. So‘zlardagi tovush va harf miqdori aniqlanib, ulardagi unlilar va undoshlar belgilanib, so‘zlar bo‘g‘inlarga, satrdan ko‘chiriladigan qismlarga ajratish topshiriladi.

Shundan so‘ng nutq apparati va nutq tovushlari haqida ma’lumot beriladi. Nutq tovushlarining talaffuzdagi farqlaridan tashqari, ma’no farqlash xususiyatlari haqida ham gapiriladi: bel, bil, bo‘l, bol, ... ,tosh – mosh. Shundan so‘ng unli tovushlar haqida ma’lumot beriladi. Unli tovushlarning xarakterli tomonlari undoshlarga qiyoslanadi.

Fonetikani o‘rganishda eng muhim masalalardan biri imlodir. Har bir tovushni imlo bilan birga o‘rganish zarur.

Fonetikaning eng murakkab tomonlaridan biri undosh tovushlar ularning talaffuz va imlosidir. Uzviylashtirilgan davlat dasturida undosh tovushlar tasnifi berilgan. Bu o‘quvchilarga undosh tovushlarning talaffuz va imlosini o‘rganishga

katta yordam beradi: o'quvchilar biror fonemaga ikkilanganda bu qanday fonema demasdan, balki qayerda hosil bo'ladi? deb so'rash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning undosh tovushlar talaffuzi va imlosini yaxshi o'zlashtirishlari uchun quyidagicha mashq bajartirish mumkin:

- so'zlarni b – p, d – t, g – k, g' – q, f – p, ch – j harflari bilan farqlovchi juftlarga ajrating;
- jarangli va jarangsiz undoshlarni izohlang;
- x – h tovushlari bilan farqlanuvchi so'zlarni toping;
- f fonemasi ustida ishlash va boshqalar.

Leksikologiya o'qitishning prinsplari, maqsad va vazifalari.

Bu mavzuga tilshunoslik bo'limlarini eslab turib, ularning har birining o'ziga xos tomonlari mavjudligini hisobga olish zarur.

Nutqimizning aniq, ravon, mantiqiy bo'lishida so'z-leksemasining o'rnini beqiyos. Uni o'quvchilarga o'rgatishning o'ziga xos prinsplari mavjud.

-leksik-grammatik prinsp: nomidan ma'lumki so'zlarning leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosi qiyoslanadi. Bunda leksik ma'no nima, grammatik ma'no nima degan savolga javob tayyor bo'lish kerak. Leksik ma'no so'zlarning lug'aviy ma'nosi, ya'ni biror narsa, predmet, belgi, xususiyat kabilarni anglatgan ma'nosi bo'lsa, grammatik ma'no so'z (leksika)ning grammatika ixtiyoriga o'tgandan keyingi ma'nosi: "o'rik"ning mevaligi predmetni ifodalashi bo'lsa, turdosh ot, bosh kelishikdagi birlik sondagi otligi grammatik ma'nosidir. Bundan leksemalar ham leksik, ham grammatik ma'nolarga ega bo'lgan til birliklaridir degan xulosa chiqadi;

-kontekstli prinsp. Bu prinspga ko'ra so'z (leksema)ning ma'nosi kontekst (matn)da qaraladi. Kontekst so'zlarni boshqa ma'nolardan tozalaydi. So'zda bir necha ma'no bo'lishi mumkin. Lekin u matnda bitta ma'nosi bilan qatnashadi. Sintagmatik aloqa vositasini o'taydi (sintagma –bir yoki bir nechta so'zdan iborat sintagmatik intanatsion mazmunliy nutq birligi). Demak bu o'rinda so'z (leksema)ga nutq birligi sifatida qaraladi.

-leksik–sintaktik prinsp. Bunda ham soʻzning nutq jarayonida bajaradigan vazifasi nazarda tutiladi, yaʼni soʻz bilan soʻz birikmasini qiyoslash nazarda tutiladi: qalam –qizil qalam. Qalam soʻzi nutq sharoitiga qarab boshqa soʻzlar bilan birikib soʻz birikmasi hosil qiladi. Soʻz (leksema)ning maʼnosi yanada konkretlashmoqda.

Soʻzning bunday prinsplar asosida tushuntirilishi oʻquvchilarga soʻz mohiyatini, nutqdagi oʻrnini yanada chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Tilshunoslikning bu boʻlimini oʻqitishning asosiy maqsadi ham yuqoridagi tahlil asosida yuzaga chiqadi, yaʼni soʻz va tushunchalarning oʻzaro munosabati, soʻzlarning maʼno tiplari, soʻz maʼnolarining ifodalanish yoʻllarini oʻrgatishdir.

Har qanday boʻlimni oʻqitishda maqsad qilib uni oʻquvchilarga oʻrgatishning eng asosiy tomonlari olinsa ana shu maqsadni detallashtirilgan holda roʻyobga chiqarish uning vazifasini belgilaydi, yaʼni bu boʻlimning asosiy vazifasi soʻz maʼnolarining taraqqiyoti, koʻp maʼnolilikning hosil boʻlishi, lugʻat tarkibining grammatik qurilish bilan bogʻliqligi, soʻzning grammatika ixtiyoriga oʻtgandan keyin oʻzgarish sabablari, iboralar va ularning shakllanishini oʻrganishdir.

Vazifa qilib belgilangan har bir tushuncha atroflicha tahlil qilinadi. Masalan, soʻzlarning grammatika ixtiyoriga oʻtgandan keyin oʻzgarish sabablari deyilganida soʻzning grammatik jihatdan oʻzgarishi nazarda tutiladi: Maydondagi chiroyli gullardan terdik gapidagi maydondagi, gullardan, terdik soʻzlari maydon, gul, ter –shakllarida mavjud. Ularning gap tarkibida nima sababdan oʻzgargan holda ishtirok etishi tushuntiriladi va h.k.

Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlarni, iboralarni oʻtish metodikasi.

Oʻquvchilarga, avvalo, soʻzning lugʻaviy maʼnosi haqida tushuncha beriladi: soʻzlarning biror predmet, belgi, harakat va boshqalarni anglatishi uning lugʻaviy maʼnosi sanaladi. Lekin soʻzlarning hammasi bir maʼnoli yoki bir necha maʼnoli boʻlmasligi taʼkidlanadi. Shu xususiyatlarga koʻra soʻzlar bir maʼnoli va koʻp maʼnoliga ajratiladi. Agarda soʻzning anglatadigan maʼnosi birdan ortiq boʻlsa koʻp maʼnoli sanaladi. Buni tushuntirish uchun har bir soʻzning biror lugʻaviy maʼnoga ega boʻlishi aytiladi: odam, bola, farzand, oʻgʻil, qiz soʻzlari umuman

insonga xos soʻzlar boʻlsa-da, ular bir-biridan farqli, boshqa-boshqa maʼnolarni anglatadi. Shuning uchun ham ularning har birini alohida soʻz deymiz. Koʻp maʼnoli soʻzlar bir necha maʼnoni anglatga-da, ular bir soʻz sanaladi, chunki, birinchidan, bir shaklga ega, ikkinchidan, bosh –asosiy maʼnodan boshqa maʼnolari yuzaga kelgan. Masalan, koʻz soʻzi anglatgan maʼnolar.

Birgina maʼno anglatadigan soʻzlarni bir maʼnoli soʻzlar deb atalishi aytilib unga misollar keltiriladi: alfavit, urgʻu, radius, diametr, zoologiya va boshqalar.

Leksikologiya boʻlimini oʻta boshlagadanoq oʻquvchilarni lugʻatlar bilan ishlashini mashq qildira borish kerak. “Imlo lugʻati” , “Oʻzbek tili izohli lugʻati”dan foydalanish yoʻllarini oʻrgatish zarur. Izohli lugʻatda soʻzlarning, xususan, koʻp maʼnoli soʻzlarning berilishini alohida tushuntirish lozim. Shundan keyin koʻp maʼnoli soʻzlarning hosil boʻlishi sabablari tushuntiriladi, yaʼni soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolari haqida maʼlumot beriladi: koʻchma maʼno asosida koʻp maʼnolilik yuzaga keladi. Ular boʻyicha mashqlar ishlatiladi. Bunda asosiy eʼtibor soʻzlarning koʻchma maʼnolarini aniqlashga qaratilishi zarur. Soʻz va uning maʼnosi bilan bevosita aloqador boʻlgan omonimlar, sinonimlar, antonimlar, paoronimlar, uyadosh soʻzlar kabi hodisalarga ham oʻquvchilar diqqati qaratilishi lozim. Bular orasida uyadosh soʻzlar va ularni oʻqitishga diqqatni qaratish zarur. Chunki uyadosh soʻzlar nisbatan yangi tushuncha, shu bilan birga bir uyaga mansub soʻzlarni aniqlash anchagina murakkablik qiladi. Bunda soʻzlarning joylashishi umumiydan xususiyga qarab yoʻnaltirilgan boʻladi. Masalan daraxt soʻzining uyadoshlari umuman butagan boshqa soʻzlarni qamrab oladi: ular uchun umumiy boʻlgan daraxt uya boshi sanaladi. Ulardan keyin avval mevali soʻng manzarali daraxtlar keltirilishi lozim. Xuddi shuningdek, “mevali daraxtlar” ham, “manzarali daraxtlar” ham alohida –alohida uyani hosil qilaveradi.

Leksikologiyaga oid materiallar iboralarni oʻtish bilan yakunlanadi. Ibora haqida tushuncha berilar ekan uning butunicha koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi aytiladi. Bu qiyinchilik tugʻdirmaydi chunki koʻchma maʼnoda qoʻllanishi nima ekanligi oʻquvchilarga maʼlum. Maktab darsligida gap boʻlaklariga teng iboralarni oʻtish maqsadga muvofiqdir: oq koʻngil, suv quyganday, kapalagi uchdi.

Iboralar o'tilayotganda unga tavsif berib iboraning ma'nosi bir mustaqil so'zga teng kelishi; uning tarkibida birdan ortiq mustaqil so'zning bo'lishi; iboralardan o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshirishi haqida ma'lumot berish kerak. Shuni ham aytish kerakki iboralarni tushuntirishda ko'chma ma'nosini osongina tushunadigan, ularning yoshiga mos misollar tanlanishi zarur:

-Oyi nega qovog'ingizni silayapsiz?

-Ko'zim uchdi.

-Iya, joyida turibdi-ku? O'quvchilarga leksik –frazologik mashqlar bajartirish mavzuni mustahkamlaydi.

Morfologiya o'qitishning maqsad va vazifalar hamda mustaqil so'zlarni o'tish metodikasi.

Bu mavzuda, avvalo, maktab ona tili kursining qanday qismlardan iboratligi, shulardan biri grammatikaligi hamda grammatikaning ikkiga ajratilishi haqida gapiriladi. Shulardan biri morfologiya ekanligi aytilib, uning nimalarni o'rganilishi haqida to'xtaladi. Shundan so'zning, uning *maqsadi* – nutqimizda qo'llaniladigan so'zlarning anglatadigan ma'nolari, morfologik belgilari, sintaktik funksiyasiga ko'ra turkumlarga ajratish prinsplarini o'rgatishdir.

O'quvchilarga har bir so'z turkumiga xos bo'lgan grammatik kategoriyalarini (masalan, otga xos: egalik, kelishik, son; sifatga xos: daraja, intensiv shakl va boshqalar), so'z turkumlarining yasalishini (qo'shimchalar qo'shish, so'zga so'z qo'shish yo'li bilan), so'z shakllarini (asosga turli qo'shimchalar qo'shilishni: kitobga, mening, qizilroq), so'z o'zaklarining funksional qo'llanilishi, so'z shakllarining so'z birikmasi va gap qurilishidagi rolini, morfologiyaning orfografiya bilan bevosita aloqadorligini, morfologik shakllangan so'zlarning stilistik vazifalarini tushuntirish morfologiya o'qitishning *asosiy vazifalari sanaladi*.

Mustaqil so'z turkumlarini o'tishda, avvalo, so'zlarning qanday prinsplariga ko'ra guruhlanishi haqida to'xtalib, nima uchun mustaqil so'zlar deb nomlanishi aniqlanadi. Nutqimizda qo'llaniladigan so'zlar anglatgan ma'nolariga ko'ra, bajargan funksiyalariga ko'ra bir xil emas. Ularning ayrimlari lug'aviy ma'no

anglatsa, ayrimlarida bu xususiyat yo‘q. Bunday so‘zlar grammatika ixtiyoriga o‘tgandan keyin ularning grammatik ma’nolari va vazifalariga diqqat qaratiladi. Ham lug‘aviy, ham grammatik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarni mustaqil so‘zlar deb yuritamiz. Mustaqil so‘zlar obyektiv borliqdagi narsa, predmet, belgi, xususiyat, miqdor kabi tushunchalarni anglatishiga ko‘ra yana guruhlariga ajratiladi. Mustaqil so‘zlar 3 ta prinspga ko‘ra guruhlanadi: semantik, morfologik, sintaktik prinsplar. Shunday hollar bo‘ladiki, biror so‘zning qaysi turkumga mansubligini aniqlash qiyinlashadi: *katta* –sifat; bir kattaning gapini ol, bir kichikning; *katta* gapirdi. Yoki *oy* –ot, *oy* yuzli, *oy* borib omon qayt. Shunday hollarda yuqoridagi prinsplar ish beradi. Mustaqil so‘zlar 6 ta bo‘lib shulardan biri ot so‘z turkumidir.

Otlarning predmet ma’nosini anglatishiga ko‘ra kengroq to‘xtalishimiz kerak, ularga misollar keltiriladi: qalam, havo, koinot, xayol kabi. Ot mavzusi o‘tilayotganda fonetika va so‘z tarkibiga oid ba’zi mavzular esga tushiriladi. Chunki otlarga qo‘shimchalar qo‘shilganda ayrim o‘zgarishlar yuz beradi: *Bek* – begi, *tayoq* –tayog‘i kabi.

Ot haqida umumiy ma’lumot berilgach, uning grammatik kategoriyalari, atoqli va turdosh otlar, turdosh otlarning semantik guruhlar alohida –alohida mavzu sifatida o‘tiladi. Atoqli otlarning imlosiga alohida diqqat qaratiladi. Turdosh otlar o‘tilganda uning semantik guruhlariga o‘quvchilar e’tibori qaratilib, o‘qituvchi nima sababdan turdosh otlar bunday semantik guruhlariga ajratiladi degan savolni, avvalo o‘ziga berib uning javobini o‘quvchilarga turshuntirishi kerak.

Yordamchi so‘z turkumlari va alohida ajratilgan so‘zlarni o‘tish. Yordamchi so‘z turkumlarini o‘tishda quyidagi maqsadlar qo‘yiladi.

–o‘quvchilarning grammatikadan olayotgan bilimlarini yanada boyitib, har bir yordamchi so‘z turkumining o‘ziga xos xususiyatini o‘rgatish;

–yordamchi so‘zlarning mustaqil so‘zlardan va o‘zaro bir-biridan farqlarini o‘rgatish;

–o‘quvchilarning yordamchi so‘zlarni o‘z nutqida to‘g‘ri qo‘llay olishlarini o‘rgatish;

–yordamchi soʻzlarning, ayniqsa, yuklamalarning yozilishini oʻrgatish.

Buning uchun oʻqituvchi yordamchi soʻzlarni mustaqil soʻzlar bilan qiyoslab ular oʻrtasidagi farqni tushuntiradi: mustaqil soʻzlar biror soʻroqqa javob boʻlib, biror gap boʻlagi vazifasida keladi, yordamchi soʻzlar bu xususiyatga ega emas. Bunda mustaqil va yordamchi soʻzlar ishtirok etgan gap olinib, ular bir –biriga taqqoslanadi.

Shundan keyin yordamchi soʻzlarning 3ga: koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalarga ajratilishi haqida toʻxtaladi. Shulardan biri koʻmakchilar boʻlib ularning sof va vazifadosh koʻmakchi soʻzlarga ajratilishi aytiladi. Ularning oʻziga xos tomonlari atroflicha muhokama qilinadi.

“Koʻmakchilar” mavzusi oʻtilayotganda oʻquvchilar diqqati koʻmakchilar bilan otlarning kelishik qoʻshimchalari oʻrtasidagi munosabatga qaratilishi kerak. Koʻmakchilarning gap maʼnosiga taʼsiriga alohida eʼtibor berish zarur: Akam bilan birga ketdi –Akam birga ketdi. Birinchi gapda akam ustun, ikkinchi gapda tobe boʻlib kelmoqda.

Koʻmakchi vazifasidagi soʻzlarni sof koʻmakchilarga qiyoslansa, tushunish oson kechadi: Adham keyin boradi. Tushdan keyin yomgʻir yogʻdi. Keyin birinchi gapda ravish, ikkinchi gapda koʻmakchi boʻlib kelmoqda. Bunga oʻxshash misollarni oʻquvchilarning oʻzlariga ham toptiriladi.

Nutqimizdagi shunday soʻzlar ishlatiladiki, ularda mustaqil soʻzlarga xos xususiyat ham, yordamchi soʻzlarga xos xususiyatlar ham yoʻq. Xuddi yordamchi soʻzlar kabi gap boʻlagi boʻlib kela olmaydi, lekin yordamchi soʻzlar doirasiga ham kirmaydi. Ularning oʻziga xos xususiyatlariga va gapdagi vazifasiga koʻra uchga ajratamiz: modal soʻzlar, undov soʻzlar, taqlid soʻzlar.

Modal soʻzlarni oʻtishda, avval, nazariy maʼlumot beriladi. Modal soʻzlar soʻzlovchining anglatilayotgan fikrga munosabatini bildiradi. Ular gapning boshqa boʻlaklari bilan grammatik aloqaga kirmaydi, biror gap boʻlagi boʻlib kelmaydi. Soʻzlovchining anglatgan fikriga munosabati aniq (albatta, haqiqatdan) yoki noaniq (ehtimol, chamasi) boʻlishi mumkin. Shunga koʻra ularni ikkiga ajratamiz: 1) fikrning aniqligini ifodalovchi; 2) fikrning noaniqligini ifodalovchi modal

soʻzlar. Xuddi shuningdek, undov soʻzlar oʻtilayotganda ham, taqlid soʻzlar oʻtilayotganda ham ular haqida qisqacha nazariy maʼlumot beriladi, turlari aytiladi hamda matndagi undov yoki taqlid soʻzlar topilib oʻquvchilarning bilimlari mustahkamlanadi.

Sintaksis oʻqitishning maqsad va vazifalari hamda soʻz birikmasini oʻtish metodikasi.

Ona tili darslarning asosiy maqsadlaridan biri oʻquvchilarning ogʻzaki hamda yozma nutqini oʻstirishdir. Bu maqsadning amalga oshishida sintaksis oʻqitishining ahamiyati katta. Sintaksis oʻqitishning asosiy maqsadi uni morfologiya bilan qiyoslab oʻrganish, shuningdek, soʻz turkumlari bilan gap boʻlaklari orasidagi farqli va bogʻlanishli tomonlarini tushuntirishdan iborat.

Oʻquvchilar nutqining intanatsion tomonini oʻrgatish; oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatini, tafakkurni oʻstirish, takomillashtirish bu kursning asosiy vazifasi sanaladi.

Oʻquvchilar sintaksisni oʻrganish orqali oʻz nutqlarida uchraydigan xatolarni biladilar va ularni bartaraf qilishga harakat qiladilar. Sodda qoʻshma gaplarni tahlil qilish jarayonida tinish belgilarning ahamiyatini anglab yetadilar. Tinish belgilarning qoʻyilishiga qarab gapni intonatsiya bilan oʻqishni oʻrganadilar.

Kishilar oʻz fikrlarini obyektiv dunyoda koʻrgan bilganlari asosida tartibga soladilar. Obyektiv olamda alohida olingan narsa yoʻq. Ular bir-biri bilan aloqada boʻladilar. Nutq ham xuddi obyektiv olamdagidek oʻzaro aloqador boʻlgan, bogʻlangan narsalarni ifodalash vositasidir. Gap boʻlaklaridagi sintaktik, logik bogʻlanishlar ham qonuniy grammatik hodisalardir.

Oʻquvchilar sodda va qoʻshma gaplarni oʻrgana borib, real borliq va taraqqiyotning dialektik qonunlarini ham oʻrganadilar. Bu oʻquvchilar fikrining mantiqan izchil, toʻgʻri va asosli boʻlishini ham oʻstiradi.

Yuqorida aytilganidek, nutqimizdagi soʻzlar oʻzaro bir –biri bilan aloqador. Ana shu aloqadorlik soʻz birikmasini hosil qiladi. Soʻz birikmasi haqidagi dastlabki maʼlumot boshlangʻich sinflarda amaliy ish sifatida beriladi. V sinfda maxsus mavzu sifatida quyidagicha maʼlumot beriladi:

- soʻz birikmasi hokim va tobe soʻzlardan tuziladi;
- soʻz birikmasida soʻroq hokim soʻzdan tobe soʻzga beriladi;
- soʻz birikmasi soʻzga nisbatan predmet, belgi, ish-harakatni aniq, ifodalaydi;
- soʻz birikmasining turi hokim soʻzga nisbatan belgilanadi: otli birikma, feʼlli birikma.

VIII sinfda sintaksisni oʻrganish “Soʻz birikmasi” mavzusidan boshlanadi. Unda V sinfda oʻtilganlar takrorlanib, yangi material ham beriladi. Demak, oʻqituvchi biror sinfda ona tilining boʻlimlarini oʻtayotganda quyi sinflarda shu mavzu yuzasida oʻtilganlarni hisobga olishi kerak.

VIII sinfda mustaqil soʻzlarning oʻzaro tenglashish va tobelashish asosida birikishi haqida maʼlumot berib, bu birikishlarning qaysi biri soʻz birikmasi sanalib, qaysi biri soʻz birikmasi sanalmasligi asoslanadi. Oʻquvchilarda soʻz birikmasi haqida bilim, malaka va koʻnikma hosil qilish uchun koʻproq mustaqil mashq bajartirish kerak. Chunki hokim va tobe soʻzni toʻgʻri topa olmagan oʻquvchi soʻzlarni oʻzaro bogʻlanishini ham aniqlay olmaydi. Hokim soʻz bilan tobe soʻz haqida malaka hosil qilgach, soʻz birikmalarning taʼrifi aytiladi.

Keyingi darslarda hokim soʻz bilan tobe soʻzlarning bogʻlanish usullari haqida maʼlumot beriladi: moslashuv, boshqaruv, bitishuv.

Sodda va qoʻshma gaplarni oʻtish.

Gap haqida maʼlumot oʻquvchilarga boshlangʻich sinflarda berilgan boʻladi. VIII sinfda nisbatan kengroq maʼlumot beriladi. Bunda gapning aloqa va aralashuv quroli ekani, ularni nisbatan tugal fikr ifodalanishi, grammatik shakllanganligi, tugallangan ohang bilan aytilishi oʻquvchilar ongiga singdiriladi. Buning uchun oʻquvchi tomonidan gap aloqa aralashuvning eng kichik birligi ekanligi aniq misollarda tushuntiriladi. Gapning nisbiy tugallangan fikr ifodalashini gap bilan soʻz birikmasini taqqoslagan koʻrgazmali qurol asosida tushuntirilsa maqsadga muvofiq boʻladi. Yozgi kanikulni koʻngilli oʻtkazdik. Yozgi kanikul, koʻngilli oʻtkazdik. Mana shunday qiyosiy tahlildan keyin oʻquvchilarga gapning maʼno va grammatik jihatdan tugallangan nutq parchasi ekanligi tushuntiriladi.

Gapning biror narsa, predmet va hodisalarni ifodalashidan tashqari soʻzlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini ham uqtirish kerak. Bu oʻrinda intonatsiyaning oʻrni ham aytish zarur. Shu jihatdan gaplarning darak, soʻroq, buyruq gaplarga ajratilishi ularni mazmun va ohangiga koʻra farqlanishi tushuntiradi. Chunki soʻzda maʼno bor, gapda fikr bor, fikrda emosionallik bor: Paxta terimi boshlandi. Paxta terimi boshlandi! Bunday tushunchalarni mustahkamlash uchun maxsus tanlangan gaplarni mashq qildirish kerak. Shundan soʻng gapning mazmuniga koʻra turlari: sodda va qoʻshma gaplar haqida maʼlumot beriladi. Bu oʻrinda ham xuddi soʻz birikmalari bilan gapni qiyoslab tushuntirilganidek, sodda gaplar bilan qoʻshma gaplar qiyoslanadi.

Sodda gaplarni oʻtishda, avvalo, egali va egasiz gaplar haqida maʼlumot beriladi. Bunda dastlab gap boʻlaklariga toʻxtaladi. Gap boʻlaklarini yaxshi oʻzlashtirish uchun soʻz turkumlarini yaxshi bilishlari kerak boʻladi. Gapning grammatik asosini ega bilan kesim tashkil qiladi, shuning uchun ham ular gapning bosh boʻlaklari sanaladi. Shundan soʻng eganing ifodalanishiga kengroq toʻxtaladi. Eganing ot va olmosh bilan ifodalanishiga oʻquvchilarga qiyinchilik tugʻdirmaydi, lekin boshqa soʻz turkumlari, xususan, birikmali ega biroz qiyinchilik tugʻdiradi: Kattalarga tik gaprish bizning axloqimizda yoʻq.

Kesim mavzusi oʻtilayotganda uning gapning markazi ekanligi alohida misollar vositasida tushuntiriladi. Bu oʻrinda murakkab kesim haqida ham maʼlumot beriladi. Gapning uyushiq boʻlaklari mavzusi bilimlarni mustahkamlash darsi tipida oʻtiladi. Bu oʻrinda uyushiq kesimlarga kengroq toʻxtaladi. Sodda gaplar talqinida “gap boʻlaklari bilan grammatik aloqaga kirishayotgan soʻzlar”ni batafsil tushuntirish kerak.

Qoʻshma gap haqida maʼlumot suhbat metodi asosida olib boriladi. Chunki qoʻshma gap termini oʻquvchilarga quyi sinflardan maʼlum. IX sinfda bu mavzu chuqurroq oʻrganiladi.

Bunda ham qoʻshma gaplar sodda gaplar bilan muqoyasa qilinadi. Sodda gaplardan qoʻshma gaplar tuzish mumkinligi aytiladi. Shundan soʻng oʻquvchilarning oʻzlariga shunday misollar topish buyuriladi. Lekin oʻquvchilar

zerikib qolmasligi kerak. Yuqorida tahlil qilingan va o'quvchilarning o'zlari tuzgan qo'shma gaplarning turli xilda ekanligini tushuntirib qo'shma gaplarning turlari aytiladi.

1. Teng bog'lovchili qo'shma gap.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gap.
3. Yuklamali qo'shma gaplar.
4. Nisbiy so'zli qo'shma gaplar.
5. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.

Qo'shma gaplarning har qaysi turiga alohida –alohida to'xtalib, komponentlari orasidagi munosabatlarning ularni biriktiruvchi vositalarga mos kelishiga diqqat qaratiladi. Qo'shma gaplarni o'tishda o'quvchilarning bog'lovchilar hamda yuklamalar haqida bilganlarini eslatish kerak.

Orfografiya o'qitishning maqsad va vazifalari, orfografik mashqlarning turlarini o'tish.

Orfografiya o'qitish metodikasi o'zbek tili o'qitish metodikasining bir qismi bo'lib, uning *asosiy maqsadi* –orfografik savodxonlikni shakllantirishdir. Ya'ni harfiy va harfiy bo'lmagan vositalar yordamida mavjud orfografik qoidalar asosida so'zlarni yozishdir.

Orfografik savodxonlikning ikki darajasi mavjud:

- a) mutloq orfografik savodxonlik;
- b) nisbiy orfografik savodxonlik.

Mutloq orfografik savodxonlik deyilganda amaldagi orfografik qoidalarining hammasini biladigan, o'zbek tilda bor bo'lgan hamma so'zlarni bexato yoza oladigan kishi nazarda tutiladi. Nisbiy orfografik savodxonlik –maktabda o'rganilgan orfografik qoidalariga mos holda so'zlarni yoza olish malakasi. Maktab o'quvchilaridan mutloq orfografik savodxonlik talab qilinmaydi. Chunki birinchidan, maktabda hamma orfografik qoidalarining bir qismi o'rganiladi, ikkinchidan, tilimizdagi ko'pgina so'zlarni amaldagi orfografik qoidalar boshqarmaydi. Ularning imlosini lug'atlardan o'rganish kerak: xalqaro, qaro

ko‘zum, tatbiq, tadqiq tadqiqot kabi. Shuning uchun ham maktabda nisbiy savodxonlikni egallash talab qilinadi.

O‘quvchilarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatishda lug‘at bilan ishlashning ahamiyati katta.

Yozuv bilan o‘qishning tafovutini anglash, o‘qishda so‘zlarning imlosiga ahamiyat berish malaksini shakllantirish, o‘quvchilarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish orfografiya darslarining asosiy vazifasidir. Buning uchun orfografik mashg‘ulotlardan unumli foydalanish, har bir sinfda imlo uchun beriladigan bilimlarni belgilab olish zarur. Har bir sinfda orfografik minimumni aniqlash lozim.

Imlosini orfografik qoida bilan tushuntirib bo‘lmaydigan, faqatgina imlo lug‘atidan foydalanib yod olinadigan so‘zlar orfografik minimumga kiritiladi. Ular taxminan V sinfda 180 ta, VI sinfda 170ta, VII sinfda 150ta, VIII –IX sinflarda 140ta atrofida so‘z bo‘lishi mumkin. Orfografik qoidalar o‘zbek tilining fonetik qurilishi bilan bog‘liq bo‘lib, I –VII sinflarda grammatika o‘qitilishi bilan bog‘lab olib borilsa, VIII –IX sinflarda yozma ishlarga bog‘lab ayrim imlo qoidalar takrorlanib boriladi.

O‘quvchilar ta‘limning dastlabki paytlaridanoq to‘g‘ri yozishga odatlanib boradi. Bunga erishish uchun har bir so‘zning imlosini bee‘tibor qaramasdan tahlil orqali doim xatolarini tuzatib borish kerak.

O‘quvchilarda orfografik malakalarni shakllantirish uchun o‘tkaziladigan mashqlarni ikki guruhga ajratamiz:

- 1)maxsus orfografik mashqlar;
- 2)maxsus bo‘lmagan orfografik mashqlar.

Maxsus orfografik mashqlarga ko‘chirib yozish va diktant (ijodiy va erkin diktantdan boshqa) kiradi.

Maxsus bo‘lmagan orfografik mashqlarga ijodiy va erkin diktant, bayon va insho kiradi. Orfografik xatolarni tuzatish va tahlil qilish.

O‘quvchilar savodxonlik darajasini o‘rganish ularning orfografik va punktuatsion xatolarini tuzatish orfografiya o‘qitishda asosiy o‘rinda turadi.

O'quvchilar savodxonlik darajasini oshirishda "Imlo lug'ati"ning ahamiyati katta. Undan foydalanish tartibini o'quvchilarga o'rgatish zarur. Lug'at daftar yuritish ham foydali.

Maktabda o'tkaziladigan barcha yozma ishlar o'quvchilar savodxonligini aniqlash vositasidir. O'quvchilardan olingan har bir yozma ishning, albatta, xatolari tuzatilishi kerak, aks holda o'quvchi xatolarga befarq qaraydigan bo'lib qoladi. Xatolarni tuzatishda o'quvchilarning o'zlarini ham jalb qilish mumkin. Nazorat xarakteridagi yozma ishlar o'qituvchi tomonidan tekshiriladi.

Uyga berilgan topshiriqlar quyidagicha tekshirilishi mumkin:

- parta ustiga qo'yilgan daftarlarni tekshirib chiqish;
- biror o'quvchini doskaga chiqarib uning yozganini tekshirish;
- har bir gapni navbat bilan o'qitish, yozilishini so'zlatish.

O'qituvchilar o'quvchilarning xatolarini tuzatishda turli usullarni qo'llaydilar. Xatolarni tuzatishning ko'proq mustaqil ishlashga jalb qiladigan yo'llari ham mavjud:

- xato yozilgan harfning tagiga chizish;
- xato yozilgan bo'g'ining yoki so'zning tagiga chizish;
- xato yozilgan so'z qatoridagi xoshyaga belgi qo'yish.

Bunday xato o'qituvchi tomonidan tuzatilmaydi. Ba'zan diktantdagi xatolar ro'yxati yozib olinib, faqat ularning miqdori aytilib, ularni tuzatish o'quvchilarning o'zlariga topshiriladi. Bunda o'quvchining mustaqil ishi ko'proq bo'ladi. Xato tuzatishning bu usulida darslik, qo'llanmalardan foydalaniladi.

Xatolarning bir necha turlari mavjud: qo'pol xatolar, qo'pol bo'lmagan xatolar, o'tilgan qoidaga oid xatolar, o'tilmagan qoidaga oid xatolar.

Qo'pol xatolar. O'tilgan qoidalarda yoki o'zlashish darajasi tekshirilayotgan qoidalarda, o'quvchilar uchun tanish bo'lgan so'zlarda qilingan xatolar.

Qo'pol bo'lmagan xatolar. O'quvchilarga tanish bo'lmagan so'zlarda qilingan xatolar, satrdan ko'chirishdagi xatolar, bir so'zni ikki xil yozish, ba'zan tasodifan yo'l qo'yilgan xatolardir. Bir so'zning bir necha o'rinda bir xil xato bilan yozilishi bir xato sanaladi.

Uyga berilgan mashqlar ham nazorat ishi darajasida baholanadi. Agarda ko'chirib yozib kelish buyurilgan bo'lsa, unda o'quvchi xatoga yo'l qo'ysa bir xatoga ham qoniqarsiz baho qo'yish mumkin. Matnni o'zgartirib yozish topshirig'ida 2 -3 orfografik xatoga ham ikki qo'yish mumkin. Agar vazifa to'g'ri bajarilsa-yu, boshqa yo'nalishda bajarilsa, ya'ni mavzudan tashqariga chiqqan bo'lsa, o'quvchi topshiriqni tushunmagan hisoblanib ish baholanmaydi.

Orfografik xatolar bir necha sabab bilan vujudga keladi:

Umumiy xarakterdagi sabablar:

- yagona orfografik rejimning joriy qilinmaganligi;
- sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasining har xilligi;
- o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha ortiqcha topshiriqlar bilan bandligi;
- orfografik sistemalar bilan bog'liq sabablar.

Xatoga o'qituvchi va o'quvchining o'zlari sabab bo'lishlari mumkin:

- orfografiya o'qitishda yagona sistema va izchillikning bo'lmasligi;
- orfografiya o'qitish metodlarini to'g'ri tanlay olmaslik;
- o'qituvchining ba'zi imlo xatolariga yo'l qo'yishi;
- tanlangan mashqlarning o'quvchilar saviyasiga to'g'ri kelmasligi, bunda o'qituvchining ikkilanishi;

- xatolar bilan ishlashda muayyan sistemaning yo'qligi;
- o'qituvchining darsga puxta tayyorlanmasligi.

Xatolarning yuzaga kelishida o'quvchilarning sabab bo'lishi:

- o'quvchilar ba'zi so'zlarning ma'nosini tushunmasligi;
- biror orfografik qoidani bilmaslik yoki to'liq tatbiq qila olmaslik;
- adabiy til bilan sheva o'rtasidagi o'xshash va noo'xshash hollarini bilmaslik;
- yozilayotgan matnga diqqatni to'la qaratmaslik.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan orfografik xatolarning oldini olish uchun, xato yozilgan yozilishi mumkin bo'lgan so'zlarni to'g'rilab maxsus doskaga yozib qo'yiladi.

Orfografiya o'qitish sistemasida diktant tahlili muhim o'rin tutadi. Diktant tekshirilgach xatolar tasniflanib, tipik xatolar, tipik bo'lmagan xatolar, ayrim

o'quvchilarga xos xatolarga ajratiladi. Bunda yaxshi, o'rtacha, ko'p xatoga yo'l qo'yilgan diktantlar ajratilib, alohida –alohida taxlil qilinadi.

Orfografiya o'qitishda xatolar ustida ishlashning ahamiyati katta. Ayrim o'qituvchilar xato yozilgan so'zlarni bir necha marta yozish usulini qo'llaydilar. Buni imlosi orfografik qoidalar bilan izohlanmaydigan so'zlarga qo'llash ma'qul. Ko'p xato qiladigan o'quvchilar bilan ishlash individual xarakterga ega.

Punktuatsiya o'qitishning maqsad va vazifalari, o'zbek punktuatsiyasining prinsplari.

Punktuatsiya sistema bo'lib, har bir til tabiatiga, yozuv tizimiga mos qilib belgilanadi. Harflar tizimi alfavitni, to'g'ri yozish orfografiyani, to'g'ri talaffuz qilish orfografiyani tashkil qilganidek, tinish belgilari ham punktuatsiyani tashkil qiladi.

Punktuasiyaning asosiy maqsadi o'qituvchilarga punktuatsiyaning sistemaliligini, ijtimoiy hodisa ekanligini, fikrni yozma ifodalashdagi ahamiyatini o'rgatish sanaladi.

Punktuatsion belgilarning ahamiyatini tushuntirish uchun o'quvchi tomonidan tinish belgilar tushirib qoldirilgan biror matn tanlanib, o'quvchilarga o'qitiladi. Bu bilan o'quvchilar matnni tinish belgilarisiz tushunish qiyinligini anglab oladilar. Demak, tinish belgilari matnni oson tushunishga yordam beradi, matnni qismlarga ajratib turadi. Shunday qilib, punktuasiya-tinish belgilarini qo'yish haqidagi qoidalar yig'indisi. U fikrni yozuv orqali to'g'ri ifodalashga va boshqalar fikrini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Punktuasiya o'rgatish ona tili o'qitishdagi eng murakkab soha sanaladi. Maktablarda punktuasiya boshlang'ich sinflardan boshlab o'tilsa ham, 8—9 sinflarga kelib muntazam ravishda o'rgatiladi.

Punktuasiya kursi quyidagi vazifalarni barjaradi:

-yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi yozuv orqali bo'ladigan ijtimoiy aloqa – aralashuvni to'g'ri taminlaydi: Yoz? nominativ gaplarini o'quvchilar tinish belgilari orqali biri so'roq, ikkinchisi undov gapligini tushunadilar;

-yozma nutqdagi maqsad, mazmun, ma'nolarni aniqlaydi: gap oxiriga nima maqsadda . , ? , ! qo'yilganini anglatadi;

-gap tarkibining o'zaro munosabatini ko'rsatadi;

-yozma nutqqa stilistik qulaylik tug'diradi: Jizzax shaxridan Toshkentga qatnaydigan poyezd – "Jizzax –Toshkent" poyezdi;

-ba'zan yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ifodalashga yordam beradi: "Tavba!... Bu la'nati, asti, nima qiladi?!" Bu gapda "taajjub+kuchli his – hayajon", "so'roq+taajjub" ifodalanmoqda.

Xozirgi o'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanishiga doir quyidagi prinsplar mavjud:

1. Logik –grammatik prinsp. Bu prinsp nutqning semantik –grammatik tomonini aks ettiradi. Bunda tinish belgilari nutqning mazmuni, tuzilishi va intonasiyasiga bog'liq holda qo'yiladi:

a)nutq mazmuniga ko'ra gapning tinish belgisini qo'yish: . , ? , !.

b)nutq mazmuniga ko'ra gapga tinish belgilari qo'yish. Masalan, kiritma konstruksiyalarining ayrimlari asosiy gap bilan zich bog'lansa qavs, kuchsizroq bo'lsa tire bilan ajratiladi;

c)nutq intonasiyasiga tinish belgilarining qo'yilishi.

2. Stilistik prinsp. Bunda tinish belgilari nutq stillariga bog'liq holda ishlatiladi. Masalan, ilmiy fikr davomlilikini anglatuvchi gaplar oxiriga doim ikki nuqta qo'yiladi. Badiiy asarlarda bunday holat ko'pincha nuqta bilan cheklanadi.

3. Differensiatsiya prinspi. Bu prinspga ko'ra tinish belgilari yozuv texnikasini farqlash, tinish belgilarining qo'sha qo'llanilishidagi tartibnini belgilash, gapdagi murakkab mazmunni konkretlashtirish uchun qo'llaniladi. Masalan, gapning boshi yoki oxirida ikki qo'shtirnoq ishlatishga to'g'ri kelib qolsa, ularning shakli o'zgartirilgan holda qo'llaniladi: "Navoiy" romani Oybekning birinchi yirik tarixiy asaridir", -dedi o'qituvchi.

Tinish belgilarining ishlatilishi nutqning fikriy tomoniga qarab belgilanadi. Har qanday pauza va intonasiya belgi orqali ajratilmasdan fikriy tomoniga ta'sir

ko'rsata oladiganlariga qo'yiladi. Ayrim tinish belgilari hech qanday pauza va intonasiyasiz ishlatiladi; qo'shtirnoq.

Tinish belgilarini qo'llashda ko'pincha logik –grammatik prinsp nazarda tutiladi. Bu prinsp punktuatsiyaning mohiyatini ochib beradi. Punktuatsion savodxonlik faqatgina tinish belgilarini o'z o'rnida qo'llay bilishdan iborat bo'lmasdan, matnni ifodali o'qiy bilish ham demakdir.

Punktuatsion xatolarning tiplari, punktuasiya o'qitish metodlari.

O'quvchilarning yozma ishlarida orfografik xatolarga nisbatan punktuatsion xatolar ko'proq uchraydi. Buni, bir tomondan, o'zbek punktuasiyasining ilmiy asoslari va prinsplari aniq belgilanmaganligi bilan, ikkinchidan, bu sohada o'quvchilar uchun maxsus qo'llanmalarining yo'qligi bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari ayrim o'qituvchilar punktuasiyaga yetarli e'tibor bermaydilar.

O'quvchilarning punktuatsion savodxonligi nazorat ishlari orqali, uyda, sinfda bajariladigan mashqlar orqali tekshiriladi. O'quvchilar yozma ishlarida uchraydigan punktuatsion xatolarning tiplari:

- kerakli tinish belgisini qo'ymaslik;
- tinish belgisini ortiqcha qo'yish;
- tinish belgilarini qorishtirish, birining o'rniga boshqasini qo'yish;
- belgilarning birini tushurib qoldirish;
- tinish belgilarini ishlatishda izchillikning yo'qligi.

Masalan, bir xil holatda ikki xil tinish belgisining ishlatilishi: Unga ayting: biz do'stlikni qadrlaymiz (to'g'ri). Xalqqa ayting, men also o'lganim yo'q, Yov qo'liga taslim ham bo'lganim ham yo'q.

Punktuatsion xatolar tahliliga bag'ishlangan darslar foydalidir. Xatolarni tahlil qilish orqali qoidani qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi.

Punktuatsiya o'qitish metodlari uchga bo'linadi:

- 1.Qoida bilan ishlash.
2. Punktuatsion malaka hosil qilish.
- 3.Mashq qilish.

Alohida olingan matn hamda gapda tinish belgilarning qo'yilishi yoki qo'yilmaslik shartlarini o'zida birlashtirgan maxsus ko'rsatma punktuatsion qoida deyiladi. Punktuatsion qoida yozuvchi amal qilishi shart bo'lgan punktuatsion normani boshqarib boradi. Punktuatsion qoidalar ikkiga ajratiladi: a) ijobiy qoidalar; b) salbiy qoidalar.

Ijobiy qoidalar maktab punktuasiyasining asosi hisoblanib, ular qaysi belgi qachon qo'yiladigan bo'lsa, shu konstruksiyadagi punktuasiyani boshqaradi.

Salbiy qoidalar uning aksi bo'lib, u yoki va bu belgining qo'yilishini ta'qiqlaydi. Masalan, gapning uyushiq bo'laklari vergul bilan ajratiladi. Lekin ular takrorolanmaydigan bog'lovchilar bilan bog'lansa, vergul qo'yilmaydi. Bu salbiy qoidalarining asosini tashkil qiladi.

Punktuatsion qoidalar bilan ishlash ikki etapga ajratiladi: a) nutq bo'lagida tinish belgilarning ishlatilishi yoki ishlatilmasligini o'zlashtirish; b) o'quvchilarga o'rgangan punktuatsion qoidalarni qo'llashni o'rgatish.

2. Punktuatsion malaka hosil qilish matn va gapda tinish belgilarini qo'yish yoki qo'yilmaslik haqidagi fikrlash xarakatidir. U yozuvchining fikrlash faoliyatini o'zida aks ettiradi. O'quvchining punktuatsion malakasi nutq faoliyati bilan uzviy aloqador. Punktuatsion malakaning quyidagi turlari mavjud:

- mavjud kommunikativ birliklarda ma'no birliklarini ko'ra bilish;
- matn va gaplarda o'rganilgan punktuatsion qoidalarni qo'llay olish;
- tinish belgilarining turi va o'rnini belgilay olish;
- punktuatsion xatolarni topish va to'g'irlash.

3. Mashq qilish. O'quvchilarga punktuatsion qoidalarni to'la singdirish, ularni tinish belgilarini o'z o'rnida ongli ishlatishiga o'rgatish maqsadida turli tipdagi punktuatsion mashqlar o'tkaziladi:

- 1) sintaktik – punktuatsion tahlil. Bunda o'quvchi tinish belgilarining qo'yilish sababini og'zaki izohlaydi;
- 2) misollar topish. O'quvchilar biror punktuatsion qoidaga mos keladigan misollar topadi;

3) tinish belgilari tushirilgan matnning tinish belgilarini qo'yib chiqish. Mashqning bu turi keng tarqalgan;

4) diktantlar;

5) punktuatsiya bilan bog'liq bo'lgan stilistik mashq. Bunda bir sitaktik konstruksiyani boshqasi bilan almashtiradi: umumlashtiruvchi so'zning o'rnini almashtirish; sodda yoyiq gapni qo'shma gapga aylantirish va boshqalar.

O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Nutq o'stirish – birinchidan, ona tili o'qitish metodikasining sohasi, ikkinchidan, bolalarni nutqqa o'rgatish jarayonidir. Maktabda o'tiladigan darslar orasida o'quvchilarning ham o'qishini ham yozishini nazorat qiladigan predmet ona tili predmetidir. To'g'ri maktab o'qituvchilarining hammasi ham o'quvchi nutqini kuzatadi, ammo faqatgina ona tili darslarida nutqni o'stirish masalasi ma'lum tartibda maqsad sari yo'naltirilgan bo'ladi.

Darhaqiqat, har bir kishining madaniyati, savodxonligi uning so'zi, nutqi bilan ham baholanadi. Nutq orqali insonning ichki dunyosi: qobiliyati, rostgo'ylik, odamgarchilik kabi fazilatlari ham ochiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish ularga o'z xalqi adabiy tilini o'rgatish demakdir. Ularni adabiy til talaffuz me'yorlarida so'zlashga odatlantira borish nutq o'stirishning asosiy maqsadi sanaladi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshira borish, adabiy til me'yorlarini egallatish, o'quvchi uchun yangi bo'lgan har bir so'zning talaffuzini o'rgatish, fikrni og'zaki va yozma holda tinglovchi (o'zga) ga yetkaza olish malakalarini hosil qilish bu kursning vazifasi sanaladi.

O'quvchilarning nutqini o'stirish ishi ularning birinchi sinfga borishidan boshlanadi. Nutqni shakllantirish va rivojlantirish uchun grammatikaning hamma bo'limlarida ishlash. Natijada nutqiy ko'nikmalar shakllana boradi. Nutqiy ko'nikmalarga nutqning ixcham, sodda, ravon bo'lishi kiradi: o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish so'z boyligini oshirish ishlari birinchi darajali vazifa qilib qo'yiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchi nutqining ta'siri kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z nutqiga katta e'tibor qaratishi zarur.

Nutqning og'zaki va yozma formalari o'zaro uzviy bog'langan bo'lsalar-da, ularning o'ziga xos tomonlari mavjud. Og'zaki nutqning imkoniyatlari kengroq, chunki inson o'z fikrini bayon etishda so'zlardan tashqari intonatsiya, pauza, qo'l

harakati, mimika kabi yordamchi vositalardan ham foydalanadi. Yozma nutq esa savodxonlik tufayli hosil bo‘ladi.

Nutq madaniyatini tarbiyalashda nutqda uchraydigan nuqsonlarni aniqlash ham metodik ahamiyatga ega. Ular:

- mahalliy sheva yoki oila ta’siri;
- “ko‘cha tili”ning ta’siri;
- adabiy til normalariga amal qilmaydigan o‘qituvchilar nutqi;
- maktabda o‘quvchilarning og‘zaki nutqiga e’tibor bermaslik;
- nutq organlarida g‘ayritabiiy kamchiliklarning bo‘lishi: “r”ni aytolmaslik, tili chuchuklik kabi.

Ana shu nuqsonlarning oldini olish maktab o‘qituvchisining vazifasi sanaladi.

Nutq o‘stirish ishlari uch yo‘nalishda olib boriladi:

1. Adabiy til me’yorlarini egallash.
2. O‘quvchilar nutqini lug‘at boyligi va grammatik qurilish bilan boyitish.
3. Nutq faoliyatining turli xil ko‘rinishlarini o‘rgatish.

Adabiy til me’yorlari va nutq o‘stirish.

Adabiy til me’yorlarini egallash nutq o‘stirishda asosiy rol o‘ynaydi. Maktab o‘quvchilarining ko‘pchiligi biror shevaga mansub bo‘lib, nutqda sheva elementlarini qo‘llash fikrni tezda anglab olishni qiyinlashtiradi. Masalan, shevadagi shoti, zangi, kadi kabi so‘zlar hamma uchun ham tushunarli emas. Adabiy talaffuz normalarini belgilab beradigan qoidalar to‘plami orfoepiya deyiladi. Orfoepika malakalarni shakllantirishda grammatik qoidalarning ahamiyati katta.

Shuni ham aytish kerakki, orfoepik qoidalarni, adabiy me’yorlarni faqat kitob o‘qish orqali egallab bo‘lmaydi. Chunki talaffuz bilan yozuv hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

Adabiy til me’yorlariga amal qilib talaffuz qilish, asosan, ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi (o‘rgatiladi):

- 1) adabiy til me’yorlariga amal qilib so‘zlovchi kishilarga ergashish orqali;

2) izchillik bilan tinmay adabiy til me'yorlarini o'rganish va ongli ravishda o'zlashtirish yo'li bilan.

Bolaning nutqi kattalarga taqlid qilish, ularni eshitish orqali shakllanadi. Bolada taqlid qilish juda kuchli. O'qituvchi bundan o'rinli foydalanishi zarur.

O'quvchining o'zi odatlangan "tildan" adabiy til normalariga o'tishi bir necha bosqichni talab qiladi:

1) maktabda "o'z" tilidan "boshqacharoq" tilga duch keladi: aya – ona, dada – ota, sho'tta – shu yerda, ag'da – u yoqda... ;

2) asta – sekin adabiy tilga doir faktlarga duch keladi: fonetika, leksikologiya, morfologiya, sinonimiya, omonimiya, antonimiya, nutq organlari kabi so'z va atamani o'rganadi;

3) o'zi bilgan faktlarni yangilari bilan solishtira boradi. Masalan, 5-sinfda b, d, z jaranglilarining talaffuzda p, t, s kabi jarangsizlashishi, ammo aslida yozilishi kabi faktlarga duch keladi;

4) o'quvchi tushunchasida "o'z" tili bilan adabiy til o'rtasidagi qarama-qarshilikda adabiy til afzalligi paydo bo'la boshlaydi va unga qiziqib tushungan holda o'rgana boshlaydi.

Bunday vaqtda aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan so'zlar ko'proq ishtirok etgan matndan mashq qildirish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'quvchilarning adabiy til me'yorlarini egallashida grammatikaning ham ahamiyati katta. Grammatikani yaxshi o'zlashtirmagan kishida kelishik affikslarini aralashtirib ishlatish hollari uchrab turadi.

O'quvchilar nutqini o'stirishda sinonimlarning ham roli katta. Sinonimiya qatoridagi har bir so'zning qo'llanish o'rni mavjudligi o'quvchilarga tushuntirilishi zarur. Bunda o'quvchilarga sinonimlar bilan omonimlarni taqqoslab misollar toptirish yaxshi natija beradi: bir o'quvchidan yuz so'zining sinonimlarini topish so'ralsa, boshqa o'quvchiga shu so'zning omonimlarini topish topshiriladi.

Nutq madaniyati sintaksis bilan bevosita aloqador. Chunki gapda so'zlarning joylash tartibi, gap ohangi, gap umumiy mazmunining yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Bu kabi qonun-qoidalar sintaktik tushunchalar asosida o'quvchilarga

singdira boriladi. Bunday ko'nikmalarni hosil qilish uchun ko'proq mashq qilish kerak.

Fikrni tinglovchiga yetkazishda uzundan-uzoq jumlar tuzish, o'rinsiz qaytariqlar salbiy ta'sir qiladi.

Lug'at ustida ishlash va nutq o'stirish.

Lug'at ustida ishlash: o'quvchilarni ona tilining lug'at boyligi bilan tanishtirish, lug'at sostavidagi so'zlardan nutqda to'g'ri foydalanish, o'quvchilarni yangi so'zlar bilan tanishtira borish, adabiy tilga xos bo'lmagan so'zlarni tugata berish kabi maqsadlarni nazarda tutadi.

Lug'at ustida ishlash, birinchidan, ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, o'quvchilarning fikr doirasini kengaytiradi, ikkinchidan, o'quvchilarni yangi so'zlar bilan tanishtiradi, uchinchidan ona tili darslarida grammatik, orfografik, punktasion qoidalar ustida ish olib borilar ekan, lug'at ustida ishlashni ham unutmash kerak. Chunki o'quvchilar maktabga kelgan kundan boshlab, uni bitirib ketgunga qadar lug'at ustida ishlashi lozim.

Lug'atni boyitish manbalari sifatida: o'qituvchining nutqi, kitob o'qish, o'quv predmetlarini anglash, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish, ekskursiya kabilarni ko'rsatish mumkin. Demak, bularni quyidagicha guruhlash mumkin: ko'rish orqali qabul qilish (kitob, gazeta, jurnal o'qish), eshitish orqali qabul qilish (o'qituvchi, tengdoshlari, kattalar nutqi: radio eshitish, teleeshitirish, teatr tamoshalarini ko'rish): bir vaqtning o'zida ko'rish va eshitish (maxsus titrdagi kinofilm ko'rish, muzey, vistavkalar ko'rish). Odatda, o'quvchilar o'z nutqida ishlashtadigan so'zlarga nisbatan ancha ko'p so'zlarni eshitadilar. Lekin ularning hammasini tushunavermaydilar. Masalan, 5-sinfda abonement (obuna) abonent (obunachi), adresant (yuboruvchi), adresat (oluvchi), byust, byurokrat, vakuum, vulgar (dag'al, qo'pol), genial kabi so'zlarning ma'nosini o'qituvchi yordamida anglaydilar. Ayni paytda bu so'zlarni o'z nutqlarida birdaniga ishlatib keta olmaydilar. Ularni o'zlashtirganlaridan keyingina aktiv lug'at fondiga aylanadi. Ular har bir o'zlashtirilayotgan yangi so'zni lug'at daftarlariga yozma mashq qilishlari kerak.

Nutq madaniyati ustida izchil va samarali ishlashning muhim shartlaridan biri o'zbek mumtoz adabiyoti durdona asarlarini o'qish, tilini qunt bilan o'rgana berishdir.

Bog'lanishli nutqni o'stirish.

Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish ularning ongini rivojlantirish bilan bir butunlikni tashkil qilib, u uch yo'nalishda amalga oshiriladi.

Birinchi yo'nalish – o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish. O'quvchilar so'z boyligi maktabda o'tiladigan barcha fanlarni o'rganish jarayonida orta boradi. Ona tili darslarida esa lug'at ustida ishlash, mashq bajarish, notanish so'zlarni lug'atdan topish yo'sinida olib boriladi.

Ikkinchi yo'nalish – o'zbek adabiy tili me'yorlarini o'rgatish. Me'yorni singdirish o'quvchilar nutqida uchraydigan shevaga xos so'zlarni bartaraf qilishdir. Buning uchun o'qituvchi o'zi ishlayotgan hududdagi sheva xususiyatlarini puxta o'rganib chiqib, shu asosda ish ko'rishdir.

Uchinchi yo'nalish - o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish. Kishining o'z fikrini mantiqiy izchillik bilan adabiy til me'yoriga rioya qilgan holda bayon qila olishi **bog'lanishli nutq** hisoblanadi.

O'quvchilar nutqi, ko'pincha, oila, maktab, o'qish, radio, televideniya va kinoning ta'siri bilan shakllanadi. O'quvchilar nutqining adabiy adabiy til me'yorida rivojlanishida ona tili va adabiyot darslarining ijobiy ta'siri katta.

O'qituvchi bolalarni nimaga o'rgatish zarurligini, bog'lanishli nutqdan qanday ko'nikmalarni shakllantirish kerakligini aniq tasavvur qilgandagina vaqtdan unumli foydalanadi.

Ona tilidan fakultativ mashg'ulotlar o'tkazish.

Maktabda ona tilidan olinadigan bilim saviyasini maqsad va mazmuniga ko'ra ikkiga ajratiladi.

Umumta'lim darajasi o'rta maktab o'quvchilari uchun majburiy kurs sanaladi. O'zbek tiliga qiziqqan maktab o'quvchilari uni chuqurlashtirib o'rganadilar.

Ko'pchilik 12-15 yoshli maktab o'quvchilarida fanning u yoki bu sohasiga qiziqish paydo bo'la boshlaydi. Lekin u umumiy xarakterda bo'ladi. Ularni biror sohaga yo'naltirish uchun, qiziqish uyg'otish uchun ma'lum bir maqsadga boshqarilgan sistemali ish olib borish kerak.

Hozirgi kunda o'zbek tilini chuqurlashtirib o'rganishning uch xil shakli tajriba qilib ko'rilmogda:

A) fakultativ mashg'ulotlar;

B) sinfdan tashqari ishlar;

V) o'zbek tilini chuqurlashtirgan holda o'rganish (litseylarda, tayyorlov bo'limlarida). Fakultativ kurs nisbatan keng tarqalgan bo'lib, tabaqalashtirilgan holda olib boriladi. U o'quvchilarning lingvistik ma'lumotini oshiradi, til sezgirligini kengaytiradi. Iqtidorli bolalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda fakultativ ishtirokchilarining ijodiy imkoniyatlarini taraqqiy qildirish kerak.

Fakultativ mashg'ulotlarda har bir o'quvchining mustaqil, individual va tabaqali ishlarining ahamiyati orta boradi. Fakultativ mashg'ulotlar, asosan, yuqori sinflarda olib borilib, VII-IX sinflardagi fakultativ mashg'ulotlarning mundarijasiga insho nazariyasi va amaliyoti bo'yicha mashg'ulotlar; o'zbek tilining leksikologiyasi va frazeologiyasi ustida ishlash; hozirgi o'zbek yozuvi, uning o'ziga xos xususiyatlari, asoslari va prinsplari haqida; stilistik mashqlar, toponimika haqida ayrim tushunchalar berish va boshqalar kiradi. Shunday qilib, fakultativ mashg'ulotlarda har bir o'quvchining ijodiy imkoniyatlariga keng yo'l ochiladi.

O'zbek tilidan fakultativ mashg'ulotlarni quyidagicha o'tkazish mumkin:

1. Kirish mashg'uloti. Bunday mashg'ulotlarda fakultativda o'tiladigan asosiy masalalar bayon qilinadi, o'quvchilarning til hodisalariga bo'lgan qiziqishi oshiriladi.

2. Tanishuv mashg'uloti. Bu darslar o'quvchilarga o'rganilayotgan hodisaning mohiyatini ochishga qaratiladi. Bunda leksik hodisalarning guruhlanishi, ularni matndan topish va nihoyat, o'rganilayotgan leksemalarni o'z

nutqlarida foydalanish masalasi qo'yiladi. Bunday mavzularni qaysi metodda o'tish o'quvchilar saviyasi va mavzuning murakkabligiga bog'liq.

3. Takrorlash – umumlashtirish mashg'uloti. Bunday mashg'ulotlar biror yirik mavzu o'tilgandan keyin, bo'lim va kurs o'tilgandan keyin o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi o'tilganlarni sistemalashtirish, ularning umumiy va xususiy tomonlarini aniqlashdan iborat.

Takrorlash mashg'ulotlarining tuzilishi uch etaptan iborat bo'ladi: a) o'tilganlarni sistemalashtirishga yo'naltirilgan suhbat, b) eshitish, v) fakultativ darslarda o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarni, mustaqil ishlarni, axborot va doklادلarni muhokama qilish.

4. Tekshirish mashg'ulotlari. Bu mashg'ulotlar har bir bo'lim va kurs oxirida o'tkazilib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi.

Tekshirishning har bir etapida o'tkaziladigan mustaqil ishlar quyidagilarga mo'ljallanadi: 1) aniq til va nutq faktlari haqida o'quvchilarning bilimi, 2) xulosalar qila olishi, 3) matinni stilistik tahlil qila olishi, 4) lug'at bilan ishlay olish, 5) turli janrlarda matn yaratish.

Tekshirishning maqsadiga ko'ra mustaqil ishlar hamma uchun umumiy yoki ma'lum bir guruhga berilishi mumkin.

Tekshirish darslarida mustaqil ishlardan tashqari, o'qituvchi rahbarligida doklad va referatlar tayyorlash mumkin. Bu doklad va referatlar o'qituvchi va 1-2 o'quvchi tomonidan o'qib chiqilib, o'z o'rni bilan o'qituvchi ularni baholaydi.

Ona tili bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar.

Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar ham o'zbek tilini chuqurroq o'zlashtirish vositalaridan biri sanaladi. Ona tilidan sinfdan tashqari ishlarga quyidagilar kiradi:

Til to'garagi. Mashg'ulotlar lezka asosida olib borilib, mavzular turlicha bo'ladi. U o'quvchilarni qiziqtiradigan, fikrlash doirasini kengaytiradigan bo'lishi kerak. Masalan, "Inson so'zlashni qanday o'rganadi?" "Yozuvning paydo bo'lishi", "Tilimizdagi yangi so'zlar", "Ot turkumiga oid dialektal so'zlar"... Bunday mavzulardagi mashg'ulotlar ham qiziqarli bo'ladi, ham o'quvchilarning

bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi. To‘garak a’zolarining dokladlari, ko‘rgazmali qurollari va boshqa vositalar til kabinetini boyitadi.

Maktab devoriy gazetasi. Devoriy gazetada tilga oid “O‘z tilingni sev va o‘rgan!”, “Ulug‘ kishilar til haqida”, “Tilimiz-boyligimiz” ruxnlarida materiallar berish mumkin. Bunday gazetalarni chiqarishda maktab ona tili kabinetidagi materiallardan ham foydalaniladi. Shuningdek, o‘quvchilar maktab adabiy jurnalining ayrim sonlarini chiqarishi mumkin.

O‘quvchilar konferensiyasi. Ona tiliga bag‘ishlab o‘tkaziladigan o‘quvchilar konferensiyasida uning mavzusiga moslab har xil rasmlar, plakatlar, sxemalar tayyorlanadi va undan foydalanadi.

Olimpiada. Tilga bag‘ishlab o‘tkaziladigan bu anjumanda chiroyli yozish, ifodali o‘qish, bir o‘zakli so‘zlarni topish, bir o‘quvchi aytgan ot, sifat, songa tezda boshqa so‘z topib so‘z yasash (Besh+quvur, uch+tepa, Yangi-obod, Qora+yontoq) va uning imlosini tushuntirish, rebus tuzish va yechish kabi o‘yinlarni uyushtirish ham o‘quvchilarning o‘zbek tili haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Ekskursiya. O‘quvchilar zavod, fabrika, turli xo‘jalik, korxonalarga sayohatga chiqqanlarida texnika, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, dehqonchilikka doir o‘rgangan so‘zlarining lug‘atini tuzadilar. Yoki “Sayohat davrida kim qancha yangi so‘z o‘rgandi” mavzusida munozara-suhbat uyushtirsa ham bo‘ladi.

Ona tili kechalarini o‘tkazish ham maktab o‘quvchilariga katta ma’rifiy ahamiyat kasb qiladi.

Ona tili kabinetini.

Har bir maktabda tashkil qilingan ona tili kabinetlari ona tili o‘qituvchilariga sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli qilib olib borishda ham o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda yaqindan yordami beruvchi vositadir. Kabinetlarga qo‘yilgan jihozlar o‘qituvchining ham o‘quvchilarning ham kundalik ishida zarur bo‘lgan, foydalaniladigan harakatdagi materiallar bo‘lmog‘i kerak.

Maktablarning kabinet tizimiga o‘tishi munosabati bilan o‘quvchilarning miqdoriga qarab bir nechta ona tili va adabiyot kabinetlari tashkil qilingan. Ular

sinf o'quvchilarining bilim saviyasi va yosh xususiyatlariga qarab jihozlanadi. Kabinetlarning jihozi deyarli takrorlanmaydi. Kabinetni jihozlashda faol o'quvchilarni jalb qilish mumkin.

Ona tili kabinetining vazifalari:

- 1) ona tili predmetining o'qitilishini yaxshilashda til o'qituvchilariga yordam berish;
- 2) ilg'or maktab va o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, shunga doir materiallarni to'plash, maktab til o'qituvchilarining metodik birlashmasiga ko'maklashish;
- 3) ona tili va uning o'qitilishiga doir yangi chiqqan ilmiy-metodik adabiyotlar, darsliklar, qo'llanmalar va ko'rgazmali materiallarga ega bo'lish;
- 4) eng yaxshi yozilgan yozma ish namunalarini to'plash;
- 5) ish qog'ozlariga doir namunalar qo'yish;
- 6) o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchiga yordam berish;
- 7) ona tiliga doir o'quvchilar konferensiyasi, munozarasi, kechalarni uyushtirish;
- 8) sinfdan tashqari ishlarni rejali olib borishga yordam berish;
- 9) o'quvchilarni grammatik, orfografik, punktasion qoidalarga oid ko'rgazmali vositalar tayyorlashga jalb qilish;
- 10) o'quvchilarning kollektiv yoki yakka tartibda dars tayyorlashini tashkil etish va hokazo.

Kabinetga buyuk mutafakkirlar, olimlar, shoirlar va yozuvchilarning til haqidagi hikmatlaridan olinib ilib qo'yiladi. Bu fikrlar o'quvchilarda tilga havas uyg'otishda ijobiy rol o'ynaydi. Ona tili kabinetlarida "Til va adabiyot ta'limi" , "O'zbek tili va adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Yoshlik" kabi jurnallar va respublikada chiqadigan gazetalar bo'lishi kerak. Nashr qilingan, o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan tayyorlangan tablisalar, sxemalar, kartochkalar, plakatlar ona tili kabinetining asosiy jihozi sanaladi. Bular o'quvchilar savodxonligi va nutq boyligini oshirishda yaqindan yordam beradi.

Kabinetda ona tili darsliklaridan, diktant va bayonlar to‘plamlaridan, turli lug‘atlardan bir nechta nusxa bo‘lishi kerak. Shuningdek, kabinetda magnitafon, radiolar kabi texnik vositalarning bo‘lishi ham foydalidir. Ulardan mashhur kishilarning nutqlari, diktorlarning talaffuzlari eshitilsa yaxshi natija beradi.

O‘quvchilarga ona tilidan qanchalik chuqur bilim berilsa, ularning boshqa predmetlarga qiziqishi orta boradi. Bu ko‘p jihatdan ona tili kabinetining boyligiga, namunali jihozlanishiga va muntazam ishlashiga bog‘liq.

KIRISH. MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI VA MA’NAVIY BARKAMOLLIK

REJA:

1. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari.
2. Milliy istiqlol g‘oyasini o‘quvchilar ongiga singdirish.
3. Ma’naviy barkamollik

Adabiyotlar:

1. I.Karimov. “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. 1-jild, Toshkent. 1996.
2. I.Karimov. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. Toshkent. 1998.
3. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.2000.
4. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo‘rayev. Vatan tuyg‘usi. Toshkent, 1996.
5. N.Komilov. Tasavvuf yoki komil inson axloqi, 1- kitob, T.1996.
6. S.H.Norxo‘jayev, M.F.Lafasov, M.3. Zaripov. Ma’naviyat asoslari. O‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanmasi. 2002.
7. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 4-, 5-,9-, 11-, 12- jildlar.
8. Imom al-Buxoriy saboqlari. Jurnal, 2010 y, 4-son, 2011 y 1-son.
9. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” Gazetasi. 2006 y. 1.12. soni.
- 10.“Ma’rifat” gazetasi. 2002. 12 oktyabr. 2004. 15 may sonlari.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari:

- Vatan ravnaqi;
- yurt tinchligi;
- xalq farovonligi;
- komil inson;
- ijtimoiy hamkorlik;
- millatlararo totuvlik;
- diniy bag‘rikenglik (tolerantlik)

Istiqlol arabcha soʻz boʻlib, Mustaqillik demakdir. Milliylik tushunchasi hammaga ayon. Savol tugʻiladi. Nima uchun istiqolol yoki mustaqillik emas? Nima uchun milliy mustaqillik? Masalaning nozik tomoni ham shunda. Har bir millatning oʻz erki, oʻz ravnaqi, oʻz huquqi, oʻz mustaqilligi boshqalarga oʻxshamagan yoʻli mavjud. Shunday boʻlar ekan milliylikni belgilovchi urf-odatlar, anʼanalar, qarindoshlik munosabatlari, eʼtiqod, xususan, diniy eʼtiqod, umuminsoniy qadriyatlar oʻziga xos xususiylikni belgilaydi.

Bizning istiqololimiz tom maʼnodagi milliy mustaqillikdir. Biz “mustaqillik”ning birinchi etapini 1924 yilda koʻrganmiz. Uni haqiqiy maʼnoda “mustaqillik” niqobi ostidagi milliy, maʼnaviy bosqinchilik deyish mumkin edi. SSSR konstitusiyasi deb atalmish “xalqlar haq -huquqlari” ulkan mamlakatdagi turli millat va elat vakillariga majburan singdirildi. Boshqacha aytganda bir xalqning –“buyuk xalq”ning xohish irodasi, manfaatlari, hamma uchun umumiy edi. Uning kommunistik partiya degan siyosiy “rahnamosi” totalitar tuzumning, shovinizmning bosh targʻibotchisiga aylandi. Hatto, kishilar ongiga shu darajada qoʻrquv hissi singib ketgan ediki, kompartiyaga aʼzo boʻlmaslik kelajakka yoʻl yoʻqlik belgisi, undagi aʼzoning jazolanishi oʻlim bilan birday yoki undan koʻra oʻlim afzalroq deb his qilinardi.

Bir qarashda biz mustaqillikka osongina erishganga oʻxshaymiz-u ammo, bizning xalqimiz ana shunday maʼnaviy mashaqqatlarning evaziga oʻz milliy mustaqilligiga ega boʻldi. Bu mustaqillikning asrlar osha shakllangan oʻz maʼnaviyati va maʼrifati, mafkurasi, madaniyati, tarbiya vositalari mavjud. Eng asosiysi ajdodlarimiz amal qilib kelgan tarbiya vositalari qadriyatlarimizdir.

Madaniyat soʻzi asli shaharlik degan maʼnoni anglatsa-da, u juda keng tushunchani ifodalaydigan boʻldi: kiyinish madaniyati, gapirish madaniyati, dehqonchilik madaniyati, xullas, inson faoliyati bilan bogʻliq hamma xatti-harakatlar madaniyatga borib taqaladi. Shu asnoda vatan tushunchasi, vatan ravnaqi, vatanparvarlik tushunchalari yuzaga keladi. Har qanday oʻzbek vatan tushunchasini oddiy oiladan boshlab, oʻzining mamlakatigacha boʻlgan hissiyotni anglaydi. Bu juda keng va salobatli tushunchadir. Buning uchun hamma oʻzbek,

hamma o'zbekistonlik oyoqqa turadi, bir so'z bilan aytganda vatan ravnaqi uchun hamma kurashadi va kurashmoqda. Shu orqali vatanparvarlik tuyg'usi yuzaga keladi.

Uzoq tarixga murojaat qilsak, Vatani uchun, o'z ozodligi uchun kurashgan ajdodlarimiz –Shiroq, To'maris, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temir Maliklar jasorati vatanparvarlik namunasi bo'lib, bu xalqni shu darajada matonatli, sabrli, kurashchan, oriyatli qilib voyaga yetkazdi. Ana shunday jasur, mard vatandoshlar qoni hozirgi o'zbek tomirida oqmoqda, kelajakka ishonch, umid ruhini singdirmoqda.

Xalqimiz yaqinda Mustaqilligimizning 20 yillik tantanalarini ko'tarinki ruh bilan nishonladi. Haqiqatan ham bu sana nishonlashga arzigulik. 20 yillik arafasida I.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobining nashr etilishi, mustaqillikgacha bo'lgan ahvolni faqatgina kinolar, statistik hisobotlar asosida tasavvur qiluvchi yoshlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi, haqiqiy ahvolni his qiluvchi dasturulamal bo'ldi. Kindik qoni tomgan tuproqni his qilish, e'zozlash – Vatanni his qilish va e'zozlashdir. Bu borada Qo'chqor Norqobilning "Kichik ostona" (O'zAS 11.06.2010) nomli qaydlari yoshlarga yaqin ko'makchidir. Hayotimizdagi tub o'zgarishlarning asosiy xususiyati xalqimizning bunyodkorlik faoliyatidir. Mustaqillik yillarida ham yurtimizga raxna soluvchi "qora kuchlar"ning bir necha hamlalari bo'ldi. Ularning hammalari bardosh bilan, uzoqni o'ylagan odilona, oqilona siyosat yuritish bilan bartaraf etildi. Vatanimiz ravnaq topmoqda. Vatanimizni moddiy va ma'naviy taraqqiy ettirishda iqtisodni ilg'or texnologiyalar asosida modernizasiya qilish, yoshlarimizni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yurt tinchligi – bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Insoniyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida tinch-totuvlikka intilib kelgan. Haqiqatan hamma ezgu – amallar tinch-totuv sharoitda, sog'lom muhitda sog'lom tanada amalga oshiriladi. Xalqimiz tinchlikni qadrlaydi. Chunki tinchlik orzu-istaklarning, maqsad va muddaolarning ro'yobga chiqishi uchun kafolatdir. Shuning uchun ham har bir o'zbek birinchi uchrashuvdayoq duoga qo'l ochib "sog'lik xotirjamlikni bersin"

deb omin qiladi. Yurtning, elning, xonadonning tinchligi barqaror taraqqiyotning garovidir.

Lekin, hayotda bu ezgu tilaklarning amalga oshishiga qarshilik qiladigan nopok kuchlar ham bor. Ular o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirish yo'lida turli xil nizo va adovatlar, qirg'in urushlarni yuzaga keltiradilar.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak keyingi 5 ming yil mobaynida odamzod 15 mingdan ziyod kattayu kichik urushlarni boshidan kechirganini ko'ramiz. Bu , albatta, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash insoniyat oldida muammo bo'lib qolayotgan birinchi darajali masaladir.

Uzoq va yaqin tarixga nazar tashlasak, Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Ulug'bek zamonida tinchlik va barqarorlik hukm surgan 40 yil mobaynida ilm-fan, madaniyat yuksak darajada rivojlandi. Uning asoru atiqalari hozirgi kungacha jahonga ko'z-ko'z qilinmoqda. Aksincha, keyingi 30 yil mobaynida Afg'onistonda bo'layotgan urush va mojarolar u yurtni sivilizasiyadan uzilib qolgan, dunyoning qoloq mamlakatiga aylantirgani aniq dalildir. Bu yurtning xavf-xatar o'chog'iga aylanib qolganligi bizning tinch-osoyishta taraqqiyot yo'limizga xalaqit bermoqda. Mustaqilligimizni ko'ra olmaydiganlar turli xavf-xatarlar sodir etmoqda: 1999 yilning 16 fevralidagi voqealar, 2000 yilning yozida Uzun, Sariosiyo, Burchmulla tog'laridagi xunrezliklar, 2004 yil 29-30 mart, 1 aprelda Toshkent shahri, Toshkent viloyati Qibray tumanidagi, Buxoroning Romitonidagi terrorchilik harakatlari. Romitonda Sayyor Sodiqov, Ulug'bek Barnoyevlarning Vatanimiz tinchligini ta'minlashdagi jasoratlari xalqimiz xotirasida bir umr mixlanib qoladi. 2006 yilning 12-dan 13 mayiga o'tar kechasidagi Andijon voqealari va unda jasorat ko'rsatgan mard o'g'lonlar, Andijon xalqining bir yoqadan bosh chiqarib jips harakatlari hamda bu jarayonga Hukumatimiz rahbariyatimizning qat'iy qarorlari yurt tinchligini ta'minlashda tengsiz ahamiyatga ega. 2010 yilning 13-14 iyun kunlari Qirg'izistondagi xunrezliklar ham bizning xalqimizni ham notinch qildi. Garchand onda-sonda bo'lsa ham sodir bo'layotgan bunday voqealar tinchligimiz va osoyishtaligimizga raxna solmoqda. Bu ayni paytda tinchlik va barqarorlik uchun har bir kishining befarq qolmasligini dolzarb masala qilib qo'yimoqda.

Shuning uchun ham mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab yurt tinchligiga eng asosiy boylik sifatida qaralmoqda.

Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatlarning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi –yurt tinchligini saqlashning g'oyat muhim omili bo'lib qoladi.

Xalq farovonligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi xalqimiz turmush tarzi rivoji uchun sharoit yaratishdir. Ya'ni islohot-islohot uchun emas, inson uchun uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak. Bu haqiqat kishilarimizning ongiga singishi zarur. Hozir yashayotgan har bir ongli shaxs mustaqilligimizning dastlabki yillari bilan hozirgi kunimiz–20 yildan keyingi turmush tarzimizni, farovon hayotimizni muqoyasa qila oladi. Buning uchun hech qanday statistik hisobot kerak emas. Xalqimiz farovonligi, ma'naviyati, madaniyati yuksalishi uchun qilinayotgan ulug'vor ishlar hammaning ko'z o'ngida turibdi. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari uchun yaratilayotgan sharoitlar, shahar va qishloqlardagi chiroyli, ko'rkam uylarning aholiga qurilib topshirilayotganligi, yangi yo'l va ko'priklarning aholi uchun xizmat qilayotganligi, Toshkent –Samarqand tezyurar poyezdi qatnovining yo'lga qo'yilganligi, shahar va qishloqlarimiz qiyofasining keskin o'zgarib borayotganligi –hammasi xalq farovonligi yo'lidagi bunyodkorlik ishlaridi.

Komil Inson. Komil arabcha yetuk, to'liq, mukammal, kamolotga erishgan ma'nolarini anglatib, "odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi, u go'yo Mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasidagi vosita bo'luvchi muqaddas xilqat" (N.Komilov). Darhaqiqat, dunyoning tinchligi va farovonligi insoniyat butunligi, haqiqatan ham, dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq.

Komil inson g'oyasi–odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikka erishgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan g'oyadir.

Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butu–butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ma'naviyat va ma'rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komil inson g'oyasi azal-azaldan insoniyat orzusi, ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Komillikning oliy belgisi xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari niyati bilan odamlarga qanchalik

foйда keltirsa, yomonlarni to‘g‘ri yo‘lga solsa, u shunchalik komildir. Komillik g‘oyasi islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma‘no kasb etgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g‘oyalar Abu Nasr Farobiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, So‘fi Olloyor kabi mutafakkirlarimizning asarlarida teran ifodalangan.

Yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqarolik ma‘naviyatini shakllantirish, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali barkamol avlodni voyaga yetkazishga katta e‘tibor berilmoqda. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta‘lim-tarbiya tizimining tubdan isloh qilinishi ham ana shu ulug‘vor maqsadlar yo‘lidagi muhim qadamdir.

Ijtimoiy hamkorlik. XXI asrda amalga oshirilayotgan eng muhim g‘oyalardan biri –jamiyatdagi turli toifalar, siyosiy kuchlar va partiyalar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikdir. Bu g‘oya turli qarashlarga ega bo‘lgan xilma-xil millat, elat, irq va dinga mansub shaxs hamda guruhlarining umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligini ta‘minlaydi. Natijada, jamiyatda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning kafolati vujudga keladi.

Bu qanday shakllarda amalga oshiriladi? Birinchidan, bu g‘oya jamiyatning eng ustuvor maqsad va manfaatlarini harakatga keltiruvchi kuchga aylantiradi. Chunonchi, Yevropa ittifoqining jahon iqtisodiy tanazzulidan chiqish uchun Yevropa davlatlarida olib borayotgan ishlari: 2011 yilda Gresiyaga yordam qo‘lini cho‘zishi. Osiyo taraqqiyot banki faoliyati kabi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi har bir ijtimoiy guruh o‘zining dasturiy maqsadlarini ana shu g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirishi milliy taraqqiyotning zaruriyatiga aylanadi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida biror ilg‘or texnologiya o‘z maqsadlari yo‘lida xizmat qilishdan tashqari umumjamiyatga xizmat qilmoqda. Ya‘ni hech bir guruh faqat o‘zim bo‘lsam tamoyilida bo‘lmasdan hamkorlikning musobaqa yo‘liga o‘tayotganligi.

Uchinchidan, har bir shaxs ijtimoiy mavqei, e‘tiqodi, dunyoqarashidan qat‘iy nazar jamiyatning ustuvor maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan milliy g‘oyalarni amalga oshirishda o‘zini mas‘ul deb bilishi, bu jarayonning asosiy

tamoyili hisoblanadi. Chunonchi, odamlarimiz orasidagi shaxsiy manfaatlarni umum manfaatlaridan ustun qo‘ymaslik kayfiyatining shakllanganligi. Biror tadbirkor yoki shaxsiy mulk egasi erishayotgan yutuqlarning keng ommalashtirilayotganligi jo‘yali natijalarni bermoqda.

Aholining turli qatlamlari orasidagi munosabatlar va o‘zaro hamkorlikni yaxshilash jamiyatdagi barqarorlikka mustahkam zamin yaratadi. Binobarin, ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hammaning, birinchi navbatda, davlat va jamoat tashkilotlari, jamiyatning ilg‘or vakillari bo‘lgan ziyolilar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Millatlararo totuvlik. Hozirgi kunda dunyoda 1600 dan ortiq millat va elat, 200 ga yaqin davlatchilik mavjud. Bizning mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mamlakatimizdagi millat va elatlarni 135 ta (2003 y) madaniyat markaz birlashtiradi. Ular bir oila farzandidek ahil-inoq yashamoqda.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi–umumbashariy qadriyatdir. U turli xil xalqlar birgalikda yashaydigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi. Bu g‘oya–bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilarning o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatligining ma’naviy asosidir. Bu g‘oya–har bir millat vakilining iste’dodi va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi. Uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi uchun safarbar etadi.

Ma’lum bir mamlakatga nomi berilgan millat bilan shu mamlakatda yashaydigan boshqa xalqlar hamjihatligi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omilidir. Buning yorqin misoli qilib bizning mamlakatimizni olsa bo‘ladi. Aksincha, bu g‘oyaning mohiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, taraqqiyotini izdan chiqarishi mumkin.

Millatlararo hamjihatlikni kemiruvchi illat tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. XX asrda Qirg‘izistondagi terroristik harakatlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. “Urush hech qachon dunyoda odamlar sonini ko‘paytirmaydi. Lekin u yerda qahramonlar sonini oshiradi” (R.Hamzatov).

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari do'st-inoq yashashadi. Bu asrlar davomida xalqimizda shakllangan bag'rikenglikni ko'rsatadi. Mamlakatimizda "O'zbekiston xalqi" tushunchasi to'liq shakllanib ulgurdi.

Diniy bag'rikenglik (tolerantlik)—lotincha sabr-toqat, chidash, bardosh). Dunyo xalqlari u yoki bu dinga e'tiqod qiladi. Bizning xalqimiz islom diniga mansub. Dunyo musulmonlarining soni 1571 mln (2009). Bu dunyo dinlari orasida aholi soni jihatidan xiristianlardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qiladi (jami aholining 96,3% yoki 25489647 nafari-2009) Aholining diniy ishonch va e'tiqodi hukumat tomonidan himoyalaniadi. Sho'rolar davrida dindorlar, umuman, diniy e'tiqoddagi kishilar uchun mamlakatimizda 89 masjid va 2 ta madrasa xizmat qilgan bo'lsa, hozir 2006 yil holatiga ko'ra 1987 ta masjid, 9 ta madrasa va 2 ta islom oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatmoqda.

Mana shu ma'lumotlar ham ko'rsatadiki, dinlararo bag'rikenglik g'oyasi turli e'tiqodga ega kishilarning bir Vatanda hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Qadim zamonlardan buyon din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirib kelgan.

Dunyo dinlarining barchasi ham ezgulik g'oyalariga asoslanadi: yaxshilik, tinchlik, do'stlik, o'zaro hamkorlik, qadriyatlarni hurmatlash, insonlar orasida tenglik kabi. Insonlarni halollik, poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka chaqiradi.

Hozirgi zamonda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi. Diyorimizda azaldan yirik shaharlarda masjid, cherkov, sinachogalar (yahudiylar sig'inadigan joy) bo'lib, turli millat vakillari o'z amallarini bajargan. Tariximizning eng murakkab davrlarida ham ular o'rtasida ziddiyat bo'lmagan.

Bu faktlar ham ko'rsatadiki, diniy bag'rikenglik g'oyasi mamlakatimizda yashovchi turli elat, millat vakillarining tinch-totuv va osoyishta yashashlariga xizmat qilmoqda.

2. Milliy istiqlol g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirish.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsadlarini, milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka, ta'lim tizimi bo'g'inlariga har tomonlama tushuntirish, singdirib borish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, har bir elat, har bir xalq, har bir millatning milliy mafkurasini, g'oyasi, madaniyati shakllangan. Jahon tamadduni taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shayotgan xalqlar vakillari o'zligini anglatuvchi (ifodalovchi) turmush tarziga ega. Chunonchi, amerikalik: "men amerikalikman (ingliz, fransuz... juhut emas) shunga xos yashashim, mehnat qilishim kerak" desa, yaponiyalik: "mening manfaatlarimdan ko'ra, davlat manfaatlari ustunroq" deb yashamoqda. O'zbekistonlik esa: "Vatan menga nima berdi deb emas, men Vatanga nima berdim" deb yashamoqda, faoliyat ko'rsatmoqda. Shunday ekan mamlakatimiz xalqlari ongida "O'zbekiston –yagona Vatan" degan tushunchani qaror toptirish milliy istiqlol g'oyasining muhim vazifalaridan biridir.

Istiqlol mafkurasini–yurtimizda yashayotgan turli elat, xalq va millat vakillarida yagona Vatan–O'zbekiston farzandi ekanligi bilan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy mafkura –muayyan millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojini asoslab beruvchi g'oya va qarashlar tizimi. Ko'p hollarda milliy mafkura bitta xalq yoki millat mafkurasini deb tushunilmaydi. U muayyan davlat va jamiyat mafkurasini deb qaraladi. Shunday ekan bizning milliy mafkuramiz o'zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'ygan oliy maqsad va vazifalarni ifoda etadigan xilqatdir. Bu g'oya va maqsadlarni xalqimizning barcha bo'g'inlarida qaror toptirish, avvalo, yoshlikdan, maktab partasidan oq singdira borish zarur.

Istiqlol mafkurasining o'quvchi (yosh)lar qalbiga ongiga, singdirishda maktabning o'rni beqiyosdir. Darhaqiqat, maktab ta'lim-tarbiya o'chog'i. U maskanda ta'lim-tarbiyaning-tashviqot ishlaridan ham o'rinli foydalanish zarur.

O'quvchilarga bu g'oyani singdirishda oilaning o'rni ham beqiyosdir. Maktab bilan oila hamkorligi bu borada hal qiluvchi vositalardan sanaladi. Chunki o'quvchining ko'proq vaqti oilada o'tadi.

Milliy istiqlol mafkurasini o'quvchilar ongiga singdirishda ona tili mashg'ulotlari boshqa fanlarga nisbatan qulayroqdir. Chunki deyarli har bir mashg'ulotda milliy ma'naviy bilim, malaka va ko'nikmalar berib borish imkoniyati mavjud. Har qanday nazariy (grammatik) material o'tilgach, mustahkamlash uchun berilgan topshiriqning mazmuni biror milliy qadriyat, ajdodlarimiz hayotiy namunalari kabi tarbiyaning nozik masalalariga bag'ishlanishi mumkin. Bunday yo'l tutish orqali ham grammatik kategoriya uchun zaruriy bilimlar mustahkamlanadi, ham milliy istiqlol g'oyalari beriladi.

Dars jarayonida milliy ma'naviy tarbiya berish va milliy istiqlol g'oyasini singdirishning quyidagi yo'llarini tavsiya qilish mumkin:

- milliy istiqlol g'oyasi dars jarayonida bevosita o'qituvchi tomonidan berib boriladi;
- o'quvchilarning mustaqil ish bajarishida, aynan bajarilayotgan mustaqil ishning mazmuni orqali;
- uyga berilgan topshiriq (vazifa)ni bajarish orqali. Bunda hamma uy vazifalarida emas, maxsus topshiriqli vazifani bajarish jarayonida;
- nutq madaniyatida o'quvchilarga namuna bo'lish orqali;
- oilada. Chunki, "Har qaysi millatning o'ziga xos madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir", - deyiladi Prezidentning asarida. Shuning uchun ham xalqimiz qisqachagina qilib "qush uyasida ko'rganini qiladi" deb qo'yishadi.

Demak oila muhitida bolaga uzluksiz ma'lumot berib borish orqali;

- milliy, zamonaviy qadriyatlarimizni anglata borish orqali: ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar;
- buyuk allomalarimiz (Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Motrudiy, Farg'oniy, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar) hayotidan lavhalar orqali.

Jumladan, Imom az-Zamaxshariy “Oltin shodalar” kitobda: “Insonning asl otasi-bu uning adabidir... parhezkorlik esa insonning asl onasidir”, - deb yozadi;

- mahallaning ta'siri orqali milliy ma'naviyatni shakllantirish;

- o'zligini anglatish orqali. “... yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bor bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun, avvalo, insonni tushunish anglash kerak”, - deydi Yurtboshimiz. Bir donishmanddan eng qiyin va eng oson narsa (ish) nima deb so'raganda: eng qiyin o'zligini anglash, eng osoni birovga maslahat (nasihat) berish deb javob qaytargan ekan.

O'quvchilarga bilim berish bilan birga milliy ma'naviyat, milliy istiqlol g'oyalari haqida ko'nikma va malaka hosil qilish dolzarb vazifalardan sanaladi.

3. Ma'naviy barkamollik. Jamiyat, shaxs faoliyatidagi bu tushuncha asosida ma'naviyat yotadi. Ma'naviyat –jamiyatning, millatning yoki alohida shaxsning ichki dunyosi, ruhiy-estetik kechinmalari, aqliy qobiliyati, idroki kabilarni mujassamlantiruvchi tushuncha. Ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining asosi, inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omilidir. U muayyan hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi, rivoji yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq topa boradi. Aksincha, ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat asta-sekin tanazzulga yuz tuta boradi. Bunga tarixda misollar juda ko'p. Chunonchi, yaqin tarixda SSSR inqirozi. Mustaqillik yillarida ma'naviyatga munosabat tubdan o'zgarib, uning boyishiga e'tibor qaratishning boisi ham shu. Qiyos uchun: Mustaqillikning dastlabki yillaridagi odamlar kayfiyati; “O'zbekiston mustaqillik arafasida” videofilmdagi voqealar va boshqalar. Bularning hammasi xalqimiz ma'naviyatining shakllanishi va rivojida yetakchi omillardir. Darhaqiqat, boy ma'naviyatsiz buyuk davlat qurib bo'lmaydi.

Har bir jamiyatning ma'naviyat darajasi unda mavjud bo'lgan iste'dodlarga g'amxo'rliqi bilan ham belgilanadi. Bu jihatdan Turonzamin qadimgi an'analarga ega. Masalan, Alisher Navoiy “Xamsa”sini yozib tugatgach, Sulton Husayn Boyqaro buyuk shoirni saroyga taklif qiladi. Peshvoz chiqib, karnay-surnay sadolari ostida tantanali ravishda arkoni-davlat bilan kutib oladi. Shoirga shohona

sarupolar kiygizib kumush bilan ziynatlangan egar-jabduqli oq arg'umoqqa mingizib, shohning o'zi jilovlagan holda Hirotning bosh ko'chalarini aylanib chiqadi. Butun xalq ularni baravar olqishlaydi. Biri buyuk asar yaratgani uchun ikkinchisi, shu asar yaratuvchisini qadrlagani uchun shunday olqishlarga sazovor bo'lishgan. Bu voqea tillardan–tillarga, ellardan-ellarga, zamonlardan –zamonlarga osha bizgacha yetib kelgan.

Biroq mustamlakachilik, chorizm zulmi va sovetlar imperiyasi yillarida yurtimizda iste'dod egalari to'la bo'y ko'rsatisha olmadi.

Milliy mustaqillikka erishilgach, har sohadagi kabi iste'dod egalari ham munosabat o'zgardi. Respublikamizdagi ma'naviyat va madaniyat, hayotimizning turli soha xodimlari uchun xalq o'qituvchisi, xalq yozuvchisi, xalq shoiri, xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi kabi 34 ta faxriy unvon ta'sis qilingan. Bunday unvonlarga Vatanimizning munosib farzandlari sazovor bo'lmoqda. Bulardan tashqari hayotimizning turli sohalarida mehnat qilib erishgan yuksak yutuqlari uchun O'zbekiston Qahramoni, yuksak orden va medallar bilan ham yurtdoshlarimiz taqdirlanmoqda. O'zlarining kamtarona mehnatlari, xizmatlari uchun hukumatimizning yuksak mukofotlari xalqimizni qay darajada ruhlantirayotganini his qilish qiyin emas. Bu albatta, turli soha kishilari ma'naviyatini yuksaltiruvchi belgilardan biridir. Ayni paytda jamiyatimizning har bir ongli a'zosi imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga ruhlantiradi.

Ma'naviyat keng tushuncha bo'lib, ma'rifat, madaniyat tushunchalarini ham o'z ichiga oladi. Har qanday ma'naviyatning, ma'rifatning, madaniyatning ilk bosqichi ta'lim tizimi sanaladi. Shuning uchun yurtimizda ta'limga davlat ahamiyatiga molik tizim sifatida e'tibor berilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Prezidentning ta'lim yuzasidan qator farmonlarining berilishi bu sohaga e'tiborning yorqin namunasidir.

Agarda mustaqillikning 20 yillik rivojiga nazar tashlasak, dastlabki yillar bilan keyingi yillarda kishilarimiz ongida, dunyoqarashida, insoniylikning ijobiy sifatlarini egallayotganliklarida keskin ko'tarilish bo'layotganligini ko'ramiz. Ma'naviy barkamol xalqimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA UNING TAMOIYILLARI

REJA

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi
2. Pedagoigk texnologiyaning yo‘nalishlari
3. Pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlari.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. 1997.
 2. I.A.Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar –taraqqiyot omili. Toshkent 1995 y.
 3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. Ma’rifat gazetasi. 1998 1 aprel.
 4. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
 5. Yo‘ldoshev. J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari, Qo‘llanma. Toshkent. 2004.
 6. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar, Qarshi. 2000.
 7. N.Saydahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot) Toshkent. 2003
 8. N.Saydahmedov. Pedagoigk amaliyotda yangi pedagoigk texnologiyalarni qo‘llash namunalari. Tshkent. 2000.
 9. O‘.Q.Tolipov., M.Usmanboyeva. Yangi pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2006.
 10. H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyorova, E.U.Eshchinov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat, Toshkent 2009.
 11. V.P.Bespalko. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. Moskva. 1989.
 12. Metodologiya pedagogicheskoy texnologii akademika V.A.Моыхова. Moskva. 1997
-
1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni ro‘yobga chiqarish sifat ko‘rsatkich bosqichga ko‘tarildi. Yangi o‘quv rejasi,

dasturi, yangi avlod darsliklari, ta'lim standartlari yaratildi va maktab ixtiyoriga topshirildi.

Bu xujjatlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, mustaqil fikrlashga undashi bevosita o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq. Yangidan yaratilgan ta'lim standartlarini o'zlashtirish yangicha zamonaviy texnologiya asosida ish yuritishni taqozo qiladi.

Texnologiya tushunchasi ta'limda ishlab chiqarish sohalariga nisbatan ancha keyin qo'llana boshlagan. Texnologiya–yunoncha techne san'at, logos-ta'limot, mahorat ma'nolarini anglatib, biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llanadigan usullar, yo'llar yig'indisi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bola shaxsiga ta'sir ko'rsatish san'atiga e'tibor qaratilgandan so'ng "texnologiya" atamasi ta'lim tizimiga kiritila boshlagan.

"Pedagogik texnologiya" atamasini ta'lim berishdagi pedagogik mahorat, san'at deb tushunish mumkin. Har qanday faoliyatni yo texnologiya, yo san'at deyish mumkin. San'at ichki hissiyotga, texnologiya fanga asoslanadi.

Individual mahorat –xususiy metodika texnologiyalar paydo bo'lganga qadar yetakchilik qilgan. Masalan, zargarlik kasbi. Texnologiyalar vujudga kelgach, individual mahorat jamoa mahoratiga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Demak, texnologiya ko'plab kasb egalarining to'plagan mahorati yig'indisi, ya'ni jamoa mahoratidir.

Agar pedagogik texnologiya shaxsga ta'sir ko'rsatish san'ati ma'nosini anglatsa, o'qituvchi ham ana shunday vazifani bajaradi. Shuning uchun ham o'qituvchi–darsning ijodkori. U tayyor texnologiyalarning oddiy ijrochisiga aylanmasli, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'zining yo'lini izlashi, faoliyatga kirishishi lozim.

Milliy dasturda ko'zda tutilganidek, ta'lim jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari asosidagi xabarlar bilan ta'minlash rivojlanib boradi. O'quv, o'quv-metodik, ilmiy, innovasion, zamonaviy texnologiyalar mukammallashib o'quv jarayoniga tatbiq qilina boradi.

O'quvchilarni faollashtiradigan ular uchun qulay bo'lgan metod, o'qitish shakllari, vaziyatlarni o'qituvchi izlaydi, zamonaviy texnologiyalarga suyanib o'quv jarayonining samaradorligini oshira boradi.

Texnologiya fan tomonidan taqdim qilingan metodlar va vositalar tizimi bo'lib, ulardan foydalanish shaxs faoliyatining oldindan belgilangan natijalariga olib boradi, belgilangan miqdordagi natijani kafolatlaydi. Texnologiya jarayonning samaradorligi texnologiyaning puxta loyihalashtirilganligiga va uning amalga oshirilishi bilan bog'liq emas. Bir sharoitda yaxshi natija bergan texnologiya boshqa bir sharoitda yetarli (zaruriy) samara bermasligi mumkin. Masalan, novator o'qituvchi Mamajon Abdurasulovning ko'p yillik tajribalari asosida yaratilgan texnologiyasi katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Ammo ko'pchilik o'qituvchilarning shu texnologiyada ish olib borishi ko'zlagan natijani bermagan. (Bu fikrni V.F. Shatolovga nisbatan ham aytish mumkin). Chunki pedagog muvaffaqiyatining siri faqat texnologiyaga bog'liq emas, balki uning mahoratiga, o'quvchi qalbiga yo'l topa olishiga bog'liq. Har bir o'qituvchining qanday texnologiyani qo'llashidan tashqari o'quvchilar bilan muomalasi betakrordir. Har qanday texnologiya jonli xissiyotlarga to'la insoniy munosabatlar, pedagogik muomalaning o'rnini bosa olmaydi. Demak, har qanday texnologiya tajriba asosida amalga oshiriladi. Shuni ham aytish kerakki, tajribaning o'zi o'rganilmaydi, o'zlashtirilmaydi. Odatda, "tajriba o'rganiladi" deb aytilsa-da, aslida tajribadan kelib chiqadigan fikr, uning zamiridagi yashiringan g'oya o'rganiladi. Tajriba-jarayon. Jarayonni o'rganib, o'zlashtirib bo'lmaydi. Uni yo kuzatish yoki amalga oshirish mumkin. Har qanday holatda ham o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori samaradorligiga erishadi.

Shu sababli pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonida katta e'tibor berilmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda. Hozirgi kundagi eng dolzarb masala ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq qilishdir. Bu vazifa amalga oshirilmasa, ta'limda sifat va samaradorlikka erishish masalasi, o'quv jarayonini takomillashtirish masalasi hal qilinmaydi.

Shu kunda pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilishning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy texnologiyadan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari kerak.

Davr o'tishi bilan ta'lim –tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari kengayib, takomillashib bormoqda. Inson faoliyati rivojlanib ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishning yangi tizimlari –texnologiyalar yuzaga kelmoqda. So'nggi yillarda ta'limda pedagogik texnologiyalarga amal qilina boshlandi.

Ishlab chiqarishda texnologiya turli materiallarga ishlov berish tegishli kasb ustalari tomonidan amalga oshirilsa, ta'limdagi pedagogik texnologiyada o'qituvchi tomonidan o'quvchiga aqliy, ruhiy ta'sir o'tkazishdir.

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'lib turli rivojlanish bosqichlarini o'tab kelmoqda.

1940-50 yillarda "ta'lim texnologiyasi" deb nomlangan bu tushuncha, o'quv jarayonida **audiovizual** texnika vositalaridan foydalanishni nazarda tutgan.

Bu tushuncha AQSh (XX asr o'rtalarida)da "pedagogik texnologiya" va "ta'lim texnologiyasi" nomi bilan yuritilib texnik vositalar yordamida o'qitish jarayonida amalga oshirilgan.

Pedagogik texnologiyani qo'llash kengayib mazmuni ham o'zgarib bormoqda: 50-60 yillarda "ta'lim texnologiyasi" atamasi qo'llanilib, unda dasturlashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan. 70-yillarda "pedagogik texnologiya" atamasi qo'llanilib, unda avvaldan rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlovchi jarayon ifodalangan. 80-yillarga kelib, ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalar yaratishini pedagogik texnologiya deb tushunilgan.

Yuqorida keltirilgan faktlardan pedagogik texnologiya tushunchasini ikki xil izohlash mumkin: birinchidan, o'quv jarayonida texnik vositalardan foydalanishni hisobga olib ta'limdagi texnologiya deb nomlansa, ikkinchidan, bu tushuncha o'quv jarayonining o'zini qurish texnologiyasini bildiradi deyish mumkin.

Yuqorida keltirilganidek, hozirgi kungacha turlicha nomlanib kelingan pedagogik texnologiya tushunchasiga B.T.Lixachev, V.P.Bespalko, I.P.Volkov, M.Chashanov, V.M.Monaxov, M.V.Klarin, V.Yu.Pityukov, Sakomoto,

U.Nishonaliyev, N.Saydahmedov, B.G'.Ziyomuhamedov, V.K.Dyachenko, B.L.Farberman va boshqalar tomonidan ta'rif berilgan. Chunonchi, "Pedagogik texnologiya o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir", -deydi V.P.Bespalko. "pedagogik texnologiya –o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi faoliyat modeli", -deydi V.M.Monaxov va hokazo.

Darhaqiqat, pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, ijtimoiy va boshqa nuqtai nazardan yondoshish mumkin. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri –zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida amalga oshirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Darhaqiqat, ta'lim katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda inson uchun zarur bo'lgan axborotlarni avloddan-avlodga uzatish amalga oshirilgan. Bizning hayotimiz axborotlar bilan bevosita bog'liq. Shunday ekan bizning har bir harakatimiz axborot olish va uzatish yoki undan foydalanish, uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiya axborotlarni o'zlashtirish, ulardan foydalanish, olingan axborotlardagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash orqali yangi axborotlar yaratish jarayonidir: o'quvchilarga bosh bo'laklar ega va kesim haqida axborot berilganda bosh bo'laklar deb atalmish sabablari tushuntirilganda, ularning ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengayishi mumkinligi haqida axborot yaratiladi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya tarbiya oluvchi (o'quvchi)ga oldinda belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Bunda o'quvchi o'qituvchi rahbarligida mustaqil o'qishni, bilim olishni, fikrlashni o'rganadi va o'zlashtiradi.

2. Pedagogik texnologiyaning yo'nalishlari.

Pedagogik texnologiya hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli bo'lib, uni hozirgacha mavjud bo'lgan pedagogik yo'nalishlarning yuqori bosqichi deb hisoblash mumkin.

pedagogik texnologiya ta'lim tarbiyani rivojlantirish ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik faoliyatidan iborat ijtimoiy hodisa hisoblanishi lozim.

Hozirgi an'anaviy ta'lim XVII asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, maktablardagi sinf-dars tizimidan iborat. Hozirgi pedagogik texnologiyalar, asosan, shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadida yaratilmoqda va ularning turli yo'nalishlari mavjud:

1. Empirik –sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy holatiga (imkoniyatiga) tayangan holda bilim berishga qaratilgan.

2. Kognitiv –atrof olam to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish texnologiyasi. U tafakkurni differensiallash orqali bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

3. Evristik –yo'naltiruvchi savollar bilan ta'lim berish tizimi. Bu usul haqiqatni topish san'ati bo'lib, topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi, tafakkur rivojlanadi.

4. Kreativ (yaratish) - bu yo'nalish tadqiqot xarakterida bo'lib, o'quvchilardagi maqsadga yo'naltirilgan ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

5. Inversion (almashtirish) – axborotlarni turli tomondan o'rganib va o'rnini almashtirib qo'llash orqali fikrlashni shakllantirish.

6. Integrativ (aloqador, butun) – o'quvchilarni axborotlardagi mayda-mayda bo'laklarning o'zaro aloqadorligini aniqlashga o'rgatish.

7. Adaptiv – axborotlarni o'rganish uchun qulay sharoit yaratish va moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish yo'li.

8. Inklyuziv –o'quvchi bilan o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini tenglik asosida tashkil qilish.

Pedagogik texnologiyaning ildizi juda qadimga boradi. Chunki insoniyat hamma zamonlarda ham yosh (kichik)larga ta'lim tarbiya berish bilan shug'ullangan. Demak, pedagogik texnologiya shu davrlardayoq shakllana borgan.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya, asosan, oilada keyinchalik jamoatchilik asosida olib boriladi. Yozuv paydo bo'lganga qadar bu ishlar so'zlash va ko'rsatish asosida olib borilgan. Yozuv paydo bo'lishi va qog'ozning ixtiro qilinishi dastlab yuqori tabaqa vakillariga xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik qo'lyozma va toshbosma kitoblari chiqqan boshladi. Bu ta'lim jarayoni haqidagi axborotni kengaytirdi, pedagogik texnologiyaning takomillasha borishiga olib keldi. Pedagogik texnologiyada oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolatlangan bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda ta'lim shakllari, usullari, metodik tizimlari xususiy metodikalar ko'rinishida bo'lib, ularning takomillashib borish jarayoni texnologiyaga olib keldi. Shu yo'sinda shakllangan pedagogik texnologiya bir qancha asoslarga ega: ijtimoiy, falsafiy, metodologik, didaktik, pedagogik, psixologik, fiziologik, gigiyenik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy va amaliy.

Ijtimoiy asosi har bir shaxs va jamiyatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs va jamiyat rivojida asosiy omillardan hisoblanadi.

Metodologik asosi uning qanday metodlarga asoslanishi bilan belgilanadi. Insonlarning olamni bilishi qadimdan turli asoslarga ega bo'lgan. Hozir ham olam haqida xolis ma'lumotlar olishning ilmiy metodologiyasi pedagogik texnologiyaning ham metodologik asosi hisoblanadi.

Pedagogik asosi zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Pedagogik texnologiyalar hozirgi pedagogika fanining rivojiga katta hissa qo'shmoqda.

Psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olish talab qilinadi.

Pedagogik texnologiyaning yo'nalishlari, rivojlanishi, asoslari shuni ko'rsatadiki, u hozirgi davr talabalariga javob beradigan ta'lim berish usullaridir.

3. Pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlari.

Ta'lim tizimining hamma jabhalari, xususan, pedagogik texnologiya ham inson faoliyatining mahsulidir. Inson har qanday maqsadga erishish uchun zarur faoliyatni amalga oshiradi. Demak, inson hayotida avvalo maqsad paydo bo'lsa, shunga mos ravishda mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda faoliyat yuzaga keladi. Bundan ko'rinadiki, hammasini maqsad belgilaydi. Maqsad esa turli sabablar zahirida (asosida) shakllanadi. Bunday sabablarni ehtiyoj deyiladi. Agarda ehtiyoj paydo bo'lsa, undan maqsad kelib chiqadi va shu maqsad faoliyatga sabab bo'ladi.

Ehtiyoj va maqsad umumiy holatda motiqlar deyiladi. Demak har bir faoliyat motivlar asosida kelib chiqar ekan hamda ular (faoliyatlar) yordamida so'nggi natijaga erishadi. Pedagogik texnologiyada motivlar jarayonni keltirib chiqaradi hamda jarayonning natijasiga olib keladi. Bunda pedagogik texnologiyaning motivlar, jarayon va natijalardan iborat uchta tarkibiy qismi mavjudligi namoyon bo'ladi.


Pedagogik texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlari

Pedagogik texnologiya		
Motiv	Jarayon	Natiya
Ehtiyoj, manfaat, maqsad, qiziqish, havas	Vosita, yo'l, usul, faoliyat	Ta'lim, tarbiya

Jadvaldagi tarkibiy qismlarning har birining qanday holatda amalga oshirilishi, kim tomonidan bajarilishiga diqqatni qaratish mumkin.


Yuqorida aytilganidek, o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona (ta’lim ishtirokchilari)ning ehtiyoji, manfaat maqsadlariga muvofiq motivlarni qondirishga pedagogik texnologiya xizmat qiladi. Bu motivlar o‘ziga xos aloqadorlikka ega.

Pedagogik motivlarning o‘zaro bog‘liqliklari



Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot ko‘rinishida amalga oshiriladi. Muloqot davomida ularning har biri ma’lum faoliyat turini amalga oshiradi.

Pedagogik texnologiya asosiy jarayoni ishtirokchilarining faoliyat turlari



Tushuntirish, rahbarlik
qilish orqali mustaqil
bilim olish, fikrlashni
o'rgatish

Tushuntirish,
o'zlashtirish orqali
mustaqil bilim olish,
fikrlashni o'rganish

So'zlash, ko'rsatish,
topshiriqlar berish,
nazorat

Diqqatni jamlash,
tinglash, kuzatish,
topshiriqlar bajarish

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi bilan o'quvchi orasidagi munosabat biri o'rgatishni, ikkinchisi o'rganishni taqozo qiladi. Bu pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchi o'qituvchi rahbarligida o'zi bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini egallaydi.

Pedagogik texnologiya jarayoni serqirra bo'lib, unga tayyorgarlik ko'rishning o'ziga xos tomonlari (bosqichlari) bor. Ular: maqsadlar, mazmun, standart, rejalar, dasturlar, vositalarning tayyorligi, o'quvchining tayyorligi, o'qituvchining tayyorligi, metodlar tanlash, boshqaruv, nazorat. Pedagogik texnologiya jarayonining o'qituvchi, o'quvchi, metodik va malaka oshirish, ta'lim menejmenti, ta'minot, marketing, diagnostika, monitoring, nazorat kabilar xizmat ko'rsatuvchilar sanaladi.

Pedagogik texnologiya jarayonida og'zaki, yozma, ko'rgazmali, texnik vositalar qo'llanadi.

Pedagogik texnologiyaning uchinchi tarkibiy qismi pedagogik texnologiya

Natijalaridir. Bu hamma ishtirokchilarga aloqadordir. Bu aloqadorlik, ayniqsa, o'qituvchi bilan o'quvchiga tegishli bo'lib, uni quyidagicha aks ettirish mumkin.

Pedagogik texnologiya jarayoni

o'qituvchi	o'quvchi
Davlat ta'lim standartlarini bajarish, pedagogik malaka, ko'nikma mahoratning ortishi, ijodiy o'sish.	Bilimlilik, tarbiyalanganlik, mustaqil fikrlash, mustaqil hayotga tayyollik

Raqobatbardoshlik

Bu jadvaldan ma'lum bo'ladiki, pedagogik texnologiya natijasining eng asosiysi o'qituvchi va o'quvchining raqobatbardoshligini ta'minlashdir. Bunga erishish orqali maktab va pedagogik jamoaning obro'-e'tibori ta'minlanadi.

Ta'lim tizimi natijalari va uni nomlash borasida ham ayrim oxiriga yetmagan masalalar mavjud, chunonchi, oliy ta'limning yakuniy bosqichi bakalavr va magistr deb nomlansa, undan quyi bosqichdagi ta'lim muassasalarini bitiruvchilar hozircha qanday nomlanishi noaniq bo'lmoqda.

Shuni ham aytish lozimki, o'qituvchining tayyorligi, bilimdonligi, pedagogik mahorati talab darajasida hamda o'quvchining qiziqiqishi, eslab qilishi doimo yuqori darajada bo'lganda edi, ta'lim jarayonida istalgan usuldan foydalanilsa ko'zlagan natijaga erishish mumkin edi. Afsuski, hamma vaqt ham shunday holatga to'g'ri kelavermaymiz: tajribasi o'rtacha o'qituvchi, qiziqishi talab darajasida bo'lmagan o'quvchilar to'g'ri kelganda pedagogik jarayonni o'zgartirgan holda maqsadga erishish mumkin. Shuning uchun ham pedagogik jarayonning turli shakllari juda qadimdan paydo bo'lgan va hozirgacha takomillashib kelmoqda. Ularning har bir shakl va usullaridan maqsad sari foydalanib kelinmoqda. Demak, har bir usulning yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham mavjuddir.

MAVZU: TA'LIM JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH

REJA:

1. O'quvchilar bilan individual ishlashda ta'lim mazmuni.
2. O'quvchilar bilan individual ishlash jarayonida ta'limiy o'yinlarning o'rni (ahamiyati).
3. Individual ishlash –o'quvchi leksik imkoniyatlarini oshiruvchi vosita.

ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darajali tabaqalashtirib o'qitish konsepsiyasi. Loyiha. "Ma'rifat" 26.01.2005.
2. O.Rahimova. Ona tili darslarida interfaol metodini qo'llash. TAT. 2003 y. 4-son.
3. Sh.Mamajonov. Ko'p ma'noli so'zlar ustida bahs-munozara darsi. TAT. 2002 y. 4-son.
4. Sh.Yusupova. Ona tili darslarida mantiqiy fikrlash. TAT. 2002 y 4-son.
5. M.Saidov. O'quvchi tafakkurini o'stirishda ijodiy topshiriqlar. TAT. 2000 y. 1-son.
6. R.Normurodov. O'quvchilar nutqida perifraza. TAT. 2002 y. 3-son.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda mavjud bo'lgan qobiliyat, iqtidor va imkoniyatlar yuzaga chiqadi, aniqlana boradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchidagi ana shu xususiyatlarga qarab yondoshishni talab qiladi. Natijada bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham, iqtidorli o'quvchilarning ham dinamik rivoji ijobiy natija beradi. Ta'lim jarayonidagi yuqori natijalarga erishish faktorlaridan biri o'quvchilar sog'ligi va uni muhofaza qilishdir.

Respublika Prezidentining 2004-2009 yillarda o'rta maktabni rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi farmonida ham sportni, xususan,

qishloqda sportni rivojlantirish masalasi asosiy yoʻnalishlardan biri sanalib, bu albatta, oʻquvchini sogʻlomlashtirish va uning sogʻligini muhofaza qilishdir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy muammosi –oʻquv samaradorligini oshirish, oʻquvchilar bilim sifatini yaxshilash, oʻquvchi shaxsini rivojlantirish orqali taʼlim maqsadiga yetishishdir. Yangi pedagogik texnologiyaning oʻziga xosligi shundaki, taʼlim jarayonining oʻziga xos tomonlarini hisobga olgan holda uni oldindan rivojlantiriladi, oʻquvchilar shunga tayyorlab boriladi.

Demak, yangi pedagogik texnologiya prinsplari (tamoyillari)dan biri –taʼlim-tarbiya jarayonini individuallashtirishdir. Yaʼni, taʼlim-tarbiyani oʻziga xos yoʻnalishda olib borish boʻlsa, ikkinchidan, oʻqituvchi va oʻquvchi munosabatidir., yaʼni oʻquvchining dars jarayonining passiv ishtirokchisi, obykti emas, balki faol ishtirokchisi boʻlishi, oʻqituvchining esa oʻquvchi faoliyatini tashkil etuvchi, boshqaruvchi, asosiy masʼuliyatni oʻz zimmasiga olgan subyekti ekanligidir.

Oʻquvchilar bilan individual ishlash ularda boʻlgan qobiliyatni, iqtidorni yuzaga chiqaradi. Shu kun oʻqituvchisi oldida turgan talablardan biri va asosiysi, oʻquvchilar bilan ishlash taʼlimi mazmunini aniqlab olishdir. Alohida oʻquvchilar bilan ishlash uchun moʻljallangan taʼlim mazmunida oʻquvchilarning qobiliyat va imkoniyatlaridan tashqari temperamenti, xarakteri, idroki, xotirasi, tasavvuri, tafakkuri, diqqati, qiziqishi hisobga olinadi. Oʻquvchilardagi ana shu imkoniyatlar hisobga olinib, taʼlim mazmuni ishlab chiqiladi. Bunda oʻquvchilarga beriladigan topshiriqni bajarishga ketadigan vaqt, oʻquvchining mustaqil ishlash mazmuni, mustaqil ishlashga layoqati va bosqichlar hisobga olinadi. Oʻquvchilar bilan alohida (individual) ishlash orqali ularning yangi taʼlim mazmunini qay darajada oʻzlashtirishga tayyorgarligi aniqlanadi.

Oʻquvchilar bilan individual ishlashda taʼlim mazmuni qatʼiy boʻlmaydi. Chunki, bu jarayonning oʻzi qatʼiylilikni talab qilmaydi. Individual ishlash oʻquvchining taʼlim jarayonida nimalarga qodirligi, layoqatini aniqlaydi. Mashhur pedagog V.Suxomlinskiy: “Bolani, uning aqliy rivoji, fikrlashi, qiziqishi, intilishi, qobiliyati, mayllarini bilmay turib, oʻquv-tarbiya ishlarini olibborish mumkin emas”, -degan edi. Darhaqiqat, oʻquvchilar bilan individual ishlash ularning shu

kungi ta'lim-tarbiya jarayonini belgilash bilan birga ularning ertasi, kelajagi haqida ham rejalashtirish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim jarayonini individuallashtirish ijtimoiy jihatdan o'quvchi imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Didaktik tomondan o'quvchi layoqatlarining yuzaga chiqishiga sharoit yaratadi. Bunda o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlari hisobga olinib o'qitishning barcha shakllari metod va vositalari ishga solinadi.

Psixologik jihatdan o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etishga sharoit yaratadi. Chunki, bu jarayonda ham o'qituvchi, ham o'quvchi shaxsining hamma qirralari namoyon bo'ladi.

Metodik jihatdan darsda va darsdan tashqaridagi mashg'ulotlarda pedagogik texnologiya joriy qilinadi.

2. O'quvchilar bilan individual ishlash ta'lim jarayonini o'ziga xos usulda olib borishdir. Individual ishlash jarayonida o'quvchilarning qobiliyatlari, nimalarga qodirliklari aniqlanib, shunga mos bo'lgan turli topshiriqlar, ta'limiy o'yinlar berilishi mumkin. Masalan:

1. ***“Eslab qol!”*** o'yini.

Qo'shimchalar bahsida “so'z yasovchi” va “shakl yasovchi” qo'shimchalarni topish buyuriladi.

O'quvchilarga biror matn ikki marta o'qib beriladi. Matndagi so'z yasovchi qo'shimchali so'zlarni birinchi guruh topsa, ikkinchi guruh shakl yasovchi qo'shimchali so'zlarni topadi.

2. ***“To'kin dasturxon”*** o'yini.

Stolga sun'iy mevalar terib qo'yiladi va har bir mevaga so'zlar yozilgan qog'ozchalar yopishtirilgan bo'ladi. Mevalar ichidan faqat o'zakdosh so'zlar yopishtirilgan mevalar ajratib olinadi. Kim to'g'ri va ko'p meva to'plasa, g'olib sanaladi.

3. ***“Bisotingni namoyish qil!”*** o'yini.

UCh	ICh	BOG'
1. Uchmoq	1. Ichmoq	1. Belbog'

2. Uchuvchi	2. Ichish	2. Bog'cha
3. Uchish	3. Ichak	3. Bog'dorchilik
4. Uchqur	4. Ichimli	4. Bog'siz
5. Uchqun	5. Ichimlik	5. Bebog'
6. Uchburchak	6. Ichki	6. Bog'la
7. Puch	7. Ichra	7. Bo'yinbog'
8. Uchli	8. Ich ko'ylak	8. Bog'im
9. Tez uchar	9. Ichkuyov	9. Bog'ich
10. Uchar	10. Ichkari	10. Bog'bon

4. **“So‘z tarkibi adashdi”** o‘yini.

Doskaga 5 tadan so‘z yozilgan plakat osiladi yoki o‘quvchilarga tarqatiladi. Har bir so‘zdagi asos va qo‘shimchalar aniqlanib, to‘g‘rilab yoziladi.

1-guruh

1. Qushlarchani
2. Quyonningchilik
3. Xizmatlarchida
4. Qalamchalarim
5. Qishloqhamlar

2-guruh

1. Bog'larningbon
2. Nuqsonbega
3. Kitobxondanlik
4. Garzarchilik
5. Loqo'tninglar

Bu o‘yinlar bir necha o‘quvchi yoki sinf bo‘yicha o‘tkazilib, ularni qanday bajarganligiga qarab ball qo‘yiladi va g‘oliblar rag‘batlantiriladi. Ta’lim mazmunining yangilanishi, zamonaviy texnologiyalar, o‘qitishning yangi-yangi metodlarining qo‘llanilishi o‘quvchi nutqini ravon qilishga, tafakkurini rivojlantirishga qaratilgandir.

Ma’lumki, ona tili oldiga qo‘yilgan standart talab o‘quvchilarni to‘g‘ri, ravon, aniq, mantiqli gapirish va fikrini savodli yoza olish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

O‘quvchilarda ana shunday malakalarni shakllantirishda ular bilan individual ishlash qo‘l keladi. 3-savol. Nutqning ravonligi, chiroyliligi o‘quvchi leksik imkoniyatlari bilan bog‘liq. Biror fikr ifodasida sinonimlar, turli ifodalash vositalarining qo‘llanilishi yaxshi samara beradi. Chunonchi, o‘quvchi nutqida

perifrazalarning qo'llanilishi ijobiy natijaga olib keladi. **Perifraza** qayta nomlashga asoslangan ko'chim turi bo'lib, tasviriy ifoda shakllanishining ma'lum bir me'yoriga xoslanganidir. Uning shakllanishi til xodisalari va tildan boshqa hodisalarga bog'liq: ijtimoiy munosabatlarda milliy tushunchalarni, mantiqiy xususiyatlarni ifodalashga xizmat qilish tildan boshqa xodisalar bo'lsa, tilning qurilish tizimini, uning qoidalarini ifodalash munosabati perifrazaning nutq hodisasi sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. Demak, o'quvchilar nutqida perifrazani shakllantirish yuqoridagi talablar asosida hosil qilinib, nutqiy ravonlikni ta'minlaydi: padari buzrukvor, volidai muhtarama, ko'krak bolasi, uyqusiz tunlar, hamrohim, qanotli do'stlar, aql gimnastikasi, salomatlik posboni, zangori ekran, bahor darakchisi, ozodlik oroli, kun chiqar yurt, g'azal mulkining sultoni, fasllar kelinchagi, dala malikasi kabilar predmet, narsa-hodisalarni qayta nomlash ko'nikmalari mavjudligini ko'rsatadi.

Narsa-predmet, shaxs nomlarini qayta nomshni o'rgatish orqali o'quvchilar nutqida bo'lgan ayrim nuqsonlar bartaraf etiladi. Ayrim o'quvchilar nutqida ba'zi til unsurlarining noto'g'ri qo'llanilishi barham topadi: ota o'rnida –paxan, papasha, papa; onaga nisbatan ena, biyi, aja, aya, mamasha kabi qo'llanish holatlari uchraydiki, bu tilimizning sofligiga, ifodaliligiga putur yetkazadi. Uning o'rniga padari buzrukvor, volidai muhtarama, birikuvlaridan foydalanishni o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

- Perifrazadan foydalanish orqali **so'z boyligini oshirish**, sinonimik qatorlarni kengaytirish mumkin: **oq oltin, fasllar kelinchagi, tun qushi, ekinning qoni, tinchlik posboni, qora oltin, tinchlik elchisi, oltin fasl** kabi.

- Mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish mumkin: g'azal mulkining sultoni (Navoiy), baxt va shodlik kuychisi (H.Olimjon), qizil lolalar mamlakati (Gollandiya), kun chiqar yurt (Yaponiya), O'zbekistonning gullar shahri (Namangan), oltin vodi (Farg'ona), zangori olov maskani (Gazli, Buxoro) kabilar orqali shaxs va joy nomlari aynan ifodalanmay, balki mantiqiy xulosa chiqariladi. Bu o'quvchilar tomonidan davom ettirish topshirilishi mumkin.

- Nutqiy g'alizliklarga barham berish imkoniyati tug'iladi. Masalan, men kalimasini takror ishlatish hollari ko'p uchraydi: Men bugun trenirovkaga boraman. Men onamga yordamlashaman. Men sinfdoshlarim bilan o'ynayman kabilarda "men"ning takrorlanishi nutqiy noqulaylikni keltirib chiqaradi. Uning o'rniga "kamina" perifrazasini almashtirilsa nutqiy ravonlik va shunday ko'nikma shakllanadi. Yoki, biror yozuvchi yoki shoir ismini takrorlayvermasdan uning o'rniga muallif, falon asar muallifi, yozuvchi kabilarni qo'llash orqali nutqiy g'alizlik barham topadi.

- O'quvchilar bilan individual ishlash natijasida ularda perifrazadan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish orqali nutq madaniyati, muomala madaniyati o'sa boradi. Masalan, birinchi o'qituvchim, ustozim, po'lat lochin, diyor xaritasi, oq xalatli kishilar, tinchlik posboni, oftobi olam kabi so'zi va ifodalarda nutqiy aniqlik, ta'sirchanlik, ifodalilik borki, ular nutq madaniyatiga ijobiy ta'sir qiladi, so'z boyligini oshiradi.

Individual ta'limning yakuniy maqsadi sinfdagi har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka mashg'ulot olib borishdir. Bunda har bir o'quvchining qobiliyati va imkoniyatini hisobga olgan holda ularning barchasining dinamik rivojlanishi uchun sharoit yaratishdir.

O‘QITUVCHI BILAN O‘QUVCHI MUNOSABATLARINING O‘ZIGA XOS TOMONLARI REJA

1. Ta’lim tarbiyaning gumanizasiyalashuvi.

2. Pedagogik hamkorlik.

3. Ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi 28.10.2005 yil.

- O‘quvchi ma’naviytini shakllantirish. Maktab direktorlari va boshliqlari uchun qo‘llanma. Toshkent – 2000 y.

- Tafakkur gulshani.

- Donishmandlar odob – axloq to‘g‘risida.

- Donolardan saboqlar.

-Q.Yo‘ldoshev. Yangilanayotgan milliy pedagogikamizning yetakchi xususiyatlari. Tafakkur jurnali. 1996. 4-son.

- N.Mahmudov. Ona tili va ma’naviyat.

- O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. II – jild. Toshkent. 1999 y.

- A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”.

Ta’lim bilan tarbiya munosabatligi shaxs takomili va taraqqiyotida \al qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Ta’lim (ilm) ning asosiy tarbiya bilan bevosita bog‘lanadi. Bolani baxtli, saodatli qilish, yaxshi xulqlarni egallatib, yomon xulqlardan tozalashdir. Obrazli qilib aytganda, tabib bemor tanasini darddan tozalagandek tarbiyachi ham tarbiyalanuvchidagi yomon xulq – atvorni tozalaydi. Darhaqiqat “Sut bilan birgan jon bilan chiqar” maqoli aynan tarbiyaga qaratilgandir. Bu “Beshikdan to

qabrgacha ilm o‘rgan” degan hadisi sharifga hamohangdir. Shuning uchun ham tarbiya – ilmdir. U bilan shug‘allanish insoniyat bilan babbarobar kelmoqda. Ammo, tarbiya kim tomonidan va qanday berilishi insoniyat oldidagi muammolardan biridir. Zamonasining taniqli pedagog olimi Abdulla Avloniy tarbiyani kim beradi degan savolga “Boshi paxmoq, qo‘li to‘qmoq onalarmi, maishatchi, ilm qadrini bilmagan otalarmi, ular o‘zaro o‘qishga muhtoj” degan edi. Yoki maqsadi pul bo‘lgan muallimmi, istagi, talabi osh, chopon bo‘lgan mudarislarmi, ularning o‘zlari islohga muhtojdir, deb kuyunib: “tarbiya bizlar uchun 1 hayot – yo mamot, yo najon – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” – degan edi.

Ta’lim – tarbiyaning inson hayoti va ma’naviyat darajasida qanday o‘rin tutishini hazrat Alisher Navoiy ham majoz yo‘li bilan ifodalagan:

Itki taallumda (o‘rganish, ilm olish) chu bo‘ldi kamol

Sayd (ov) aning og‘zida o‘ldi halol.

Inson kamoli va taraqqiyotida ta’lim–tarbiyaning roli beqiyos bo‘lgani holda, biz uqtiradigan, o‘rgatadigan ta’lim–tarbiya yosh (inson) lar faoliyatida samara bermog‘i darkor. Zero, fanlardan o‘rgatilayotgan nazariy bilimlar juda ko‘p vaqtlar amaliyotda o‘z ifodasini topmay keldi. Tarbiyada ham hayotiy, milliy xususiyatlaretakchi omilga aylanmog‘i kerak. Masalan, vujudning tozaligi faqat gigiyenik hodisa deb tushuniladigan rus oilasida tarbiya ko‘rgan bola bilan poklikni avvalo ma’naviy holat, so‘ngra gigiyenik tozalik deb tushunuvchi o‘zbek oilasida tavallud topgan bolaga bir xil qadriyatlar tizimining ta’siri ko‘zlangan natijani bermaydi. Yoki o‘zbek uchun halol va harom tushunchalari.... Ko‘pgina millatlar uchun bu ma’naviy mezonlar tushunarsiz. Lekin, halol va haromni toza yoki notoza tarzda tushunishni fojea deb tushunish kerak. Balki ta’lim – tarbiya jarayonida bolaning naslida bo‘lgan, oila muhitida singdirilgan qadriyatlarni hisobga olib ish ko‘rish yaxshi natija beradi.

Ta’lim an’anaviy va yangilanganga bo‘linganidek, tarbiyani ham an’anaviy va yangilanganga ajratish mumkin. Pedagogik nuqtai nazardan yondoshsak milliy

ta'lim – tarbiyaning yangi sifatlari uning gumanizasiyalashuvi, ya'ni insoniylashganligi ko'zga yaqqol tashlanmoqda. An'anaviy ta'limda, ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchining o'zi emas, balki u egallaydigan bilim muhim sanalardi, chunki mazkur tizimiga odamning o'zi emas, uning qarashlari zarur edi. Yangilangan ta'lim – tarbiya tizimida esa o'quvchi shaxsi bosh qadriyatga aylanib bormoqda, ya'ni uning ma'naviyatini imkon darajasida barkamol qilish yo'llarini izlash va amaliyotga tatbiq etish asosiy vazifa bo'lmoqda.

Ta'lim – tarbiyaning gumanizasiyalashuvi barcha tarbiyaviy ishlarda tarbiyalanuvchining shaxsi tura boshlagan o'quvchi – o'qituvchi, tarbiyalanuvchi – tarbiyachi munosabatlarini ham tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. An'anaviy ta'lim – tarbiyada o'quvchi (tarbiyalanuvchi) tarbiya jarayonining obyekti hisoblanib, tarbiyasi esa bu jarayonning subyekti, ijrochisi deb qaralardi. Kunchiqar mamlakatining donolaridan biri: "Ta'lim olish mumkin qadar ovqat yeyishmay tabiiy bo'lishi kerak", deydi. Demak, ta'lim – tarbiya jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchi bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylansin, ya'ni o'quvchi tarbiya jarayoniga bevosita ishtirok etsin, uni tarbiyalashlarini kutib o'tirmay bu faoliyatning ishtirokchisiga aylansa, kutilgan natijaga erishish mumkin. Bu ishda tarbiyada tarbiyalanuvchining ta'lim yoki tarbiyaga intiladigan ruhiy holatini yaratish muhim ahamiyatga ega.

2. PEDAGOGIK HAMKORLIK.

Pedagogika ilmida pedagogik hamkorlik deb ataluvchi va o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini anglatuvchi bu tushuncha hozirgi kunda tarbiyashunoslikning yetakchi tushunchalariga aylanib bormoqda. Chunki hozirgi dolzarb vazifa o'quvchi (tarbiyalanuvchi) ni faollashtirish, dars jarayonining faol ishtirokchisiga, o'qituvchining hamkoriga aylantirishdan iboratdir. "Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi – qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi", - degan edi V.O.Disterng. Haqiqatni topish jarayonida o'quvchi (tarbiyachi) bilan o'quvchi (tarbiyalanuvchi) o'rtasida hamkorlik shakllari boradi va o'zluksiz aloqaga aylanadi. Muammoni yechish jarayonida suhbat, dars

o'tishning turli yangi ko'rinishlarini qo'llash, muammoli vaziyat hosil qilish kabilarni qo'llash orqali o'quvchining faolligini oshirish mumkin. Bu o'rinda tafakkurni shakllantirish vositasi ona tilining o'rnini, uning imkoniyatlarini o'quvchilarga singdira borish zarur. Bu orqali o'quvchilar fikrlashidagi o'ziga xosliklar yuzaga chiqadi, natijada o'ziga xos hamkorlik namoyon bo'ladi.

Har bir xalqning o'ziga xos milliy tafakkur tarzi mavjud. Chunonchi, amerikalik mashhur tilshunos Benjamin Li Uorf: "Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti boshqacharoq bo'lar edi" deganida o'ziga xos ingliz tafakkurini nazarda tutgan. Til orqali reallashadigan tafakkur tarzining o'ziga xosligi, borliqni bilishning ham o'ziga xosligidir. Gumboldning "Yer yuzidagi tillarning xilma – xilligi faqat tovushlarning turlichaligida emas, balki xalqlardagi dunyoni ko'rishning xilma - xilligidadir", degan fikri ham bunga monanddir.

Demak, ona tilimiz atrofimizdagi olamni, yorug' dunyoni bilish vositasi hamdir. Ayni paytda allomalar aytganlaridek, shu til egasi bo'lgan xalqning ruhi, bo'y – basti, butun borlig'ini aks ettiradi. O'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining asosiy vositalaridan biri matn ustida ishlashdir. Shu orqali o'qituvchi bilan o'quvchi muloqotga kirishadi, o'quvchining ham og'zaki, ham yozma nutqi takomillasha boradi. Bu masadaga yangicha yondashuvlar, bular yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiya va metodik ko'rsatmalar ona tili ta'limi rivojiga hissa bo'lib qo'shiladi.

Yangicha pedagogik hamkorlik ta'lim bilan tarbiyaning o'zaro munosabatiga yangicha yondashuvni taqozo qilmoqda. An'anaviy ta'lim – tarbiyada asosiy e'tibor ta'limga qaratilib, yaxshi o'qigan bola tarbiyalash hisoblanardi.

Tarbiyaning tajribasi esa buning aksini ko'rsatadi. Bolalarning tarbiyasizligi ularning yaxshi bahoga o'qmaganligidan emas, balki o'qimayotganligi yetarlicha tarbiya ko'rmaganligidandir. Bu tajribada necha martalab sanalgan. Bola qandaydir miqdordagi bilimlarni egallasin deb maktabga berilmaydi. Ona – otaning ezgu niyati bolasining ma'naviy – axloqiy sifatlarga ega bo'lishini ko'zlab uni ta'lim

muassasasiga yo‘llaydi. Shuning uchun ham hozirgi paytda ta’lim – tarbiyaning muhim tarkibiy qismi deb hisoblanib kelinmoqda.

“Tarbiyadagi eng katta xato, o‘ta shoshqaloqlikdir”,-degan edi J.J.Russo. Demak, tarbiyaning markazida shaxs va uning kamoli turadi.

3. MA’NAVIY BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASH

Ta’lim – tarbiya amaliyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ijtimoiy taraqqiyot talablari darajasida bo‘lsa-da, barkamol ma’naviyat egalarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari hozirdanoq belgilab qo‘yildi deyish mumkin.

Ma’naviy barkamollik iqtisodiy salohiyatidan yuqori turadi. Yurtning kuch–qudrati uning moddiy boyliklari bilan emas, balki xalqning ma’naviy barkamolligi bilan belgilanadi. Yurtning ma’naviy salohiyati (fuqarolarning yuksak ma’naviyati) asrlar osha yashaydi: X-XII asrlardagi ma’naviy barkamol ajdodlarimiz...

Ma’naviyat ko‘p qatlamli, ammo, bir tarkibli hodisadir. Ma’naviyat yo pok bo‘ladi, yoki aslo ma’naviyat bo‘lmaydi.

Shaxs (fuqro)ning barkamolligi avvalo uning sog‘lomligi, sog‘lom ma’naviyatidir. Sog‘lomlik tushunchasi faqat jismoniy baquvvatlik emas, balki ma’naviylik tushunchasi hamdir. Sog‘lom ma’naviyat va uning belgilarini, asoslarini aniqlash ijtimoiy xarakterga ega.

Ma’naviy barkamol shaxs o‘z manfaatlarini o‘zgalar manfaatiga qarshi qo‘ymaslik va o‘zinikini afzal bilmaslikdir. Boshqalarni ham o‘zi singari inson his qilish, boshqalarga halal bermasdan yashash ham san’atdir. Demak, sog‘lom ma’naviyat – o‘zini yengmoq, o‘z istak – mayllarini boshqarmoq, jilovlamoq, xudbinlikni yenga bilmoq, makonda yashab makon manfaatlaridan, zamonda yashab zamoiiy tuslanishlardan yuqoriroq tura olmoqdir. Ma’naviy barkamol odam o‘z faoliyatiga begonalar ko‘zi bilan qaray oladi va xolisona baholay oladi.

Ta’lim bilan tarbiya uyg‘unligi ma’naviy barkamol shaxs kamolida asosiy vosita hisoblanadi. Buyuk ajdodimiz Forobiy ta’limni so‘z va o‘rgatish bilan

tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo'lishini uqtiradi. Amaliy fazilatlarni ikki yo'l bilan hosil qilishni tavsiya qilib, birinchi yo'l – "qanoat baxsh" so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida hosil qilinadi... Donishmand birinchi yo'l bilan uqtirib bo'lmaydigan, qaysar (shaharliklar) kishilarga nisbatan ikkinchi usulni qo'llashni tavsiya qiladi. Bunday fikr o'tmish donolarimizning hammasida ham u yoki bu tarzda mavjuddir. Gyugo: "Tarbiya – vijdon ishi, ta'lim esa fanning vazifasi. Keyinchalik, inson voyaga yetgach, bilimning bu ikki turi bir – birini to'ldiradi" – deydi. Allomalarning bunday fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkin, ta'lim ham, tarbiya ham ilmlar bo'lib ular bir – birini to'ldirib boradi.

Ta'limni nazariy fikrlar yordamida amalga oshirish mumkin bo'lsa, tarbiya ko'proq amaliy ishlar, namuna ko'rsatish, aytilganlarni bajarish orqali bo'lar ekan. J.J.Russo aytadi: "Bir soatlik ish bir kunlik tushuntiruvdan ko'proq narsa beradi, chunki men bolani ustaxonada mashg'ul qilar ekanman, uning qo'llari aqli uchun ishlaydi: u o'zini bor – yo'g'i hunarmand hisoblagan holda faylasufga aylanadi", - deydi.

B.Rollanning: "Gap iloji borcha ko'p bilim to'plashda emas, gap shundaki, bu bilim ko'pmi, yo ozmi, tanho seniki bo'lishi, u qoning bilan yo'g'rilishi, sening erkin va mustaqil harakatlaringning mevasi bo'lishi zarur", degan fikrlari aynan ma'naviy barkamol shaxs takomiliga qaratilgandir.

Ma'naviy barkamol shaxs tarbiyasida ona tili ta'limning o'rni beqiyosdir. Ona tili ta'limi yoshlarga dunyoni ko'rish, eshitish, idrok etish vositasidir. Bu albatta, shaxs kamolotida asosiy vosita.

Ma'naviy barkamol shaxs uzluksiz axloqiy tarbiya, insoniylik sifatlarini singdirish orqali, insoniyat yaratgan bilimlarni egallay borish orqali shakllana boradi, yuksaladi. O'zi egallagan bilimlar uning hayotida asqotsagina foydali bo'ladi.


Har qanday tafakkur, tushuncha so'z (ona tili materiali) orqali ifodalanadi. Xuddi shuningdek, har qanday so'z (yaxshi va yomon) bir og'izdan chiqadi. U yoki bu so'zga xoslangan ovoz (so'z) yo'q. Shunday ekan, dunyoni ko'rish, uning ekologik sof (toza) ligini his qildirish ham tilimiz orqalidir. Har bir til (xalq)ning

o'ziga xosligi, hamda umumiyliigi bor. Chunonchi, tovushga, harakatga, rang-tusga oid umumiy tushunchalar tilimizda xususiy tomonlari bilan namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tovuqning bolasi chiqaradigan tovushni "jip - jip" tarzida eshitadi, shuning uchun "jo'ja" deb ataladi, o'ris esa "sip - sip" deb eshitgani uchun "sıplyonok" deb ataydi. Yoki "chittak" degan qushni nomlashda o'zbek harakatini asos qilib (chittak) olgan bo'lsa, o'ris uning rangini dastlab ko'rib, uni asos qilib "sinisa" deb nomlagan. Ba'zi hollarda hamma tillar uchun ham obyektning bir xususiyati asos bo'lishi mumkin: o'zbek "ko'karchin" desa, tojik "kabutar", rus (golub) deb atashgan.

Bulardan shunday xulosaga kelamizki, har bir til o'zi xizmat qiladigan xalqning o'ziga xos tomonini, milliyligini, milliy tafakkur tarzini namoyon qiladi. Bu albatta, shaxs ma'naviyati kamolida harakatlantiruvchi faktor sanaladi.

O'quvchi shaxsining kamolida matn bilan ishlashning ahamiyati katta. O'quvchilarga tavsiya qilinadigan matn til va uslub jihatdan raso va mukammal bo'lmog'i zarur. Tanlangan matnda o'zbek tilining qiyossiz ohori, ohangi, jozibasi bolaning yuragini jizillatmasa ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Umuman ona tili ta'limida tirik, jonli, jozibali o'zbek tili o'rganilmog'i darkor.

O'quvchi ma'naviy kamolida ona tilining ahamiyati beqiyosdir. Chunki ona tili to'g'ri va ifodali nutqni shakllantirish bilan birga shaxsni rivojlantiruvchi hamdir. Bunda o'qituvchi diqqat markazida so'zlovchi va tinglovchi munosabati bo'lmog'i zarur. Chunki so'zlovchi mundarijan forma (shakl)ga borsa, tinglovchi shakldan mundarijaga boradi. So'zlovchi obyektiv borliq, odam ongi, til, ya'ni predmet, obraz, so'z mavjud. Tinglovchiga so'z, obraz, predmet tarzida boradi.



Bu formulada obyektiv olamni ko'rish va uni ifodalash markaziy o'rinda turibdi. Demak, til obyektiv borliqni ifodalaydi. Bu ifodalash yuqorida aytilganidek, jonli til vositasida bo'lmog'i kerak. O'zlashtirilgan qolip ham umrboqy bo'lmaydi, ham tushunilishi noqulay bo'ladi. Chunonchi, "*Ismi, otasining ismi*" o'rniga "*Ismi, sharifi*" deyish, "*To'pni raqibiga oldirishga muvaffaq bo'ldi*" deyish, "*samimiy*" tabriklash o'rniga "*chin qalbdan*" tabriklash (ruscha "*ot vsego sersa*"), "*Paxta zavodi*" o'rniga "*Paxta tozalash zavodi*" deyish, "*Sut zavodi*" o'rniga "*Sutni qayta ishlash zavodi*" deyish, "*Bay ochish*" o'rniga "*Pochin*" deyish, "*To'rt muchchasi*" o'rniga "*To'rt muchali*" deyish tilimizni siyoqallashtiradi, ohorini to'kadi, jozibasini susaytiradi. Bularning hammasi o'ziga qolip asosida paydo bo'lgan unsurlardir. Olmon olimi V.Gumboldtning so'zlariga qaragandi: "Sivilizasiya xalqning o'zidan chiqishi mumkin va shundagina u xalqning ruhiy, ma'naviy yuksakligini ko'rsata oladi. Lekin, sivilizasiya boshqa mamlakatdan majburiy olib kirilsa, u juda tez tarqalishi, jamiyatning barcha sohalariga kirib borishi mumkin, ammo, u xalqning ruhi va tabiatiga benihoya sekinlik bilan ta'sir qiladi".

Keltirilgan faktlar o'quvchi shaxsi kamolida, ma'naviy barkamol bo'lib yetishishida ijobiy rol o'ynaydi.

MAVZU: AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY DARS SHAKLLARI, ULARNING O'ZARO FARQI

REJA:

1. An'anaviy ta'limda qo'llaniladigan metodlar.
2. Noan'anaviy dasturlar.
3. An'anaviy va noan'anaviy davrlar qiyosi.

Adabiyotlar:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Toshkent. 1998. 1.04.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 1998. 1.04.
3. B.To'xliyev., M.Shamsiyeva., T.Ziyadova. o'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2006.
4. O.Roziqulov., M.Mahmudov., B.Adizov., A.Hamroyev. Ona tili didaktikasi. Toshkent. 2005.
5. Sh.Yusupova. O'qituvchi kitobi, "Hozirgi o'zbek adabiy tili", Akademik lisey o'qituvchilar uchun. Toshkent. 2003.
6. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsplari va metodlari. Toshkent, 1992.

Ona (o'zbek) tili ta'limi ijtimoiy faol shaxslarni shakllantirishda asosiy vositalardan biri bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. O'quvchi faoliyatida ona tili darslari beqiyos o'rinni egallaydi. Bu darsda o'quvchi mustaqil ishlash (faoliyat ko'rsatish) ko'nikmalarini egallaydi; o'quv qiyinchiliklarini bartaraf etishga o'rganadi, o'ziga ishonchli, qat'iyatli, sabotli, matonatli bo'la boradi. Bir so'z bilan aytganda ona tili darslari o'quvchini rivojlantiradi. To'g'ri o'quvchi rivojida, tafakkur taraqqiyotida boshqa fanlarning ham o'rnini bor. Ammo ona tili mashg'ulotlarini o'quvchi tafakkuri taraqqiyotida o'rnini beqiyosdir. Ona tili mashg'ulotlarining o'ziga xos tomonlari shundaki, mashg'ulotlarda biror til hodisasini o'rganish bilan birga o'sha tahlil va tavsif qilinayotgan til hodisasi bilan birga matnda ifodalangan mazmun ham o'quvchilarga ham tushuntira boriladi. Shuning uchun ham ona tili mashg'ulotlarida har qanday matn emas, balki

grammatik hodisalar bilan birga ijtimoiy talab taqozo qiladigan axloq–odob, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, ibrat–namunalari aks etgan; tinchlik, do‘stlik, mehr–oqibat g‘oyalari singdirilgan matnlar darsliklarga kiritilgan va ular tahlil qilinadi. Boshqacha qilib aytganda matnlar bolalarning zamon talablariga mos holda voyaga yetishida asosiy rol o‘ynaydi.

Ta’lim tizimi tarixining ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Bizning o‘lkamizda ta’limning oiladagi ta’lim – tarbiya faoliyati, yakkata’lim, guruhli ta’lim, ota onasi kasbini o‘rganish ta’limi, jamoatchilik ta’lim – tarbiyasi, ustoz–shogird ta’lim va tarbiyasi kabi turlari keng tarqalgan.

XVII asrda chex pedagogi va faylasufi Ya.A.Kamenskiy tomonidan jamoatchilikka, kiritilgan an’anaviy ta’lim nomi bilan mashhur bo‘lgan sinf–dars tizimi ta’limi juda keng tarqalgan. An’anaviy ta’limning hukmron metodi deduksiya metodidir. An’anaviy ta’limda qator yutuqlarga erishgan rus tili darslarining o‘ziga xos tomonlarini o‘rgangan metodist–olimlardan Yu.K.Babanskiy metodlarni uchta katta guruhga ajratadi: o‘quvchilarning o‘quv – biluv faoliyatini rag‘batlantirish metodlari; o‘quvchilarning o‘quv – biluv faoliyatini nazorat qilish metodlari. A.V.Tikuchev esa o‘qituvchining bayoni, suhbat, til materiallarini kuzatish va tahlil qilish, badiiy asar tilini tahlil qilish, grammatik tahlil, mashq, darslik va qo‘llanmalar ustida ishlash, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish kabi metodlarni ko‘rsatadi. O‘zbek metodist olimlari ona tili o‘qitishning o‘ituvchi bayoni, suhbat, til faktlarini analiz qilish, mashqlar, darslik va qo‘llanmalar bilan ishlash, texnik vositalaridan foydalanish, ekskursiya kabi metodlarni ko‘rsatishgan.

Tadqiqotchilar dars jarayonining ikkiyoqlama: o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham ishtirok etishini isobga olib ona tili o‘qitish metodlaridan o‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq metodlar va o‘quvchi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan metodlarga ajratishdir. Bu ayni paytda an’anaviy ta’lim metodlaridan o‘zgacha o‘qitish usullarini izlashdir.

An’anaviy ta’lim o‘quvchi dars jarayonining passiv tinglovchisi, obyekt hisoblanar edi. Darhaqiqat, o‘quvchilarga yetarli darajada, nazariy bilimlar berilar,

ammo u bilimlar amaliyotda deyarli qo'llanilmas (ishlatilmas)di. **An'anaviy ta'lim mazmunini ham dars jarayonida** o'qituvchining yakka hukmronligiga qaratiladi. Davrning o'tishi bilan ta'lim tizimiga munosabat, unga qo'yiladigan talablar ham o'zgara boradi. Natijada, o'qitish metodlarining o'quvchi faoliyatini ham qamrab olishi zarurligi namoyon bo'ldi. Metodlarning o'quvchi faoliyati bilan bog'liqligi o'quvchining dars jarayonida bevosita faoliyat ko'rsatishi demakdir. Bu, albatta, ta'lim mazmunini yangilash bilan bog'liq bo'lgan yangi–yangi muammolarni keltirib chiqardi. Dars jarayoniga nazar soladigan bo'lsak o'qish–o'qitish ishlari degan atama mexanik holda ko'p qo'llaniladi. Bu deganing darsning ikki tomonlama faoliyat ekanligini ko'rsatadi. Dars o'qish va o'qitishning o'zaro ta'siridan iborat. O'qituvchi o'quvchiga ta'sir qila olmas ekan u metod emas. Ayni paytda o'quvchi ham u yoki bu yo'sinda o'quvchiga ham ta'sir ko'rsatadi. Natijada, o'quvchining o'tilayotgan (o'tilayotgan) mavzuga o'qituvchi og'zaki bayon, hikoya (kirish hikoyasi, bayon shaklidagi hikoya, yakunlovchi hikoya), ma'ruza, suhbat (evristik, noevristik), ko'rgazmali metodlar (illyustrasiya, demonstrasiya metodlari, tabiiy ko'rgazmalar), muammoli izlanish tipidagi metodlar (muammoli hikoya, muammoli ma'ruza), mustaqil ishlash metodlari (darslikdagi qoidalar bilan ishlash, darslikdagi mashqlar bilan ishlash), didaktik o'yinlar, amaliy metodlar (mashq qilish) kabilar vositasida amalga oshiradi.

Og'zaki bayon metodlari: hikoya, tavsiya, suhbat, ma'ruzalarni o'z ichiga olib, ular o'quvchi xotirasiga mo'ljallab tashkil qilinadi. Ular, evristik suhbatdan boshqa metodlar, tashkil qilinish jihatidan bir ko'rinishga ega: o'qituvchi asosiy vazifani bajarib til hodisasini (mavzuni) tushuntiradi, o'quvchilar tinglaydi, dars jarayonining obyektiga passiv tinglovchiga aylanadi. Og'zaki bayon metodlaridan namunalar:

Hikoya. Ta'limning turli o'rinlarida qo'llanib bir necha ko'rinishga ega: kirish hikoyasi – o'quvchilarni o'rganishi kerak bo'lgan mavzuga tayyorlash maqsadida tashkil qilinib, yangi mavzu uchun zaruriy bilimlar esga tushuriladi; bayon shaklidagi hikoya – o'qituvchi o'quv materialini mazmunini to'liq aytib

beradi, uning asosiy ikkinchi darajali o‘rinlarini izohlaydi; yakunlovchi hikoya – dars oxirida o‘tkazilib, mavzuga yakun yasaydi.

Ma’ruza. O‘rta maktabning yuqori sinflarida, lisey, kollej, oliy o‘quv yurtlarida amalga oshiriladi. Ma’ruza jarayonida darslik materiallaridan, ko‘rgazmali vositalardan foydalanilgan holda o‘qituvchi o‘z nutqini rang – barangligini ta’minlashi zarur. Ko‘rgazmali vositalarga dalillarni tahlil qilish, darslikdagi ta’rif va qoidalarga munosabat bildirish orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish mumkin bo‘ladi. Ayrim izohtalab o‘rinlarni o‘quvchilarning o‘zlariga xulosa chiqarishni taklif qilish bilan dars samaradorligini oshirish mumkin.

Suhbat. Bu metod juda keng tarqalgan va natijali faoliyat metodlaridan sanalib, ko‘p hollarda effektli qo‘llaniladi. Uni dars jarayonining hamma bosqichlarida qo‘llash mumkin. Suhbat metodida suhbatdoshlar o‘rtasida suhbat qilish uchun mavzuning umumiy mundarijasidan habardorlik xissi bo‘lmog‘i zarur. Suhbatning ikki turini farqlaymiz: noevristik va evristik.

Noevristik suhbatlar o‘quvchilar xotirasida qayta esga tushirish faoliyatiga mo‘ljallab o‘tkaziladi. Ular:

- yakunlash suhbat – mashg‘ulotlarda umumiy va yakuniy xulosalar chiqariladi;

- mustahkamlash suhbat – yangi mavzu o‘tilgandan keyin uyushtiriladi;

- takrorlash suhbat – ikki yoki undan ortiq mavzu o‘tilgandan keyin uyushtiriladi;

- umumlashtiruvchi suhbat – katta bo‘limlar o‘tilgandan keyin uyushtiriladi;

- kirish suhbat – yangi mavzu izohidan oldin;

- nazorat suhbat – bilimlarni sinab ko‘rish maqsadida uyushtiriladi.

Ko‘rgazmali metodlar. Ko‘rgazmalilik didaktikaning asosiy prinsplaridan sanaladi. Bunda ko‘rish bilan tafakkur uyg‘unlashadi. Ko‘rgazmalilikning illyustrativ (rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarni izohlash), demonstartiv (kinoapparat, kinokamera, kompyuterlar), tabiiy ko‘rgazmalilik (narsalarning o‘zi, predmetlar, turli jonivorlarning muloyajlari–qotirilgan shakl)

kabi ko‘rinishlari mavjud. Ular yordamida ham o‘quvchilar tafakkuri taraqqiy qila boradi.

Bu sanalgan metodlarning hammasi ham yuqorida eslatilganidek, o‘quvchilar xotirasi, qayta esga tushirish faoliyatiga mo‘ljallanib, dars jarayonida o‘qituvchi aktiv faoliyat ko‘rsatadi va o‘quvchilarga passiv ishtirokchilarga aylanib qoladi.

II. Noan’anaviy darslar.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Hukumatimizning ta’lim tizimini rivojlantirish, takomillashtirish to‘g‘risidagi qator hujjatlari, DTSning qabul qilinishi amaldagi ta’lim tizimini isloh qilish imkoniyatini beradi.

Ta’lim tizimining isloh qilinishi:

“Ona tili tizimi oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya’ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan ibora” ligini vazifa qilib belgilaydi. Darhaqiqat, biz ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni maqsad qilib qo‘yamiz. Shuning uchun ham ona tili ta’limining bosh maqsadi: ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki hamda yozma shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim deb belgilandi. Bunday malaka va ko‘nikmalar berish uchun dars o‘tish yo‘llarini o‘zgartirish, yangi talab darajasidagi metodlar tanlash zaruriyati yuzaga keldi. Yuqorida keltirilgan maqsadni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar matn bilan birgalikda ishlashni taqozo qiladi. O‘qituvchi–o‘quvchi, o‘quvchi–o‘quvchi, o‘quvchi–o‘qituvchi kommunikasiyasi (aloqadorligi) amalga oshiriladi. Buning uchun savol–javob, suhbat (evristik suhbat), bahs–munozara, tortishuv asosida o‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon etadilar.

Dars o‘tish metod (shakl)larini an’anaviy va noan’anaviyga ajratamiz. Noan’anaviy dars metodlari dars o‘tishning yangi zamonaviy usullarini qo‘llash,

mavjud metodlarga zamonaviy dars o'tish elementlarini qo'shish yo'li bilan o'quvchilar faolligini oshirishdir.

Yangi va yangilangan dars o'tish metodlaridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

Evristik suhbat. Bunda o'zaro (o'qituvchi va o'quvchi orasidagi) ta'sir (o'qituvchining bergan savoliga) ta'sir javovi tarzida uyushtiriladi. Bu metod o'quvchi tafakkuri rivojiga mo'ljallangan bo'lib, bunday suhbat o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Evristik suhbatning o'ziga xos tomonlari mavjud. Buni "So'z birikmasi" mavzusi misolida quyidagicha tashkil qilish mumkin.

O'qituvchi tomonidan dars mavzusi, maqsadi e'lon qilinadi (o'quvchilarga so'z ma'nolari rang – barangligi, so'zlarning o'zaro birikuvida ma'no konkretlashuvi) so'zlarning o'zaro birikuvi natijasida murakkab ma'no anglatishi haqida ma'lumot berish.

O'qituvchi: Biz gaplarni kengaytirish vositasi bo'lgan hol, aniqlovchi, to'ldiruvchi haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Bugun "so'z birikmasi" mavzusini o'rganamiz. Agar men bergan savollarga diqqatni qaratib, to'g'ri javob bera olsangiz bu mavzuni mustaqil o'rganamiz.

O'qituvchi quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin: Bugun biz qanday mavzuni o'rganamiz? So'z birkmasining asosiy belglarini ayting? O'rtog'ingizning bergan savollariga javob yozing? Bir o'quvchi doskaga chiqib: "bugun biz "So'z birikmasi" mavzusini o'rganamiz", - deb yozadi. So'z ibrikmasining asosiy belgilari qayd qilinadi: yaxlit fikr ifodalamasligi, o'zaro tobe hokim munosabatda bo'lishi, tobe so'zining hokim so'zdan oldin kelishi.

O'quvchilarning mustaqil xulosa chiqarishlari uchun yana quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

- Mustaqil so'zlarning o'zaro munosabati qanday bo'lishi mumkin?
- Har qanday mustaqil so'zlar tobe hokim munosabatda bo'lishi mumkin?
- So'z birikmasi deb nimaga aytiladi?

Bu savollarga o'quvchilar o'z bilganlarcha javob qaytarishadi. Javoblar bir necha variantda bo'lishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini (xulosalarini) to'ldirib umumlashtiradi.

Mustaqil so'zlar o'zaro tobelanish asosida munosabatga kirishishi mumkin. Ammo hamma mustaqil so'zlar ham tobelanish asosida munosabatga kirishavermaydi. O'zaro tobelanish asosida munosabatga kirishgan so'zlar so'z birikmasi sanaladi. So'zlarning o'zaro tenglashish asosida birikishi so'zlar (tizmasi – A.G'ulomov) qo'shimchasi sanaladi.

Bu o'rinda o'quvchilar hokim–tobe munosabatini o'lashtiradilar. Bu holatni o'qish–o'qitishning turli o'rinlarida qo'llash mumkin bo'ladi: ega va kesim munosabatida, qo'shma gap komponentlari orasidagi munosabatda mustahkamlanib boradi.

Muammoli metodlar. Bunday metodlar tafakkuriga, ularning ijodiy faoliyatlariga yo'naltirilgan ta'lim metodlaridir.

Muammoli metodlar ham maktab tajribasida sof holda qo'llanmaydi. Muammolarni qo'yish va izohlash jarayonida suhbat, hikoya metodlaridan foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza paytida ham turli muammolar hal qilinishi, ko'rgazmali vositalar bilan ishlayotganda ham muammolarga murojaat qilinishi mumkin. Muammoli ta'lim metodlarini quyidagi turlari farqlanadi.

Muammoli hikoya – dars davomida hikoya metodidan foydalanib hikoya boshida yoki hikoya oxirida muammo qo'yish orqali o'quvchilar qiziqishini orttirish mumkin. Masalan, “nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishi” mavzusi yuzasidan shunday muammoli vaziyat hosil qilinib uni bajarishda o'quvchilarning faol ishtirokini tashkil qilish mumkin: Ularga

1. Nutq organlarining vazifasini ayting.
2. Har biringiz nutq tovushlari hosil qilib ko'ring.
3. Nutq tovushlari hosil qilishda qaysi nutq organlari aktiv ishtirok etadi?

Yoki o'qituvchi tahlil natijasida hosil bo'lgan tushunchalarga asoslanib mustaqil xulosa chiqarishni o'quvchilarning o'ziga havol etadi. Masalan, “Fe'llarning orttirma nisbati” mavzusi o'tilayotganda o'qituvchi avvalo, ish –

harakatning boshqa kishi ta'sirida bajarilishini bildirgan fe'llarga misollar topib ular ishtirokida gap tuzishni, orttirma nisbatdagi fe'llar ma'nosiga e'tibor berishni topshiradi. Shundan keyin muammoli savollarni o'rta tashlashi mumkin.

1. Qanday fe'llarni orttirma nisbatdagi fe'llar deb tushunasiz?

2. Kuzatishlaringiz asosan orttirma nisbatdagi fe'llarning qanday hosil bo'lganini aniqlang.

Bunga o'xshash vaziyatni sifat darajalariga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Muammoli ma'ruza. Bu metod ma'ruzadan oldin o'quvchilarni ma'ruzaga qiziqtirish maqsadida yoki ma'ruza oxirida o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish yo'li bilan ta'lim maqsadiga erishiladi.

Materialning qiyin o'rinlarda ma'ruza yo'li bilan nisbatan yengilroq qismi savollar yordamida muammo qo'yish yo'li bilan ham o'rgatilsa bo'ladi. Masalan, "So'z birikmasi" haqida ma'lumot berilayotganda, so'z birikmasining nutq birligi haqida tushuncha berilsa, muammoli vaziyat hosil qilish uchun qator muammolar qo'yiladi:

1. So'zning har qanday birikishini ham so'z birikmasi deb bo'ladimi?

2. Nima uchun "kuz keldi" tipidagi bog'lanishni so'z birikmasi deb bo'lmasligini isbotlang.

Yoki ma'ruzani boshlashdan oldin so'z birikmasi, so'zlar qo'shilmasi, qo'shma so'z, sodda yig'iq gapli birikuvlardan iborat bo'lgan matndan so'z birikmalarini ajratib olib daftarlariga yozish keyin bu birikuvlarning shaklan so'z birikmasi bo'lsa-da, so'z birikmasi sanalmaslik sabablari aniqlanib ma'ruza boshlansa, yuqorida qo'yilgan muammoning yechimi oydinlashadi hamda mavzular integrasiyasi hosil bo'ladi.

Mustaqil ishlash metodlari. Bu metodlar ta'limning hamma o'rinlarida qo'llanadi. Hozirgi kunda uning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Darslikdagi qoida va ta'riflar ustida mustaqil ishlash. Darslikdagi qoida va ta'riflarni o'qish, ularga oid dalillarni ajratish hamda tahlil qilish; qoida va ta'riflarni mantiqiy guruhlash, terminlarga izoh berish; ma'ruza, hikoya, suhbat paytida o'qituvchi chiqarilgan xulosalarni darslik va qo'llanmalarga solishtirish.

2. Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlash. Darslikda berilgan mashq va topshiriqlarni guruhlariga ajratib musobaqalashgan holda bajarish. Mustaqil ish o'quvchilarni mustaqillikka o'rgatadi. Bu ayni paytda kishining shaxsiy fazilati hisoblanadi.

Darhaqiqat o'quvchilarning tafakkur faoliyatini rivojlantiruvchi, mustaqil ishlashga o'rgatuvchi didaktik vositalardan biri – darslikdagi mashqlar hisoblanadi. Bizning qanday ta'lim berganimizning natijasi ana shunday amaliy ko'nikmalar orqali o'lchanadi. Mashq bajarish katta amaliy ahamiyatga ega, chunki bu jarayonda o'quvchilar topshiriqni bajarish uchun bilimlarini xotirada tiklaydilar, mustaqil fikr yuritib, ijodiy izlanadilar, o'qituvchi rahbarligida faoliyat ko'rsatadilar. Mashq bajarishning yana bir qulayligi mashq matniga bir tomondan, matn mazmuniga ham ijodiy yondashadilar, mustaqil fikrlab tarbiyaviy – didaktik tomoniga daqqatini qaratadilar.

Mustaqil ishlash metodikasidan foydalanishda qator qoidalarga amal qilish zarur: o'quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash; mustaqil ishni yaxshilab tushuntirish; mustaqil ishlash jarayonida o'quvchilar bilan individual munosabatda bo'lish; mustaqil ish uchun yetarli vaqt ajratish; eng asosiysi mustaqil ish natijasini tekshirish.

Didaktik o'yinlar. Keyingi yillarda ilg'or tajribali o'qituvchilar ta'lim o'yinlardan ham ta'lim metodlari sifatida foydalanishmoqda. Bu o'yinlarning samaradorligi shundaki, didaktik o'yinlar vositasida ta'lim – tarbiya ishlari hayotga yaqinlashadi hamda o'quvchilar egallagan bilimlarda og'zaki bayon, ko'rgazmalilik, amaliy metodlar elementlari qo'llanadi.

Dars jarayonida ham metodik, ham ma'naviy boyitib borish shu kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. O'qituvchi – ijodkor, u qaysi dars o'tish metodini tanlamasin unga ijodiy yondashish orqali samarali natijalarni tanlay oladi.

III. An'anaviy va noan'anaviy darslar qaysi.

Shukunga kelib ta'lim tizimini ikki qismga ajratamiz. An'anaviy ta'lim hamda yangilangan ta'lim. Ta'lim tizimi juda boy tarixiy ildizga ega. Davr o'tishi bilan

jamiyat taraqqiyoti natijasida ta'lim tizimida ham tup o'zlarishlar sodir bo'lmoqda: ta'lim metodlaridan foydalanishning yangi – yangi usullari yuzaga keldi. Bu usullarsiz ta'limda yutuqlarga erishish mumkin emas. Hozirgi zamon bolasi texnika taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan xabardor. Ularga an'anaviy usul – deduksiya metodi asosida dars o'tish – bilim berish kutilgan (ko'zlangan) natijani bermay qo'ydi. DTS sharhida aytilganidek “standart ta'lim mazmunining ijtimoiy talab taqozo qilgan majburiy hajmini” belgilab berar ekan o'quvchi talab – ehtiyojini qondiradigan bilimlarni berish, ularni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdek vazifani bajarish zaruriyati tug'iladi.

Dars ikki tomonlama jarayon – o'qituvchi va o'quvchi munosabatining oliy darajasi. Har bir dars prosessida o'qituvchi o'quvchiga u yoki bu yo'sinda ta'sir qiladi. Ayni paytda o'quvchi ham o'qituvchi faoliyatining umumiy yo'nalishiga ta'sir qiladi. Aks holda dars bir tomonlama sa'y – harakat tusini oladi: o'quvchi dars jarayonining passiv ishtirokchisiga aylanadi. Hatto bir mavzu uchun metod tanlashda ham o'quvchilar – sinfning umumiy holati katta rol o'ynaydi. Hozirgi davr nuqtai nazaridan yondashilsa, o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olishimiz va shunga mos holda ularga yondashishimiz zarur bo'ladi. Bu ham ko'rsatadiki, zamonaviy metodlar asosida dars o'tish an'anaviy metodlarda dars o'tishga nisbatan har tomonlama ustundir.

Masalan, eng qadimgi ayni paytda eng ko'p qo'llanadigan metodlardan biri suhbat metodi sanaladi. Uning mustahkamlash, takrorlash kabi turlariga diqqatni qaratadigan bo'lsak, bu suhbatlarning hych biri o'quvchining ijodkorligiga (ijodiy faolligiga qaratilgan emas, balki ularning xotirasi, esga tushurish, eslay olish qobiliyatiga asoslangandir. Masalaga davr talabi nuqtai nazaridan yondashilsa, ta'lim mazmunining tarkibiy qismlaridan biri ham o'quvchini ijodiy faoliyat usuliga o'rgatishdir. O'z davrida B.Rollanning: “Gap iloji borcha ko'p bilim to'plashda emas, gap shundaki, bu bilim ko'pmi, yo ozmi, tanho seniki bo'lishi, u qoning bilan yo'g'rilishi, sening erkin va mustaqil harakatlaringning mevasi bo'lishi zarur”, degan gaplari o'quvchini ijodiy faoliyat usuliga o'rgatish bilan hamohangga o'xshaydi.

O'quvchilarga beriladigan savollar, qo'yiladigan muammolar ularning hayotiga, turmush tarziga yaqin bo'lmog'i zarur. Masalan, suvning umumiy belgilarini so'rash mumkin: qirg'oqqa egaligiga, qirg'oqdan pastligi, to'lchinlanish xususiyatiga egaligini o'quvchilar osongina topa olmadilar, o'ylashga, fikrlashga majbur bo'ladi. Bu o'rinda o'quvchi xotirasidagina tiklaydilar, esga tushurmaydi, balki mustaqil fikrlaydi. Mustaqil fikrlash, mustaqillik turmush tarzini kulminasiyasidir. Yangilangan ta'lim mazmuni ham egallangan bilimlarni amaliyotga mustaqil tadbiq qilishni talab qiladi. To'g'ri, o'quvchiga bilim ham kerak, ammo mustaqil fikrlab, istaklarini, mo'ljaldagi rejalarini mustaqil bayon etishga ne yetsin.

**MAVZU: AN'ANAVIY DARSLARNI ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYA ASOSIDA UYUShTIRISH**

REJA:

1. An'anaviy darslarning o'ziga xos tomonlari.
2. Grammatikaga oid darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
3. Nutq o'stirish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Adabiyotlar

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. "Ma'rifat" gazetasi. 1998. 1.04.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". "Ma'rifat" gazetasi, 1998. 1.04
3. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilar tafakkurini oshirishning nazariy asoslari. Toshkent. 1989.
4. A.G'ulomov va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. TOshkent 1975.
5. "Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". Seminar trening materiallari. Toshkent 2002.
6. J.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T.2004.
7. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T.2006.
8. Sh.Yusupova. O'qituvchi kitobi. Akademik lisey o'qituvchilari uchun. T.2003.
9. A.G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsplari va metodlari. T.1992.
10. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 1-maxsus son. T.1999.
11. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2001. 1-son.
12. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2002. 4-son.
13. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 2003. 4-son.

Har qanday fan, xususan, ona tili o'qitishning uzoq tarixi mavjud. Qadimiy shakllangan o'qitish usullari ijtimoiy talab taqozosi bilan o'zgarib, takomillashib boradi. XVII asrda an'anaviy ta'lim nomini olgan dars-sinf tizimi hozirgi kunga kelib davr talabiga javob berolmay qoldi. Natijada, ta'lim tizimida va o'qish-o'qitish ishlarida keskin o'zgarishlar yuz bera boshladi.

Darhaqiqat ta'lim jarayonini isloh qilish masalasi qisqa muddat ichida sodir bo'ladigan masala emas, u yillar davomida kelingan xulosa va o'zgarishlardir.

An'anaviy ta'lim tizimining davr talablariga javob bera olmaydigan jihati shundaki, unda yetakchi metod deduksiya bo'lib o'quvchi dars jarayonining passiv tinglovchisiga aylanganligidir. Bu metodning asosini o'qituvchi bayoni, bilimlarni tayyor holda taqdim qilish kabilar sanaladi. Ularda o'quvchining xotirasi, xotirlashi, eslab qolish qobiliyati asos qilib olinadi. O'quvchilardagi bunday salohiyat, albatta, bir xil bo'lmaydi. Shunday bo'lar ekan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ham shunga mos bo'lishi tabiiy holdir. Bunday negativ holatni bartaraf qilish uchun ilg'or tajribali o'qituvchilar darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay boshladilar. Chunonchi nutq madaniyatiga e'tiborni kuchaytirish; o'qituvchi nutqining mantiqiy talab darajasida bo'lishi, sodda, mazmunli, ifodali, izchil bo'lishi o'quvchilarning materialga qiziqishini orttiradi va o'zlashtirishini osonlashtiradi. Bilimlarni asoslash, ishontirish o'rganilayotgan materialga katta qiziqish uyg'otadi, o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanadi; materialni qat'iy reja asosida bayon qilish ham tinglash va o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Maktab ona tili o'qituvchisiga qo'yiladigan bunday talablar o'quvchilarni darsga qiziqtirish, faolligini oshirishdir. Natijada garchand sekinlik bilan bo'lsa ham o'qituvchi dars jarayonida o'z o'quvchilarini mavzu ichiga kiritib, xulosalarni o'quvchilar vositasida chiqarishga odatlantirishdir.

2. Grammatikaga oid darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Zamonaviy pedagogik texnologiya kishining sezgilariga ta'sir qilib, go'zal his tuyg'ularini taqozo qiladi. Buni dars jarayoniga tadbiq qilish dolzarb vazifalardan biri. Ta'lim-tarbiya katta avlod tomonidan yaratilib, o'z bilim va tajribalarini

kichik, o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdir. Bu jarayonda inson uchun zarur bo'lgan axborotlar avloddan-avlodga yetkazish orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan bizning har bir harakatimiz axborot olish, uni uzatish, undan foydalanish, o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va uni boyitishdan iborat. Buning uchun olingan axborotlarni o'zaro aloqadorlikda ko'rib ular orqali yangilarini yaratish zarur. Masalan, o'quvchilarga bosh bo'laklar- ega va kesim haqida axborot berilganda ularning boshqa bo'laklar bilan kengayishi haqida axborot yaratiladi. Bu o'rinda gapda bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar bo'ladi, ishtirok etadigan deyish o'rniga, bosh bo'lak deb nima uchun aytilishi, agar bosh bo'lak bo'ladigan bo'lsa, boshqa bo'lak ham mavjudmi kabi axborotlar haqida fikr yuritish zaruriyati tug'iladi va o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi uchun asos bo'ladi.

O'quvchi tafakkuri taraqqiyotida noan'anaviy ko'rgazmali vositalarning ham ahamiyati katta. Ular vositasida dars mavzusi materiallari o'zaro qiyos qilingan holda analiz qilinadi hamda sintezlanadi. Bu o'quvchini dars materiallarini fikr qilishgagina o'rgatib qolmasdan, hayot zarurati to'g'risida ham fikrlashga o'rgatadi. Masalan, grammatikaga oid darslarda shunday ko'rgazmali vosita tayyorlanishi yoki o'quvchilarga tayyorlatish mumkin. Bu topshiriqning nomini "Rasm diktant" deyiladi. Sinf doskasiga quyidagi so'zlar yozilgan plakat osib qo'yiladi:

1. Kuchli shamol
2. Yuk mashinasi
3. Kasal (bemor) odam
4. Tug'ilgan kun
5. Jahldor muallim
6. Eski botinka
7. Donishmand chol
8. Yomg'irli kun

Bu mavzular uchun alohida-alohida rasmlar chiziladi. Mana shu chizilgan rasm asosida matn yaratiladi. Yaratilgan matn o'tilayotgan mavzuga bag'ishlanadi. Chunonchi, "Kuchli shamol" mavzusi yuzasidan quyidagicha matn tuzilgan

bo'lsa... "Kecha kuchli shamol turdi. Turli has-xashaklarni, ko'chadagi narsalarni, axlatxonadagi tashlandiq polietilin sumkalarni, bo'sh bakalashkalarni uchirardi. Daraxtlarning shoxchalarini sindirar, xatto uylarning tomplarini ham larzaga keltirardi. Tabiatni kuchiga hamma iqror bo'ldi". Bu matn orqali gapning uyushiq bo'laklari tahlil qilinadi. Ayrim paytda tozalik haqida, shahar, (qishloq)ning ozodaligi haqida, shahar (qishloq)ning obodonligi uchun mutassadilar haqida o'quvchilarni fikr-mulohazalari so'raladi. Yuritilgan fikrlarga amal qilish kerakligi uqtirila boriladi. Bu mashg'ulot (yuqoridagi mavzular) har bir mavzu uchun alohida-alohida bajartiriladi va tahlil qilinadi. Bunday topshiriqlar individual holatda yoki guruh bilan birgalikda bajarilishi mumkin. Bu topshiriq qaysi grammatik kategoriya o'tilayotgan bo'lsa, shunga bag'ishlanishi mumkin.

"Leksikologiya" bo'limi o'tilayotganda quyidagi topshiriqni bajarish yaxshi natija berishi mumkin. "Bir so'zdan o'n so'z yasang". O'tinchimiz:

1. O' –undov so'z
2. O't –o't qopchasi, organizm, fe'l, maysa, olov;
3. O'ti –egalik affiksining qo'shilishi so'z ma'nosini konkretlashtirib, qarashlikni anglatmoqda.
4. O'tin –narsa nomi
5. O'tinch –shaxs nomiga bog'liq, iltijo, uzr, qattiq iltimos
6. O'tinchi –o'tin tayyorlaydigan odam; uning shaxsiy uzri, iltimosi.
7. O'tinchim –mening iltimosim, mening yalinishim.
8. O'tinchim –menga o'tin tayyorlovchi yoki o'tin olib kelib beruvchi shaxs.
9. O'tinchimi –o'tin tayyorlovchiga ishora, so'roq.
10. O'tinchimiz -1. biz hammamiz o'tinchi. 2. Bizning o'tinchimiz, faqat bizga o'tin tayyorlovchi yoki keltiruvchi. 3. Iltimosimiz, oltinchi javob (izoh)dagi ma'nolik egalik kategoriyasidagi holati.

Bu topshiriqni bajarishda ham ajratilgan qimslarning ma'nosi (lug'aviy ma'nosi)ga hamda grammatik ko'rsatkichlariga diqqat qaratilib, tahlil qilinadi. Bunda tilshunoslik bo'limlari integrasiyasi yuzaga keladi, o'quvchi tafakkuri taraqqiy qilib, nutqi ravonlashadi.

Grammatikaga oid mashg'ulotlarda dars qoida, ta'rif bilan boshlanmasdan berilgan so'z, gaplar tahlili bilan boshlanib, bosqichma-bosqich bir faoliyat usulidan ikkinchi faoliyat usuliga, chunki, kuzatishdan gruppalashga, takrorlashdan o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashga kabi amallar bajarilmog'i kerak. Shunda ham yakunlovchi xulosalar chiqariladi, til hodisalarini mohiyatini anglash osonlashadi. Taxminan shunday topshiriqlar bajarilishi mumkin.

1- topshiriq. a) Kesimdan so'roq berib egani tiklang. Keldi, kurashdi, dono edi. Akbar keldi. Ayubjon kurashdi. Abdulla bobo dono edi.

b) Hosil bo'lgan sodda yig'iq gaplarni kesimdan so'roq berish orqali kengaytiring. Akbar kecha keldi. Ayubjon bolalar bilan kurashdi. Qishlog'imizda Abdulla bobo dono edi.

2 –topshiriq. Berilgan mustaqil so'zlarni ot, fe'l, sifat, son, ravish va olmosh kabi uyalarga ajrating hamda uyalarni mustaqil davom ettiring; bola, do'stona, go'zal, besh, u, amma, tiriklayin, yorug', sakkiztacha, menga, ishladi, sezgi, oq, do'stona, u yerda, kurashdi.

3-topshiriq. Olma, ko'kat, yilqi, qo'y kabi umumiy ma'noli so'zlarning xususiy ma'nolari uyadoshlarini toping.

Yilqi: ot, ayg'ir, biya, baytal, saman, qorabayir, to'ruq, yo'rg'a, dunan, toy, qulun...

Ko'katlar –shavel, kashnich, ukrop, petrushka...

Qo'y –sovluq, panji, chori, to'soq (do'soq), qo'chqor, dagar, pichma, to'qli, qo'zi.

Olma-oq olma, besh yulduz, zalatoy grim, razmarin.

Undoshlarni ishtirok ettirib gaplar tuzing, tuzilgan gaplardagi uyadoshlarning ma'no noziklilarini farqlang.

4-topshiriq. Hayvon nomlarini o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llab, gap juftlarini hosil qiling. Namuna: Cho'pon vo'ylarini suvga tushirdi. Bu qishloqning odamlari qo'yday yuvosh ekan.

5-topshiriq. Adashgan harflarni joyiga qo'ying hamda tovush almashinishidayuz beradigan ma'no o'zgarishlarni tushuntiring. It yashaydi okeanda sharpa turar taxmonda. Chapni kam ko'zlar, qishni ko'p so'zla.

Bu tavsiya qilingan topshiriqlar namunalari faqat grammatikaga oid darslarga taalluqli bo'lmasdan, ulardan fonetikaga oid, leksikologiyaga oid darslarda ham foydalanish mumkin. Agarda topshiriqlar sinf o'quvchilarining umumiy tayyorgarligi, salohiyati hisobga olingan holda qo'llanilsa ko'zlangan natijaga erishiladi. Bunday namunalar yordamida o'qituvchi tomonidan dars o'tishning na yangi ko'rinishlari amalga oshirilishi zarur.

3. Nutq o'stirish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

An'anaviy ta'limda amal qilinayotgan darslik va metodik qo'llanmalar o'quvchilarga asosan tilshunoslik nazariyasidan bilim berishga mo'ljallangan. Ular o'quvchilar nutqiy ko'nikmasini hosil qilish, o'z fikrini matn tarzida bayon qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga mo'ljallangan edi.

Ona tili ta'limining eng muhim masalalaridan biri o'quvchilar nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shuning uchun ham ona tili o'qitishning bosh maqsadi qilib o'quvchilarni ijodiylikka, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos holda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon, aniq, mantiqli ifodalay olish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilmog'i kerak edi. Buning uchun nutqiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashqlar tizimini tanlash zarur. Bunda oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, osondan qiyinga yo'naltirish kabi umumdidaktik tamoyillar bilan birga yangi pedagogik texnologiyalarga amal qilish ham kerak bo'ladi. Bu talablarning pirovard natijasi o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatish va ijodiy topshiriqli mashqlarni bajarish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Ijodiy faoliyat, fikrini bayon etish va tafakkur qilish nutq orqali amalga oshiriladi, namoyon bo'ladi. O'quvchi tafakkuri rivoji uning fikr bayon qilish mahoratiga juda katta ta'sir qiladi. Maktab ona tili darslaridagi asosiy ish fikrini

bayon qilish mashqlarini bajarishga, ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilmog'i kerak.

Mashqlar tizimi aslida topshiriqlar tizimidir. Bu tizim o'quvchining har qanday nutqiy hodisaning nutq jarayonidagi holatini kuzatishdan boshlab, to uni ijodiy ravishda qo'llashgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Bu jarayon muvaffaqiyatli bajarilsa, tavsiya qilingan topshiriqlar ijobiy hisoblanadi.

Hozirgi kunda bu jarayonni tahlil qiladigan bo'lsak, o'quvchilar faoliyatining natijalarini qoniqarli deb bo'lmaydi. Ularning nutqida so'zlarning takroriy qo'llanishi, berilgan so'zlarni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'nolari bilan almashtira olmaslik hollari ko'p. Bu albatta o'quvchilar so'z boyligining yetarli emasligidan hamdir. DTS takomillashgan tahririda o'quvchilar nutqini o'stirishni asosiy masala sifatida ta'kidlangan va "... o'quvchilar so'z boyligini oshirish; adabiy til me'yorlarini o'rgatish, adabiy talaffuz me'yorlari, shuningdek, lug'aviy sinonimlar, qo'shimchalar sinonimikasi, grammatik sinonimikasi bilan tanishtirish; o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma bog'lanishli bayon qilish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish" belgilangan.

Bu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun ona tili darslarini qiziqarli o'tkazish, o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Shu maqsadda darslarni yanada qiziqarli o'tkazish uchun turli didaktik o'yinlar tashkil qilish mumkin. Masalan, 5-sinfda (boshqa sinflarda ham) o'quvchilarning ijodiy fikrlari uchun "Diqqat" o'yin –topshirig'ini o'tkazish mumkin. Bu o'yin 1-2 minut davom etadi. O'yinda o'quvchilarga "Diqqat" deb buyruq beriladi. O'quvchilar partaga qo'llarini qo'ygan holda ko'zlarini yumib oladilar. Tashqaridan eshitilgan tovushlarni, sinfdagi, maktab binosidagi eshitgan harakatlarni izohlaydilar. Masalan, "Bahor. Tashqarida esayotgan yoqimli shabada chaman bo'lib ochilgan o'rik gullarini yoqimli yengil mashinaning shiddatli tormoz ovozi eshitildi. Yaqindan sigirning cho'zilib mo'ragan ovozi eshitilmoqda. Hovlida allaqanday bolalar yugurib yubordi..." va hokazo. Mukammal va xatosiz hikoya tuzgan o'quvchi g'olib sanaladi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida "Zanjir" o'yin-topshirig'ini o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchining qo'liga kubik beriladi. U qandaydir atoqli otni aytishi kerak. Atoqli otni aytib kubikni boshqa o'quvchiga uzatadi. Kubikni olgan o'quvchi aytilgan atoqli otning hozirgi harfi bilan boshlanadigan boshqa atoqli ot aytishi kerak. Shartni bajara olmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib sanaladi. Yoki "So'zlar bizdan, matn tuzish sizdan" o'yinidan o'qituvchi sinf o'quvchilariga tayanch so'zlar beradi. O'quvchilar shu so'zlar asosida (ishtirokida) matn tuzishadi. Tez va mazmunli matn tuzgan o'quvchi (o'quvchilar) g'olib sanaladi.

O'quvchilar nutqining ravonligi ularning erkin harakatiga, mustaqil topshiriq bajarish uchun erkin sharoit yaratib berishga ham bog'liq. Chunki erkin harakatda o'z kuch va imkoniyatlariga ishonch tuyg'usi ham shakllana boradi. Ma'lum mavzular, bo'limlar o'tilgandan keyin o'quvchilar bilimlarini tekshirib ko'rish va mustahkamlash maqsadida "Bu bizniki" o'yin-topshirig'ini uyushtirish ham yaxshi natija beradi. "Leksikologiya" bo'limi o'tilgandan keyin paronimlar, sinonimlar, antonimlar bo'yicha "bu bizning" o'yinini shunday tashkil qilish mumkin. Sinf doskasiga yuqoridagi til hodisalariga aralashtirib bir nechta so'zlar yoziladi. Sinf o'quvchilari uch gruppaga bo'linib har bir gruppacha o'zining so'zlarini yozib oladilar va izohlaydilar. Bu o'yin-topshiriqni "Morfemika" bo'limi o'tilgandan so'ng ham o'tkazish mumkin. Sinf uch gruppaga –so'z yasovchilar, shakl (lug'aviy shakl) yasovchilar, so'z o'zgartiruvchilar (sintaktik aloqa-munosabat qo'shimchalari)ga ajratiladi. Doskaga 30-40tacha qo'shimchalar yoziladi. Gruppalar shu qo'shimchalar ichidan o'zlarinikini ajratib yozishadi. To'g'ri va tez bajargan gruppaga rag'batlantiriladi. Bunday bahs-munozara ham o'quvchi nutqiy faoliyati rivojida katta ahamiyat kasb etadi.

Ona tili ta'limi jarayonida bunday topshiriqlar tizimi orqali til hodisalari kuzatiladi, solishtiriladi, taqqoslanadi, o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi. Bunday tahlil orqali muayyan belgilariga, umumiy xususiyatlariga qarab guruhlanadi, umumlashtiriladi. O'quvchilar nutqining ravonligi bevosita tafakkuri rivoji bilan bog'liq bo'ladi. Berilgan topshiriqlar qayta xotirlash, ijodiy fikrlash

xarakterida bo'ladigan bo'lsa, ular albatta o'quvchi tafakkuri rivojiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'quvchilarning topshiriq bajarishi ikki usul bilan amalga oshadi: deduktiv va induktiv. Deduktiv usul yuqorida eslatilganidek: o'quvchi qoidadan mashqqa qarab boradi. Induktiv usulda esa, o'quvchi misol, tajribalardan qoida, umumlashmaga qarab boradi, ya'ni misollar topib, ularni solishtirib, gruppalar xulosaga keladi. Bilimni mehnat bilan izlab topadi. Bu metod hodisalarning mohiyatini ochib beradi.

Yuqoridagi topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar bir-biri bilan bahslashadi, musobaqalashadi, natijada, fikrlash, fikr mahsulini to'g'ri ifodalab olish malakalarini egallay boradi.

MAVZU: NOANANAVIY DARS SHAKILLARI

Reja:

1. Noananauiy darslar haqida.
2. Noananauiy dars turlari haqida.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta talim davlat talim standarti, T., 1999 y.
2. M.Abduraimova. Ona tili talimida yangi pedagogik texnologiya. T., 2001 y.
3. Pedagogik izlanish. Tuzuvchi: I.N. Bajanova. 1990 y.
4. Yu. K. Babanskiy. Hozirgi zamon umumtalim maktabida o'qitish metodlari. T., 1990 y.
5. «Til va adabiyot talimi » jurnali, 2003 yil №4.

«Talim tug'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda Xukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator qarorlar (1998 yilgi №5 va №203-qarorlar) asosida davlat talim standartlari ishlab chiqildi. DTS ning yaratilishi talim tizimini isloh qilish imkoniyatini yaratdi. Natijada ananadagi «grammatika - grammatika uchun» qolipidan voz kechib, ona tili talimining amaliy yo'nilishini yangilash muammosi qo'yildi. Natijada ona tili talimi shartli ravishda ikkiga – ananauiy va yangilangan talimga ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2009 yillarda maktab talimini rivojlantirish umummilliy dasturi tug'risida»gi Farmoni talim tizimini, xususan, ona tili talimini to'liq isloq qildi. Mavjud dastur, darslik, DTS ning takomillashtirilgan variantlari elon qilindi.

An'anaviy talimda, yuqorida takidlanganidek, «grammatika–grammatika uchun» qolipi talim metodlaridan deduksiyani taqoza qilar edi. Bunday metod va dars o'tish usullari davr talabiga javob bermay qo'ydi. Bizning maktablarimizni tugatayotgan yoshlar, xususan, ona tilidan ertaga, kelajakda as qotadigan bilim ola – olmayotganini har jabhada seza boshladik.

Bu jarayon bir yillik yoki qisqa muddatli bulmay, yillar davomida shakllandi. Bu kamchilikni bartaraf qilish vazifasi davr talabiga aylandi. Ilg'or, tajribali, jonkuyar, fidoyi pedagoglar tomonidan izchillik bilan amalga oshirilayotgan mehnat natijasi o'laroq mavjud talim tizimidan keskin farq qiladigan yangilangan talim mazmuni-noanaviy talim yuzaga keldi.

Ma'lumki o'zoq yillar davomida ona tili talimiga yetarli darajada etibor berilmay kelindi. Butun diqqat–etibor ijtimoiy fanlarga qaratildi. Shaxsni g'oyaviy jixatdan chiniqtirish bosh masala deb qaraldi. Lekin har qanday g'oyaviy chiniqish, millat, xalk tarixini bilish til orqali, uning amaldagi ifodasi nutq orqali yuzaga kelishi etibordan chetda qoldi. Natijada ijtimoiy talablarga javob bera olmaydigan, egallangan nazariy bilimlarini amalda qo'llay olmaydigan yoshlarni yetishtira boshladik. Bu kamchilikni bartaraf qilishning yagona yo'li talim mazmunini, talim berish yo'llarini yangilashga zaruriyatni ijobiy hal qilish edi.

O'quvchilarni (yoshlarni) fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikrlar maxsulini og'zaki va yozma ravishda bayon qilishga o'rgatish zamon talabiga aylandi. Bu talab ananaviy talim metodlaridan voz kechib, uning o'rniga zamonaviy metodlarni qo'llash orqaligina qondirilishi mumkun edi. Shuning uchun ham ananaviy talimda hukumron bo'lgan deduksiya metodi o'rniga induksiya metodi qo'llanila boshlandi. O'qituvchi bilan o'quvchi munosabati nima? U qanday bo'ladi?

Har bir pedagog o'quvchilarga qilgan murojatidan tegishli javob olmog'i kerak. Aks holda zaruriy natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday aloqa o'rnatishdan oldin o'quvchilarning umumiy tayyorgarligini o'rganish zarur, yani o'qituvchi bergan savolga o'quvchilar javob bera olishi, erkin muloqotga kirishmog'i darkor. Yoki o'quvchilarning bilim saviyasiga qarab soddadan murakkabga tomon savol bera boriladi. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida erkin muloqot – suhbat, aloqa o'rnatiladiki, bu o'quvchining faolligini, o'zgalar fikrini anglashni, egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini og'zaki va yozma holda bayon qila olishini taminlaydi.

Bu talablarni amalga oshirish uchun noanaviy metodlar qo‘l keladi. Bu borada maktablarimizda fidoyi o‘qituvchilarimiz tomonidan qator metodlar qo‘llanilmoqda. Chunonchi, vaqt sinovidan o‘tgan pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq qilish darsni bir necha modeli bosqichlarga bo‘lishni talab qiladi: *chaqiriq, aqliy hujum, anglash, fikrlash* kabi.

Chaqirik bosqichida o‘quvchilarni faollashtirish, mavzuning mohiyatiga kirib borish, uni his etish jarayoniga tayyorlash kabi maksadlar ko‘zda tutiladi.

Darsning keyingi jarayoni **aqliy xujum** tarzida olib borilib, uni darsning istalgan joyida qo‘llash mumkun. Masalan, o‘qituvchi biror muammoni yoki so‘zni doskaga yozib uning talqini so‘raladi.

Darsning **anglash** bosqichida esa aqliy xujumdagi baxs – munozara vositasida yuzaga kelgan xulosaviy fikrlar eshitilib zaruriyat bo‘lsa o‘qituvchi tomonidan to‘ldirilib, savol–javob vositasida mustahkamlanadi.

Fikrlash bosqichida o‘quvchilarga mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan bilim va tushunchalari qisqa jummalarda yozma ravishda bayon qilinadi.

Hozirgi talimning bosh maqsadlaridan biri o‘quvchilar nutqini o‘stirishdir. Bu vazifani amalga oshirish maqsadida quyidagi noanaviy ish usullaridan foydalanish mumkun:

1. Berilgan matinni o‘qish va mazmunini so‘zlab berish. Bunda o‘qish tezligiga etibor beriladi.
2. Berilgan gapni mazmunini davom ettirib, matn hosil qilish: Parkda sayr qilar edim...
3. Berilgan maqol yoki hikmatli so‘zlarni sharxlash, izohlash.
4. Berilgan matn asosida munozara qilish.
5. Nazmiy asarlar mazmunini so‘zlab berish.

Yoki ko‘p manoli so‘zlarninig mano nozikliklarini farqlab misollar toptirish: Bulbul sayradi. Karomatjon rosa sayradi. Ko‘p manoli so‘zlarning mano nozikliklarini farqlashda munozarali darslarning ahamiyati katta. Bunday dars bir necha bosqichda olib boriladi: kitob leksimasi misolida ko‘rib chiqaylik.

Birinchi bosqich: kitob soʻzini predmet sifatida kishi ongida qanday tushuncha anglatishini aniqlash. Kitob tavsiflanadi: mukovalanganligi, varaqlardan iboratligi, bosma holda ekanligi.

Ikkinchi bosqich: qoʻlyozma holda ham kitobning mavjudligi yuzasidan savollar beriladi.

Uchinchi bosqich: kitob jurnal bilan muxokama qilinadi.

Toʻrtinchi bosqich: bir jiltda ikkita kitobning joylashishi hakida malumotga ega boʻlishadi.

Beshinchi bosqich: kitobga aloqador ayrim soʻzlar doskaga yoziladi: yozuvchi, birinchi, qiziq, badiiy, «Mashal» romani. Oʻquvchilar shu soʻzlar ishtirokida gap toʻzishadi va har bir birikuvda kitob soʻzining mano qirralarining ochilishini anglab oladilar.

Noanaviy darslarning yana biri dars jarayonida talimiy oʻyinlardan foydalanishdir. Masalan, **«Bittami yoki koʻpmi?»** oʻyini. Bir manoli va koʻp manoli soʻzlardan iborat qator soʻzlar oʻqiladi. Ancha, arafa, asr, ariza, asqar, abadiyot, ball, ballada, baraka, abajur, abjir, bara, zoʻr, kechki, koʻk, koʻz, majburan, quloq, soqa, nizo, soya, tag, payshanba, tirnoq, oʻzoq. Oʻquvchilar bu soʻzlarni ikkiga – bir manoli va koʻp manoliga ajratib yozishadi. Tugʻri va tez bajargan oʻquvchilar gʻolib sanaladi.

«Yaxshilar va yomonlar» oʻyini.

Yaxshi odamlar

Chumoliday mexnatkash,
Koʻyday yuvosh,
Sherday qoʻrqmas,
Musichaday beozor,
Bulbulday xushovoz,
Kiyikday chaqqon,

Yomon odamlar:

Tulkiday ayyor,
quyonday qoʻrqoq,
boʻriday ochkoʻz,
ilonday zaxarli,
qaqunoqday kakillagan,
toʻngʻizday qoʻpol.

Bu o'yinda o'quvchilar yaxshi va yomon odamlarning sifatini aniqlashadi. Birinchi bajargan guruh taqdirlanadi.

Mavxum va anik otlar yuzasidan **«Bu so'z bizniki»** o'yini o'tkazish mumkin.

Taxt, kitob, baxt, ozodlik, tuyg'u, sumalak, shodlik, chashma, bug'doy, tegirmon, muhabbat, rasm, xurriyat, mardlik, qadriyat, sadoqat kabi so'zlarni aniq va mavxum otlarga ajratib yozishadi. G'olib o'quvchilar aniqlanadi. Sanoq sonlarni o'rganishda **«Topqirlar bellashuvi»** o'yinini o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilar «Son» so'z turkimi ishtirok yetgan maqollarni topishda belashadi. «Bir bolaga yetti mahalla ota -ona »...

Nutqning badiiy bo'yoqdorligini oshirish maqsadida «Manosini kim chaqadi? O'yinini o'tkazish mumkin. Bu o'yinda o'quvchilar ikkiga ajratiladi. Birinchilari aytgan fellarni ikkinchilari frazeologik ibora bilan almashtirishadi: gapirmadi – og'ziga talqon soldi, quvondi – do'ppisini osmonga otdi...

Bu sanalganlarning har birini ona tili darslarining har bir etabida o'tkazish mumkin. Bular dars samaradorligini oshiruvchi sifatida katta ahamiyatga ega.

2. Hozirgi kunda ijodkor, tajribali ona tili va adabiyot o'qituvchilari tomonidan quyidagi noan'anaviy turlari qo'llanilmoqda.

1) Darslik bilan ishlash. Yangi material bir necha yirik qismlari bo'linadi. O'qituvchi savollarga o'quvchi javobini darslikdan izlab topishi kerak. Javoblarni o'qituvchi tahlil qilib boradi va o'quvchilarning javoblarini baholaydi.

Dars oxirida o'qituvchi mavzuni qisqacha umumlashtirish yakunladi. Bu metod o'quvchilarni darslik bilan yoki manba matni bilan ishlab mustaqil bilim olishga o'rgatadi.

2) Syujet darsi. O'qituvchi yangi materialning tugallanmagan bir qismini o'quvchilarga berib xulosa chiqarishni topshiradi. Berilgan syujetdan xulosalar chiqarishga, o'quvchilarni turlicha fikirlashga, xulosalardan eng yaxshilarini tanlashga o'rgatadi.

Syujet tipidagi darslar o'quvchilar tafakkurini o'stiradi, nutqini ravon qiladi. Darsda o'quvchilarning faoligini oshiradi.

3) *Mustaqil tafakkur yuritish darsi.* O'quvchilarga yangi materialning ayrim qismlari beriladi. Berilgan voqeya – xodisalarning kelib chiqish sabablarini izlashni o'quvchilarning o'zlari bajarishlari kerak. Masalan, «bolalar, yaxshilar qalbi yaradur, degan fikr mavjud. Siz bunga qanday qaraysiz? Inson yaxshi bo'lmasligi kerakmi?» degan savol bilan murojaat qilish mumkin. Dars o'quvchilarni mustaqil fikirlashga, tafakkur yuritishga o'rgatadi. O'qituvchi material tanlashda uni qiziqarli, maqsadiga javob beradigan bo'lishiga erishish kerak.

4) *Seminar darsi.* Dars malum bo'lim va boblar o'tilgandan keyin oldindan ko'rilgan tayorgarlik asosida o'tadi. O'qituvchi o'quvchilarga zarur adabiyotlarning ro'yxati, seminar mavzusi va rejasini beradi (berib qo'yishi kerak). Temachalar bo'yicha bir savol javobni bir necha o'quvchi to'ldirishi mumkin.

Dars oxirida o'qituvchi javoblarni xulosalaydi. O'quvchilarning yutuqlarini ko'rsatadi. Seminar darslari o'quvchilarda izlanish, mustaqil fikirlash va ularga javobgarlik hissini tarbiyalaydi.

5) *Hisobot darsi.* a) O'qituvchi yirik boblarni maro'za shaklida o'tadi. O'quvchilarga materialni qamrab oladigan hisobot savollarni beradi. Keyingi soatlarda shu savollarga javob olish imkonini beradi. Yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan qushimcha ishlash va past o'zlashtiradiganlariga yordam berish uchun sharoit yaratiladi. O'quvchilar o'zaro savol-javob qilishlari mumkin. O'qituvchining o'quvchiga ishonchini, o'quvchilarda masuliyat hissini oshiradi. b) o'quv yili va chorak davomida o'tilgan mavzular yuzasidan savollar berib qo'yiladi. O'quvchilar tayyor paytida yoki ro'yxat asosida javob berishlari mumkin. Hisobot darslari o'quvchilarni o'tilgan materiallarni to'lik bilishga undaydi. Ularda berilgan topshiriqlarni vaqtida bajarish hissini tarbiyalaydi.

6) *Baxs darsi.* Bu dars tipi o'quvchilardan bilim, har tomonlama tayyorgarlikni talab qiladi. O'quvchilar o'z bilimlariga tayangan holda berilgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkazish yoki bir savolga bir necha variantda javob berish mumkin. Baxs darsida savollar o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan

o'rtaga tashlanishi mumkin. Savollarning tug'riligini yoki eng yaxshi javobni aniqlash o'quvchilarning o'zlariga xavola qilinadi. Bunday usul o'quvchilarning faolligini oshiradi. Bir savolga turli pozitsiyalarga turib javob berish mumkinligini tarbiyalaydi.

7) Muammoli dars. Bunday darslarda avvala muammoli vaziyat vujudga keltiriladi. O'rtaga tashlangan muammoni o'quvchilar yakka yoki guruppa bo'lib yechishi mumkin. Dars paytida bir necha muammoli savollar o'rtaga tashlanadi va umumiy xulosalar chiqariladi. Muammoli vaziyat o'quvchilarni bilim olishga qiziqishlarini oshiradi, ularni faollashtiradi. O'quvchilarda izlanish, baxslashish, tafakkur qilish malakalarini shakllantiradi.

8) Hamkorlik darsi. a) darsda o'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan bir-biridan so'rash, javoblarni baholash vazifasi topshiriladi. Bunda o'quvchini chaqirib so'rash ham mumkin. O'quvchilar qo'yilgan baholarni elon qilishadi. Agar berilgan javoblar, qo'yilgan baholar o'qituvchini qoniqtirmasa qo'shimcha savol berib, bahoni o'zgartirish mumkin. Bu metod dars vaqtida ko'p o'quvchidan so'rash imkonini beradi. Ularda masuliyat, javobgarlik hissini oshiradi. b) hamkorlikning boshqa bir ko'rinishida o'qituvchi javob berish uchun chaqirilgan o'quvchining javobiga boshqa o'quvchilarning ham qatnashishiga ruxsat beradi. Demak berilgan savolga o'quvchilar birgalikda javob berishdi. Baho esa doskadagi o'quvchiga quyiladi.

Bunday darsdan asosiy maqsad materialni o'quvchilar bilan birgalikda mustahkamlashdir. Bu metod o'quvchilarga kollektivizm ruhini shakllantiradi. O'quvchilar o'zoro nazorat, hamkorlik yordami kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

9) Konverensyya darsi. Bunday dars biror bob, o'tilgandan keyin tashkil qilinadi. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan mavzu va reja asosida adabiyot va manbalardan, ekiskursiya va poxod materiallaridan foydalanib referat tayyorlashadi. Bir mavzudagi referatni bir necha o'quvchi himoya qilishadi. Bu metod o'quvchilarda adabiyot-manba bilan ishlash malakalarini shakllantiradi. Ularni har qanday materialga ijodiy yondoshishga o'rgatadi. Mustaqil bilim olishda faollikni oshiradi.

10) Sayoxat darsi. Bazan dars tabiat qo'ynida, korxonada, ko'rgazma zallarida, muzeyda sayoxat shaklida o'tilishi mumkin. Bunday darslarda o'quvchilar jonli taassurotlar orqali yangi bilim oladilar. Bu metod tegishli mavzular uchun maxsus rejalashtiriladi. Sayoxat materiallari keyingi darslar samaradorligini oshiradi.

Sayoxat darslari o'qituvchidan maxorat va tajriba talab qiladi. Bunday darslarda o'quvchilarga topshiriq yakka yoki gurupalarga bo'lib taqsimlanadi.

11) Ko'rgazma (vistavka) darsi. Bunday dars tarix, geografiya, mehnat predmetlarida ko'lanishi mumkin. O'quvchilar oldindan berilgan vazifalar asosida albom, referat yoki o'zlari tayorlagan maxsulotlardan ko'rgazma tayorlaydi. Ko'rgazma materiallarining nima maqsada ishlatilishi va foydalanishini aytib berishadi. Ko'rgazma darsi materiallarini hayot bilan bog'lab o'tish imkoniyatini beradi. Dars emotsional ruxda o'tadi, o'quvchilarning faoligi nixoyatda oshadi.

12) O'quvchi-o'qituvchi darsi. bunday darslarda bilimi yuqori o'quvchilardan o'qituvchi tayorlanadi. O'quvchi-o'qituvchi ustoz yordamida yangi material va dars metodini tanlaydi. Yangi materialni o'tadi, o'quvchilarni baholaydi. Bu metod o'quvchilarning darsga qiziqishini, intilishini kuchaytiradi. Chunki o'quvchi-o'qituvchi ko'pincha o'z (o'qituvchi) metodini takrorlaydi.

13) Materialni emotsional qiziqarli o'tish darsi. Bunday dars materiallarni hissiy (emosional) qiziqarli bayon etishga asoslanadi. Darsda qiziqarli hikoyalar, epizodlar emotsional bayon etilib, o'quvchilar diqqati to'planadi. Darsda o'qituvchining mimikasi, intonasiyasi katta rol uynaydi. O'qituvchining materialni obrazli bayon etishi o'quvchilarga mavzuni yaxshi o'zlashtirishi imkoniyatini beradi. Dars uchun tanlangan materiallar mavzuning maqsadini ochishga xizmat qilishi va o'quvchilardan mahorat talab qilishi kerak.

Ona tili darslarida mavzuga qarab gazeta materialinidan foydalanish darsning emotsionalligini oshiradi. Chunki gazetada chop etilgan materialga har qanday o'quvchi o'z munosabatini bildiradi. Undagi bayon qilingan davr bilan hamnafas bo'ladi. Ayniqsa, gazeta sarlavhalari o'ta o'ziga tortuvchi bo'ladi. Ular: so'z (Oqibat. Extirom. Ishonch. Sahovat. Diyonat. Inqiroz. Axshiylik.

Toshbag'ir...), so'z birikmasi (farzandlar kamoli–oila quvonchi. Kashandalik–umr zavoli...) bo'lishi mumkin. Bularni tahlil materiali sifatida tanlash leksikologiya, sintaksisga oid mavzularga qo'l keladi. Bu til birliklarini matn bilan birgalikda tahlil qilish darsning tasirchanligini, samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilganimizda, noan'anaviy dars shakllari ijtimoiy talab asosida yuzaga kelib hozirgi davr talabidir. Etibor beriladigan bo'lsa, dars jarayonida o'quvchi shaxsi, unga munosabat shu kunning eng dolzarb muammosidir. Majburiylik asosida bajariladigan, amalga oshiriladigan ishning poyoni qisqa. Shuning uchun ham birinchi navbatda o'quvchi qiziqishi turmog'i kerak. Hamma sayyi-harakatlarimiz shunga qaratilmog'i lozim.

ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLAR VA ULARDAN FOYDALANISH.

Respublikamiz Prezidentining “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to’g’risida”gi Farmonning uchinchi yo’nalishida o’quv standartlari, o’quv dastur va darsliklarini takomillashtirish bo’yicha DTS, dastur, darsliklarning takomillashtirilgan variantlari tayyorlandi hamda shular asosida ish olib borilmoqda. Chunonchi, ona tili ta’limining takomillashtirilgan standarti tayyorlandi. Unga ko’ra:

a) grammatikaga oid o’zlashtiriladigan bilimlar;

—fonetika, leksikologiya, so’z tarkibi, so’z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalar.

b) nutq o’stirish:

— birinchi yo’nalish — o’quvchilarning so’z boyligini oshrish;

— ikkinchi yo’nalish — o’zbek adabiy tili me’yorlarini o’rgatish, adabiy talaffuz me’yorlari, shuningdek, lug’aviy sinonimika, qo’shimchalar sinonimikasi, umuman, grammatik sinonimika bilan tanishtirish;

— uchinchi yo’nalish — o’quvchilarda fikrni og’zaki va yozma bog’lanishli bayon qilish malaka hamda ko’nikmalarini hosil qilish shart qilib belgilangan.

Ana shundan kelib chiqib, ona tili ta’limining bosh maqsadi: ona tili mashg’ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og’zaki va yozma shakllarda to’g’ri, ravon ifodalash ko’nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilmog’i lozim. Bu murakkab, ayni paytda, mas’uliyatli vazifani bajarishda ona tili darsliklarining ahamiyati katta.

O’rta maktab o’zbek tili darsliklarida o’quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan o’quv topshiriqlari berilgan. Bu topshiriqlar turli usullar bilan o’qituvchi hamkorligida o’quvchilar tomonidan mustaqil bajarishi kerak. Ularni bajarishda ijobiy natija beradigan topshiriqlarning asosiy turlaridan biri grammatik o’yin-topshiriqlardir. Topshiriqning bu turi o’quvchilardan

bilimdonlikni, izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi. O`yin-topshiriqlar ona tili darslarining qiziqarli o`tishini ta`minlaydi. “O`zbek tili o`qitish metodikasi”da grammatik o`yin-topshiriqlar va ulardan foydalanish metodikasi yetarli ishlanmagan. O`yin-topshiriqlarning o`ziga xos xususiyatlari shundaki, u ko`pincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunlanib, o`quvchi va guruhlariga ochko (yoki ball)lar beriladi. Bu, shubhasiz, topshiriqni bajarishga ishtiyoqni oshiradi. Natijada, o`quvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va shu fanga muhabbati ancha ortadi. Shu bilan birga, qo`shimcha adabiyotlardan foydalanish, boshqa fanlar bilan ham jiddiy shug`ullanish ehtiyojini tug`diradi. Shunday ekan, o`qituvchi darslarining samarali bo`lishi uchun turli o`yin-topshiriqlardan va boshqotirmalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Bu esa fan o`qituvchisidan mahorat, ijodkorlik, eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi. Bugungi davr talabi ham ana shudir.

Shularni hisobga olgan holda ona tili darslarini o`tishda ishlatish mumkin bo`lgan ayrim grammatik o`yinlar, boshqotirmalar va ulardan foydalanish metodlarini tavsiya qilamiz. Bunday grammatik o`yinlarni yanada ko`plab o`ylab topish va dars jarayonida qo`llash mumkin. Bu esa, yuqorida ta`kidlanganidek, o`qituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga, mahorati va tinimsiz qiladigan mehnatiga bog`liq.

Ma`lumki, o`yin-topshiriqlar o`quvchilar malaka va ko`nikmalariga ko`ra, murakkablik darajasiga ko`ra guruhlanib, soddadan murakkablik dinamikasiga qarab boradi.

1.Qayta xotirlash tipidagi o`yin topshiriqlar.

Bunday o`yin-topshiriqlardan o`tganlarni mustahkamlash hamda bilim va malakalarni tekshirish darslarida ko`proq foydalaniladi. Masalan, “Atoqli va turdosh otlar” mavzusiga oid darslarni mustahkamlash maqsadida “Kim g`olib?” o`yin-topshirig`idan foydalansa bo`ladi. Buning uchun sinf ikki guruhga ajratiladi: biri atoqli otlarga, ikkinchisi turdosh otlarga misol topishadi. Ma`lum bir belgilangan vaqt ichida qaysi guruh ko`p misol topsa, o`sha guruh g`olib sanaladi.

O`qituvchi doskaga kitob, gazeta, jurnal, kundalik, surat, kinofilm so`zlarini alohida-alohida yozib qo`yadi. Sinf olti guruhga bo`linib (o`quvchilar soni hisobga olinishi zarur. Agarda guruhlarga teng bo`linmaydigan bo`lsa, guruhlar sonini kamaytirishi yoki ko`paytirishi mumkin), ulardan shu otlarga misollar yozish talab qilinadi. Guruhlarning har bir a`zosi o`ziga qarashli so`zga bitta-bittadan misol yozadi. Tez va to`g`ri yozgan guruh g`olib sanaladi. G`oliblar, albatta, rag`batlantirilishi kerak. Bunday o`yin-topshiriqlardan istalgan mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Yoki o`quvchilarning bog`lanishli yozma nutqini sinash maqsadida “So`zlar bizdan, matn tuzish sizdan” o`yinini o`tkazish mumkin. Bunda o`quvchilarga tayanch so`z va so`z birikmalarni berib (ular doskaga yozib qo`yilishi ham mumkin), ular yordamida bog`lanishli matn tuzish topshiriladi, Tez va mazmunli matn tuzgan o`quvchi g`olib sanaladi.

DTS talablaridan biri sanalgan o`quvchilar so`z boyligini oshirishda izlanuvchanlik xarakteridagi o`yin-topshiriqlarni qo`llash yaxshi natija beradi. Bunday topshiriqlar o`quvchilardan ijodiy faoliyat ko`rsatishni talab qiladi. “Ijodkor” o`yin-topshiriqdan “Olmosh” mavzusini o`tishda samarali foydalanish mumkin.¹ Bu grammatik o`yinda sinf ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhga ot so`z turkumi ishtirok etgan gaplarga misol aytish, ikkinchi guruhga esa shu gaplardagi ot(lar)ni olmosh bilan almashtirib gap tuzish topshiriladi. Masalan:

Birinchi guruh vakili yozadi: Ertaga olimpiada boshlanadi.

Ikkinchi guruh davom ettirib: Unda biz faol ishtrok etamiz. Shu yo`sinda davom ettiriladi. Bu o`yinni o`quvchilar o`rtasida yoki parallel sinflar o`rtasida “so`z mushoirasi ” qilib davom ettirsa ham bo`ladi.

Ona tili ta`limi jarayonida topshiriqlar tizimi vositasida til hodisalari kuzatiladi, solishtirib qiyoslanadi, o`xshash va farqli tomonlari aniqlanadi, umumiy va xususiy tomonlariga qarab guruhlanadi, umumlashma qoidalar hosil qilinadi. Natijada qayta xotirlash topshiriqlaridan ijodiy topshiriqlarga qarab dinamik o`sish

¹ TAT jurnalining 1996-2002 yildagi ayrim sonlarida e`lon qilingan ayrim o`yin-topshiriqlardan ijodiy foydalanildi

yuzaga kela boradi. Bunday topshiriqlar o`quvchi tafakkuri taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi.

O`quv topshiriqlarining soddadan murakkabga tomon o`shish dinamikasini aniqlash, belgilash murakkab jarayon. Topshiriqlar shunday yo`sinda joylashtirilishi zarurki, o`quvchi tafakkuri taraqqiyotiga ijobiy ta`sir qilsin. Ijodiy topshiriqlar, ya`ni o`quvchi tafakkurini o`stiruvchi topshiriqlar o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lishi zarur:

- o`quvchini izlashga, fikr qilishga, noma`lumni topishga undasin;
- o`quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo`naltirishi zarur;
- masalaning murakkablasha borishi o`quvchi aqli, farosatini o`stira borishi kerak;
- bu jarayonning kechishi o`quvchilarda jamoa bo`lib ishlash ko`nikmalarini hosil qila borishi lozim;
- topshiriqlarni bajarish jarayoni o`quvchida o`ziga ishonch, o`zini (bilimini) anglash, imkoniyatlarini aniqlay olish, yangi bilim olishga undashi shart.

Yangilangan ta`lim mazmuni asosida yaratilgan darsliklarda tilshunoslikning hamma bo`limlariga mo`ljallangan mashg`ulotlarda darslar ta`rif, qoida bilan boshlanmasdan, ya`ni o`quvchilarga bilimlar tayyor holida berilmasdan har bir mavzu uchun mo`ljallangan topshiriqlar tahlili bilan boshlanadi. Mana shu o`rinda o`qituvchi mahorati, qobiliyati, uquvi namoyon bo`ladi. Ana shu jarayonda bir faoliyat usulidan bosqichma-bosqich ikkinchi faoliyat usuliga o`tishi, ya`ni kuzatishdan umumiy xususiyatlari asosida guruhlashga, takrorlashdan o`xshash va farqli tomonlarini aniqlash asosida umumlashmalar shakllanadi. Shundagina berilgan topshiriqlar til hodisalarining mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

5- sinfda fonetika bo`limi o`tilayotganda quyidagi grammatik topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. i-u, a-o, o`-u, i-e, b-p, d-t, z-s, j-ch juftliklari bilan farqlanuvchi so`zlar hosil qiling.

2-topshiriq. x-h tovushlari bilan farqlanuvchi soʻz juftlari hosil qiling. H fonemasining talaffuziga eʼtibor bering.

3-topshiriq. ng harfiy birikmasiga soʻzlar toping va ularni boʻgʻinlarga ajrating.

4-topshiriq. “yaxshi” va “yomon” soʻzlarining oʻxshash va farqli tomonlarini toping.

Oʻxshash tomonlari: 5ta harf, 2ta unli, 3ta undosh, 2ta boʻgʻin, urgʻu oxiriga tushadi, 5ta tovush. Farqli tomoni deysizmi? Maʼnosi-chi? Uning antonimligichi?

5-topshiriq. “x” tovushli soʻzlar zanjirini tuzing.

Baxt -taxt- tuxum - mirrix –xayol – laxtak – kimxob – baxmal – laxta – axta – axir – ruxsat – taxta - axloq - qix – xafa – axir – ruxsat – taxt – taxlit – taxmin – narx – xabar – ruxsatnoma – axtar - ruxsor.

Buni leksikologiyaga oid topshiriqlar bilan davom ettirish mumkin.

6-topshiriq. Tarkibida antonim soʻzlar ishtirok etgan maqollardan toping va davom ettiring.

Birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar.

Gapni kam soʻzla, ishni koʻp koʻzla.

Yomgʻirdan qutildim, qorga tutildim.

Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.

Oʻt bergan oʻtini oladi, suv bergan – suvini kabi.

7-topshiriq.

1. Shunday soʻzlar yozingki, har ikki tomonidan oʻqiganda ham maʼnosi oʻzgarmasin.

Ana, non, lol, koʻk, dod, alla, arra, ikki, katak, kichik, kuchuk, kiyik, nodon, qovoq, qochoq, qipiq, qiziq, qiliq, qiyiq, bob, lil, qoq kabi.

2. Shunday soʻzlar yozingki, har ikki tomonidan oʻqiganda turli maʼno anglatsin.

Mis-sim, mosh-shom, lof-fol, mol-lom, kit-tik, nok-kon, kalit-tilak, bobur-rubob, tom-mot, koʻp-poʻk, qish-shiq, qop-poq, qis-siq kabi.

8-topshiriq. Soʻzdan soʻz yasang.

Navoiy

Nav, navo, nay, on, in, ona, oyi, ov, voy, ayvon, anvoyi.

9-topshiriq.

1. Berilgan soʻzlarga tovushdan soʻzlar toping

ot – it, yut, oʻt, et, osh, ol, oq, ov, oz, on, or, os, ox, och, ogʻ, oh.

ana –

bir –

bosh –

bol –

2. u-oʻ ishtirokida tovushdosh soʻzlar toping.

uz- oʻz, uy-oʻy, un-oʻn. ur-oʻr, uq-oʻq, uch-oʻch, ul-oʻl,

bur-boʻl, sur-soʻr, gur-goʻl, dur-doʻl ...

bul-boʻl, kul-koʻl, qul-qoʻl...

tul-toʻl, gul-goʻl...

3. Hamma unlilarni juftlashtirib ularga tovushdosh soʻzlar topish topshirilishi mumkin.

a-o: bor-bar, bal-bol, tam-tom...

i-e: pish-pesh, tish-tesh, tir-ter...

O`quvchilar nutqini sinonim so`zlar bilan boyitishda ham o`zbek tili tovush tizimining qulayliklaridan foydalanish mumkin. Masalan,

10-topshiriq. So`z juftlarini o`qing. Ayirish belgisini ishlatish sabablarini tushuntiring, ayirish belgisiz yozilgan so`zlarning ma`nolarini toping.

Alam-a`lam, davo-da`vo, sava-sa`va, qala-qa`la, surat-sur`at.

Alam arabcha – omonim so`zlar sirasiga kirib a)og`riq, dard; g`azab, nafrat; zahr ma`nolarini, b)bayroq, tug` ma`nolarini anglatadi.

Bulardan bayroq, tug` ma`nolari arxaiklashgan kitobiy uslubga xos.

A`lam ham arabcha so`z bo`lib, eskirgan, kitobiy eng bilag`on, eng dono ma`nolarini anglatadi. Bu so`z ko`proq shariat qonunlari bilimdoni ma`nosida ishlatiladi.

Davo ar. – dori-darmon; tadbir, chora ma`nolarini anglatadi.

Da`vo ar. – arz, shikoyat, iddao ma`nolarini anglatadi.

Sava – bu so`z ikki ma`noda, ya`ni mesh, sanoch ma`nosida predmetni anglatga, savalamoq fe`lining buyruq ma`nosi sava – shaklida ham qo`llaniladi. Faol leksikada ko`proq bu so`zning fe`l turkumi ma`nosi tushuniladi. O`quvchilarga predmet ma`nosini ham tushuntirish kerak.

Sa`va ar. – sayroqi qush.

Surat ar. – ko`rinish, timsol, tasvir, fotorasm, nusxa.

Sur`at ar. – tezlik, shoshilinch, jadallik. Ish-harakatning darajasi.

Qala – shevalarda shahar ma`nosini anglatadi (qozoqcha-shahar). Ammo faol leksikada bu so`z buyruq fe`li yoki “qalamoq” harakatini bildiruvchi fe`lning asosi ma`nosida qo`llanadi. O`quvchilarga “qala”ning omonimlar ekanligini tushuntirish , ularning leksikasini bir so`zga boyitish demakdir.

Qal`a ar. – devor bilan o`ralgan qo`rg`on, shahar ma`nolarini anglatadi.

11-topshiriq. A va o unlilari bilan farqlanuvchi soʻz juftlarini oʻqing. Bu unlilarning talaffuziga eʼtibor bering. Soʻzlar qatorini davom ettiring, ularning maʼnodoshlarini toping.

Ona-ana, soda-sada, qotil-qatl, ota-ata, Sora-sara, olam-alam, bol-bal...

Tovushdosh soʻzlarning maʼnodosh (sinonim)larini topish bilan bu soʻzlarning boshqa-boshqa maʼno taraqqiyotiga egaligi aniqlanadi. Yana shunday topshiriq berish ham mumkin.

12-topshiriq. Berilgan soʻz juft (tovushdosh)larining maʼnodoshlarini toping.

Bob-bop, sirt- surt, bur-bor, boʻl-bol, til-dil.

Bob – boʻlim, qism; bop – mos, yarashqli, soz; sirt – tashqi, tash, tish; surt – art, boʻya; bur – aylantir; bor – mavjud; boʻl – hozirlan, tayyorlan; bol – asal; til – zabon; dil – yurak, qalb, koʻngil kabi maʼnodoshlari topiladi. Bunday ijodiy amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida oʻquvchilarning lugʻat boyligi oshadi, soʻzlarning imlosini yaxshi oʻzlashtirib olishadi.

Maʼlumki, ona tili fanida mavhum tushunchalar, taʼrif va qoidalar juda koʻp. Oʻquvchi har bir til hodisasini mustaqil oʻrganmasa, bu hodisalar ustida mustaqil ijodiy ish bajarmasa, fikrlash, kuzatish, qiyoslash, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat bilan shugʻullanmasa, til hodisalarining mohiyatini anglay olmaydi va ularni puxta oʻzlashtira olmaydi.

Bu aytganlarni bajarish, asosan, amaliy-ijodiy faoliyat bilan bogʻliq. Ayni paytda oʻquvchi charchamasligi, zerikmasligi, qiziqish bilan faoliyatga kirishishi kerak. Bu jarayonga oʻyin(grammatik oʻyin) yoʻli bilan kirishish oʻquvchilar tabiatiga juda mos keladi. Chunki oʻyin oʻquvchining eng sevimli mashgʻuloti, faoliyatida asosiy oʻrinni egallaydi. Ana shu imkoniyatni foydali tomonga, maqsad sari yoʻnaltirish zarur.

Grammatik o'yinlarni ona tili mashg'ulotlarining hamma turlarida o'tkazish mumkin. Bu o'rinda leksikologiya mashg'ulotlarida qo'llash mumkin bo'lgan grammatik o'yinlardan namunalar keltiramiz.

Ma'lumki, so'z va uning ma'no qirralarini aniqlash, uni o'rni bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirish juda murakkab jarayon. So'z ma'nolari bilan ishlash o'yin tarzida olib borilsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Masalan, "Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar" mavzusini o'tishda "Bittami yo ko'pmi?" o'yinidan foydalansa bo'ladi. Bu o'yinda o'qituvchi o'quvchilarga o'yinning shartini tushuntiradi, ya'ni o'qituvchi bir qator so'zlarni o'qib eshittiradi, o'quvchilar shu so'zlarni ikki guruhga ajratib o'z daftarlariga yozadilar. Bir qatorga bir ma'noli, boshqa qatorga ko'p ma'noli so'zlarni yozadilar. Namuna:

kitob, daftar, qalam; uy, ko'cha, o'yin, topishmoq, kulgu kabi.

Topshiriqni to'g'ri va tez bajargan o'quvchi bu o'yinda g'olib sanaladi va rag'batlantiriladi.

Yoki "Yaxshilar va yomonlar" o'yini.

Bu o'yinda yaxshi odamlar va yomon odamlar haqida aytiladigan fikrlarni alohida-alohida qator qilib yozadilar. Bu bilan o'quvchilar yaxshi va yomon deb odamlarga sifat berishni o'rganadilar. Kattalardan eshitgan va o'zlaricha baholagan odamlarning xarakter-xususiyatlarini birikma holda yozadi. Ayni paytda odamlarga baho berishning mas'uliyatini anglaydi.

Yaxshi odamlar

chumoliday mehnatkash
qo'yday yuvvosh
sherday dovyurak
musichaday beozor
bulbulday xushovoz
kiyikday chaqqon

Yomon odamlar

tulkiday ayyor
quyonday qo'rqqoq
bo'riday ochko'z
ilonday zaharli
qarqunoqday qaqillagan
to'ng'izday qo'pol

arslonday mard

ayiqday dangasa

asalariday inoq

itday qopog'on

Bu o'yinda ham topshiriqni tez va sifatli bajargan o'quvchi g'olib sanaladi. Bunday o'yinning turlarini o'simlik, daraxt, hayvonlar, qarindosh-urug'chilikka oid so'zlar, iboralar (tematik), ko'chma ma'noli so'zlar hisobiga ko'paytirish mumkin.

Ko'p ma'noli so'zlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan uyadosh so'zlarni mustahkamlashda shunday topshiriqlar berish mumkin:

1-Topshiriq. Berilgan mustaqil so'zlarni ot, sifat, son, ravish, fe'l, olmosh kabi uyalarga ajrating. Bu uyalarni mustaqil davom ettiring: maktab, mashina, beshta, qorovul, ishladi, borgan, o'n beshta, men, alla kim, majburan, chiroyli, iltimos, qizil kabi.

2-Topshiriq. Uzum, gul, ko'kat kabi umumiy ma'noli so'zlarning xususiy ma'nolarini – uyadoshlarini toping. Namuna:

Uzumlar: charos, toifi, hasayni, qorajanjal, qorakishmish...

Gullar: atirgul, safsargul, chinnigul, karnaygul, xrezantema...

Ko'katlar: petrushka, ukrop, kashnich...

Bu topshiriqni guruhlariga ajratib, musobaqa tarzida o'tkazsa ham bo'ladi.

3-Topshiriq.

1. So'zlarga teng keladigan iboralar toping: ...sevindi, ... befoyda, ... ranjidi, ... tortishuv, ...unutmoq.

Javob: Shodligi ichiga sig'maydi, shamolga uchirmoq, ensasi qotdi, "sen-men"ga bormoq, esidan chiqarmoq.

2. "Kapalagi uchib ketdi", "Katta ketdi" iboralarining sinonimini toping.

"Qo'rqib ketdi", "O'takasi yorildi"; "Katta gapirdi".

Yana: "Oq ko'ngil" – "Ko'ngli toza"; "Og'ziga olmoq" – "Tilga kelmoq" kabi.

Ma'lumki, soʻz maʼnolari uning tarkibidagi sema (maʼno qirralari)larni kuzatish, farqlash, qiyoslash orqali uning maʼnolaridagi umumiylik aniqlanadi. Bu jarayonda oʻqituvchining ijodkorligi asosida tashkil etilgan munozara darslari eng maqbul usullardan biri sanaladi. Koʻp maʼnoli soʻzlar ustida ishlashda soʻzlarning maʼno nozikliklarini farqlash, ulardan nutqda foydalanish uchun **kitob** soʻzini misol keltiramiz.

Kitobning inson hayotida tutgan oʻrni, uning kishi ongida qanday tushuncha hosil qilishini aniqlash maqsadida bu soʻzning umumiy belgisini aniqlash uchun oʻquvchilarga murojat qilinadi. Oʻquvchilar oʻz mulohazalarini aytishadi. Ular kitobning oʻquv quroli ekanligini, muqovasi borligini, varaqlardan iboratligi, bosma shakldaligi, kishi hayotida tutgan oʻrnini aytishadi. Topshiriqning bu bosqichi umumlashtirilib, kitobning asosiy xususiyatlari jamlanadi: muqovalangan, oʻquv quroli, kishilarning maʼnaviy ozuqasi, varaqlardan tashkil topgan, bosma holatida, maxsus nashrdan chiqqan.

Bu oʻrinda oʻquvchilar kitobning boshqa oʻquv qurollaridan (ruchka, qalam, daftar va boshqa) farqini tushuntirishlari zarur.

Ikkinchi bosqichda oʻquvchilar fikrini kitobatchilik tarixiga tortib quyidagicha savol-javob uyushtirishi mumkin:

- Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Qoʻlyozmalar instituti olimlari qanday ish bilan shugʻullanadilar?
- Qoʻlyozma asarlarni oʻrganadilar.
- Unda, kitoblar qoʻlyozma holida ham boʻlar ekan-da?

Keyingi savol oʻquvchilarni oʻylashga majbur qiladi va kitobga berilgan dastlabki tavsifda kamchilik borligini tushunadilar va uni shunday tavsiflaydilar: muqovalangan, oʻquv quroli, kishilarning maʼnaviy ozuqasi, varaqlardan tashkil topgan, bosma va qoʻlyozma holatda, maxsus nashrdan chiqqan.

Uchinchi bosqichda oʻqituvchi qoʻliga birorta jurnal olib, oʻquvchilarga murojat qiladi:

- Qoʻlimdagi jurnal kitobning yuqorida sanagan belgilariga ega emasmi?

Bu savol o`quvchilar orasida bahs-munozaraga, tortishuvga sabab bo`ladi. Ularning ayrimlari “ular bir xil belgiga ega” desa, ayrimlari “ har xil” deb javob berish bilan ikki yoki uch (sukut saqllovchi) guruhga ajraladilar. Masalaga aniqlik kiritish uchun o`qituvchi kitob va jurnalning farqli tomonlarini ochuvchi savollar beradi:

— Jurnalning xarakterli belgilarini sanay olasizmi?

O`quvchilarning munozarasini umumlashtirib o`qituvchi doskaga yozib borsa yanada yaxshi bo`ladi.

— Jurnalda rang-barang materiallar bosiladi.

— Kitobda ham shunday bo`lishi mumkin.

— Jurnalga obuna bo`linadi.

— Ba’zi kitoblarga ham obuna bo`linishi mumkin.

— Jurnal oyma-oy yoki ikki va uch oyda chiqib turadi.

— Kitobning nashr qilinishi jurnaldagidan farqlanadi.

Guruhlarning javoblari o`qituvchi tomonidan xulosalanib, jurnalning belgilari aniqlanadi:

1. Jurnalda katta va kichik turli materiallar bosiladi.

2. Jurnal qo`yilayotgan masalalarga hozirjavob bo`ladi.

3. Jurnal vaqti-vaqti bilan tez-tez chiqib turadi.

Bu xulosadan so`ng kitob bilan jurnal shaklan o`xshasada, farqli tomonlari mavjudligi isbot talab qilmaydigan darajada aniqlanadi. Eng xarakterlisi, bu xususiyatlarni o`quvchilarning o`zlari aniqlaydilar. Bu, albatta, ularning xotirasida uzoq saqlanadi.

Chiqarilgan bu xulosalardan kitobga xos yana bitta belgi aniqlanadi: muqovalangan, o`quv quroli, kishilarning ma’naviy ozuqasi, varaqlardan tashkil topgan, bosma va qo`lyozma holida, maxsus nashrdan chiqqan, vaqtli bo`lmagan.

Mana shu savol-javob, tavsiflardan keyin o`quvchi kitob haqida yetarli ma’lumotga ega bo`ladi. Bu bahs-munozaraning keyingi bosqichida o`qituvchi o`quvchilarga kitob haqida yanada mukammalroq tushuncha berish maqsadida bir

jildga jamlangan ikki kitob(qism)dan iborat bir kitobni o`quvchilarga murojaat qiladi:

— Mana bu kitob ikki qismdan iborat, birinchi qismiga “ Birinchi kitob”, ikkinchi qismiga “Ikkinchi kitob” deb yozilgan. Buni qanday izohlash mumkin?

Darhaqiqat, bunday kitobni o`quvchilar ko`rgan bo`lishlari ham, ko`rmagan bo`lishlari ham mumkin. Bu holatda o`quvchi bilgan, anglagan “kitob” so`zi endi kitobning qismini anglatishini ham bilib olishadi.

“ Kitob ” leksemasining semalarini aniqlash orqali so`z ma`no taraqqiyoti aniqlanadi, o`quvchilar tafakkuri rivojlanadi. Bunga o`xshash so`zlarda mavjud bo`lgan umumiy va xususiy ma`no nozikliklarini **suv** umumiy mavzusida jamlangan ma`nolarni aniqlash orqali ham o`quvchilar fikrlash qobiliyatini o`stirish mumkin. Buning uchun o`qituvchi o`quvchilarga quyidagicha murojaat qiladi:

— Suv umumiy mavzusiga qanday so`zlar kiradi?

— Irmoq, jilg`a, ko`l, dengiz, okean, botqoq, baliq, buloq, soy kabi.

Bu so`zlar aniqlangandan keyin ular bir-biriga qiyoslash, solishtirish orqali har biriga xos umumiy va xususiy belgilar aniqlanadi.

O`quvchilar bu so`zlarning umumiy belgisi sifatida **suvning yerni o`yib oqishi, qirg`oqqa ega bo`lishi, to`lqinlanishi** kabilarni ko`rsatishi mumkin.

O`qituvchi bu belgilar vositasida bu so`zlarning aloqadorlik mundarijasini so`raydi: **jilg`a, irmoq, soy, daryo, ko`l, dengiz, okean** so`zlari **suv, qirg`oq(sohil), baliq, to`lqin** semalari bilan umumiy belgi asosida birlashishini, semantik maydon hosil qilishni aytishadi. **Suv** semasining etakchilik qilishi ta`kidlanadi.

Shuni ham aytish kerakki, o`quvchilar yuqoridagi xulosaga kelishga qiynalsa, o`qituvchi yordamlashishi zarur.

Shundan so`ng mazkur so`zlarning o`ziga xos xususiyatlarini topish uchun: “**Jilg`a, irmoq, soy, daryo**, so`zlari **ko`l, dengiz ,okean** so`zlaridan qanday tomonlari bilan farq qiladi?” degan savol o`rtaga tashlanadi.

Bu soʻzlar bitta umumiy mavzuga birlashsa-da, bir-biridan oʻzidagi suvning oqib turishi yoki turgʻunligiga koʻra keskin farqlanishini oʻquvchilar aytishadi. Shuning uchun ham birinchi guruhdagi soʻzlar **oqmoq**, ikkinchi guruhdagilar esa **turmoq** feʼllari bilan semantik-sintaktik aloqa qilishi haqidagi xulosaga kelishadi. Misol: Sangzor daryosi shovullab **oqayapti**.// Aydarkoʻl koʻz oldimizda jilvalanib **turibdi**.

Yuqoridagi soʻzlarning har birining xos tomonlarini aniqlash uchun “**Xatoni toping**” oʻyinini oʻtkazish mumkin. Buning uchun: Koʻl jimirlab oqardi, jilgʻada toʻfon turdi, soyda kema qatnovi toʻxtadi, irmoqda delfinlar toʻdasi koʻrindi gaplaridagi xato oʻrinlarni topishni buyuradi.

Oʻquvchilar koʻlda suvning turgʻun boʻlishini, jilgʻada toʻfon boʻlmasligini, soyda kema qatnamasligini, irmoqda delfinlar yashamasligini taʼkidlashganlaridan keyin ularni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy belgi - hajm ekanligi aniqlanib, soʻzlardagi quyidagicha ketma-ketlik munosabati mavjudligi ochib beriladi: **jilgʻa – irmoq – soy – daryo - koʻl - dengiz - okean**. Bu munosabatlarda real borliq ifodalini layotganligi tushuntiriladi.

“**Kim yaxshi suzadi**” Bu oʻyin ham yuqoridagi fikr taraqqiyotining mantiqiy davomi boʻlib, bunda oʻqituvchi uch yoki toʻrtta soʻzni doskaga bir necha ustunga boʻlib yozadi. Har bir ustunga bittadan oʻquvchi chiqib, yozilgan soʻzlardan qoʻshma ot yasab, maʼnolari izohlanadi.

Koʻl	daryo	buloq
Aydarkoʻl	Sirdaryo	Muzbuloq
Issiqkoʻl	Amudaryo	Mullabuloq
Toʻrtkoʻl	Qashqadaryo	Tomchibuloq
Shoʻrkoʻl	Surxondaryo	Shoʻrbuloq
Oykoʻl	Qoradaryo	Oqbuloq

Bu ustunlar toʻrtta boʻlsa ham boʻladi. Bunda sinf komandalarga boʻlinsa yanada yaxshi boʻladi. Yuqoridagi soʻzlarning (jilgʻa, irmoq, soy, daryo, koʻl, dengiz, okean kabi) har birini qatnashtirib qoʻshma soʻzlar tuzdirish mumkin.

Doskadagi soʻzlarni oʻquvchilar quyidagicha izohlashi mumkin: Suvi shoʻr boʻlgani uchun Shoʻrkoʻl, Aydar choʻlida koʻl hosil boʻlgani uchun Aydarkoʻl¹, koʻrinishi chiroyli boʻlgani uchun Issiqkoʻl², atrofi oʻralgan qishloq qoʻrgʻon boʻlgani uchun Toʻrtkoʻl³, oyga oʻxshagan koʻl Oykoʻl, sirli daryo Sirdaryo, Amudaryo qadimda Oʻkuz deb atalgan, u “daryo” demakdir⁴, Qashqa – ola chalpoq (qurub qolgani uchun) holiga kelgani uchun Qashqadaryo nomini olgan⁵, suvi qizil qumlarni yuvib oʻtgani uchun Surxondaryo, rangidan kelib chiqib Qoradaryo, sovuqlikka nisbat berib Muzbuloq, qoʻriqlanadigan boʻlgani uchun Moʻllabuloq, suvi kam boʻlgani uchun Tomchibuloq, suvi shoʻr boʻlgani uchun Shoʻrbuloq, sizib chiqqani uchun Oqbuloq deb izohlaydi.

Bunday izohlashda oʻqituvchi ham ishtirok etishi mumkin. Chunki keltirilgan hamma misollar etimologiyasini oʻquvchilar bilmasliklari mumkin. Bunday izohlash orqali, birinchidan, oʻquvchilarning fikrlash doirasi kengayadi, ikkinchidan, fanlararo integratsiya oʻrnatiladi.

Har bir soʻzga berilgan izoh uning maʼno qirralarini anglab olish imkoniyatini yaratadi va bu soʻzga aloqador soʻzlarning gʻoyaviy (ideografik), ongda hosil boʻladigan mikromaydoni shakllanadi. Shundan soʻng yuqoridagi har bir soʻzning mikromaydonlarini hosil qilish topshiriladi. Masalan:

daryo – koʻprik, baliq, choʻmilmoq, qirgʻoq (sohil), oqmoq;

koʻl – shamol, kuchli toʻlqin, baliq, qayiq, kema;

dengiz – toʻfon, akula, delfin, kema, port;

okean – toʻfon, akula, kit, kema, port;

Maʼlumki, ot turkumiga mansub soʻzlar rang-barang maʼno nozikliklari bilan, bu turkumga kiruvchi soʻzlar miqdorining koʻpligi bilan xarakterlanadi. Ot soʻz turkumini oʻrganishda otlarni aniq va mavhum guruhlariga ajratish, aniq otlarni mavhum otlarga yoki mavhum otlarni aniq otlarga aylantirish; mavhum otlarni tub

¹ Aydar – ustida tosh parchalari uyulib qolgan qir, tepa, doʻnglar, yaʼni tosh kokilli doʻnglar. S.Qorayev, P.Gʻulomov, R.Rahimbekov. Geografik terminlar va tushunchalar izohli lugʻati. Toshkent, 1979, 10-bet.

² Z. Doʻsimov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lugʻati, Toshkent, 1977, 72-bet.

³ S. Qorayev, P. Gʻulomov, R. Rahimbekov. Geografik terminlar va tushunchalar izohli lugʻati. Toshkent, 1979, 132-bet.

⁴ S. Qorayev. Geografik nomlar maʼnosini bilasizmi? Toshkent, 1970, 12-13-bet.

⁵ Z. Doʻsimov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lugʻati, Toshkent, 1977, 153-bet.

va yasama otlarga ajratish, muayyan bir mavzudagi aniq otlar yoki mavhum otlarni qatnashtirib tuzilgan gaplarning davomini topish kabi topshiriqlarni bajarishda musobaqali o`yinlar tashkil qilish mumkin. Chunonchi, **“Bu so`z bizniki”** o`yini.

Bu o`yinni o`tkazishda o`qituvchi doska yoki biror plakat vositasida ot so`z turkumiga oid bir qancha so`zlarni o`quvchilarga tavsiya qiladi. O`quvchilar bu so`zlardan mavhum otlarni alohida va aniq otlarni alohida yozishda musobaqalashadi. Namuna sifatida quyidagi so`zlarni tavsiya qilamiz: taxt, kitob, baxt, ozodlik, tinchlik, tuyg`u, sumalak, shodlik, chashma, bug`doy, tegirmon, muhabbat, rasm, mustaqillik, mardlik, jasorat, qadriyat, sadoqat, sevinch, ishonch, do`stlik, ahillik, kishi, o`quvchi, avtobus, futbol, his, koptok, qalam, o`qituvchi.

Bu o`yinda o`quvchilar guruhi yoki alohida o`quvchi ishtirok etib tez va to`g`ri bajargani g`olib hisoblanadi.

Sanoq sonlar mavzusiga doir **“ Topqirlar bellashuvi”** o`yinini o`tkazish mumkin. Bunda sonlarni o`z ichiga olgan xalq maqollari, hikmatli so`zlar, topishmoqlarni aytish bilan o`quvchilar musobaqalashadilar. Namuna: “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, “Sanamay sakkiz dema”, “Ikki tortar, bir yirtar”, “Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi”, “Bir dehqon omoch bilan yettovlan cho`mich bilan”, “Bir kalla – kalla, ikki kalla - tilla”, “Bir kun janjal bo`lgan uydan qirq kun baraka uchadi”, “O`zi bitta qulog`i to`rtta”, “Bir ko`ngil imorati – ming Makka ziyorati”, “Ikki onasi bor, o`n ikki bolasi bor”, “Bir chuqurda ming chuqur” kabi. Shuni ham aytish zarurki, bu maqol, hikmatli so`zlar va topishmoqlarning tarbiyaviy tomonini ham eslatib qo`yishning tarbiyaviy ahamiyati katta.

Fe`l turkumi yuzasidan ham qiziqarli o`yin – topshiriqlar uyushtirish mumkin. Chunonchi **“Yo`qolganni top”** o`yini.

Bunda shaxs yoki ma`lum bir hayvonning ish-harakatini ifodalovchi so`zlarni topib qo`yish, muayyan so`roqqa javob bo`ladigan so`zlar uyasini tuzish kabilar. Masalan, bir qatordagi o`quvchilar “Qo`y nima qiladi?”, “It nima qiladi?” kabi savollarni bersa, ikkinchi qatordagi o`quvchilar nomlari aytilgan hayvonlarning ish-harakatini bajarishini sanaydilar.

I – qator: It nima qiladi?

II – qator: It huradi, qo`riqlaydi, uxlaydi, sakraydi, o`ynaydi, tishlaydi, chopadi, yuguradi, talashadi.

II – qator: Qo`y nima qiladi?

I – qator: Qo`y ma`raydi, o`tlaydi, kovush qaytaradi, yuradi, yuguradi, boqiladi, yotadi, sakraydi, qo`zilaydi, jun beradi, sut beradi, semiradi, so`yiladi.

O`quvchilar nutqini badiiy bo`yoqdor fe`llar bilan boyitishda **“Ma`nosini kim chaqdi?”** o`yinini qo`llasa bo`ladi. Musobaqalashayotgan birinchi qatordagi o`quvchilar frazeologik birikmalar bilan almashtirish mumkin bo`lgan fe`llarni aytadi, ikkinchi qatordagi o`quvchilar esa shu fe`lni frazeologik birikma bilan almashtirishlari kerak. Masalan,

I qator	II qator
Gapirmadi —	og`ziga talqon soldi
Quvondi —	do`ppisini osmonga otdi
G`azablandi —	tepa sochi tikka bo`ldi.
O`ldi —	joni uzildi, qazo qildi.
Tushundi —	mag`zini chaqdi.
Charchadi —	tinkasi quridi.
Uxlamadi —	mijja qoqmadi.
Qo`rqdi —	yuragi dov bermadi.
Ajablandi —	yoqasini ushladi.
Aralashdi —	bosh qo`shdi.
Ochqoldi —	qorni piyozning po`stiday bo`ldi.
Uylandi —	boshi ikkita bo`ldi.
O`ldirdi —	boshini yedi.
Yutqazdi —	boy berdi.
Kutilmaganda —	tomdan tarasha tushganday.
Uxladi —	ko`zi ketdi, ko`zi ilindi.
Maqtanadi —	aravani quruq olib qochadi.
Achchiqlandi —	fig`ono falakka ko`tarildi.

Esankiramoq —	hushini yo`qotmoq.
Uyalmasdan —	qaysi yuz bilan.
Hurmatlashdi —	o`tgazgani joy topolmadi.

Xuddi shu o`yinning boshqa turi har bir frazeologik birikmani ma`nodoshi bilan almashtirish talab qilinadi.

I qator	II qator.
Do`ppisini osmonga otdi	— boshi osmonga yetdi.
Og`ziga talqon soldi	— “lom-mim” demadi.
Joni uzuldi	— olamdan o`tdi.
Yoqasini ushladi	— hayratda qoldi.
Yuragi shuv etib ketdi	— yuragi orqasiga tortib ketdi.
Mijja qoqmadi	— ko`z yummad.
Yuragini hovuchlab	— jonini hovuchlab.
Qo`ldan bermoq	— boy bermoq.
Yuzaga chiqmoq	— ro`yobga chiqmoq.
Esi og`di	— aqldan ozdi.
Shamolga uchmoq	— zoye ketmoq.
Shovqin solmoq	— boshiga ko`tarmoq.
Ta`bi xira bo`ldi	— ta`bi tirriq bo`ldi.
Og`zi bormadi	— tili bormadi.
Oila qurmoq	— bir yostiqqa bosh qo`ymoq.

Yoki qo`shma fe`llar yuzasidan ham shunday o`yin o`tkazish mumkin. Bunda ham birinchi guruh biror qo`shma fe`l aytsa, ikkinchi guruh shu fe`lning ma`nodoshi(sinonimi)ni topadi. Masalan:

I qator	II qator
Imzo chekmoq	qo`l qo`ymoq
Shod bo`lmoq	xursand bo`lmoq
Taslim bo`lmoq	qo`l ko`tarmoq

Odam qilmoq	voyaga yetkazmoq
Sotib olmoq	xarid qilmoq
Tasdiq qildi	tasdiq bo`ldi
Bayon qildi	hikoya qildi
Kasal bo`ldi	tobi qochdi
Yugurib bormoq	chopib bormoq
Bayon qilmoq	izhor qilmoq
Taklif qilmoq	iltimos qilmoq
Amal qilmoq	rioya qilmoq
Baxsh etmoq	ato qilmoq
Tamom qilmoq	ado qilmoq
Jur`at etmoq	jasorat qilmoq kabi.

Bunday o`yin-topshiriqlar boshqa bo`limlarda (morfologiya, sintaksis) ham davom ettiriladi. Bunda ham sinf bir necha guruhlariga bo`linadi. Masalan, 5-sinfda “Gap” mavzusi yuzasidan shunday topshiriqlar berish mumkin.

1-topshiriq. Birinchi guruhga: faqat kesimdan iborat sodda yig`iq gaplar tuzing va kesimga so`roq berib egani tiklang degan topshiriq beriladi:

o`qidi, ishladi, yozdi, hamshira bo`ldi.

Ikkinchi guruhga: hosil bo`lgan yig`iq gapni kesimdan so`roq berib kengaytiring.

Botirjon o`qidi. Bolalar ishlashdi . Akbar yozdi . Qo`shnimiz hamshira bo`ldi. Botirjon she`r o`qidi. Bolalar dalada ishlashdi. Akbar e`lon yozdi. Qo`shnimiz epchil hamshira bo`ldi va hakazo.

2-topshiriq. Hayvon nomlarini o`z va ko`chma ma`nolarida qo`llab, gap juftlari hosil qiling.

Namuna: Ilon zahridan dori tayyorlanadi. Bu ilonlarning orasida yashab bo`lmaydi. Tulkidan qimmatli mo`yna olinadi. Ehtiyot bo`ling Qo`qonboy juda tulki odam. It – vafodor hayvon. Yur ketdik, bu itlar bilan gapirishib bo`lmaydi.

3-topshiriq. Berilgan birikma va gaplarni iboralar bilan almashtiring.

Jahli chiqdi – tepa sochi tikka bo`ldi.

Xursand bo`ldi – dimog`i chog` bo`ldi.

Qaysarlik qildi – To`nini teskari kiyib oldi.

Qayoqqa xohlasa ketaversin – To`rt tomoni qibla.

Kamroq mizg`ib oldi – ko`zi ilindi.

4-topshiriq. Adashgan harflarni joyiga qo`ying va tovushlarning almashinishi nimalarga olib kelishini tushuntiring.

It yashaydi okeanda, sharpa turar taxmonda – Kit yashaydi okeanda, ko`rpa turar taxmonda.

Niyozning po`sti ko`p, omonning do`sti ko`p – Piyozning po`sti ko`p, yomonning do`sti ko`p.

Jon yaxshi bo`lsa, ul yaxshi bo`lar – Xon yaxshi bo`lsa, el yaxshi bo`lar.

Qir kosa so`k, o`rtasiga yo`q – Bir kosa so`k, ertasiga yo`q.

Quvda yotar suv ichmas, urganin odam bilmas – Suvda yotar suv ichmas, yurganin odam bilmas.

5-topshiriq. Sodda gap juftlari tuzing. Ulardan turli vositalar yordamida qo`shma gap hosil qiling, bog`lovchi vositalarni aniqlang va ularni ma`nodoshlari bilan almashtiring hamda izohlang.

Namuna: Qo`ng`iroq chalindi. Dars boshlandi. Qo`ng`iroq chalindi va dars boshlandi. Qo`ng`iroq chalingach, dars boshlandi. Qo`ng`iroq chalinib, dars boshlandi...

6-topshiriq. 1. Rasmga qarab grammatik topshiriqli matn tuzing (masalan, qo`shma otlarning imlosi, sifatlarning yasalishi, qo`shma gaplarni biriktiruvchi vositalar).

2. Matnga sarlavha qo`ying va uni izohlang. Matn.

Aka bilan uka dehqonchilik qilib, xalq oldida izzat va hurmat bilan yashar ekan. Lekin aka so`qqabosh bo`lib, ukasi esa aksincha serfarzand ekan. Aka: “Ukamning bola-chaqasi ko`p, ro`zg`oridan qiynalib qolmasin ”, - deb har kecha ukasining omboriga bir qop bug`doy to`kib ketar ekan. Uka bo`lsa: “Akamning

ko`ngli yarim, unga ko`mak bo`lsin ”, - degan xayolda har kecha omboriga bir qopdan bug`doy tashlab ketar ekan.

Ana shuni aytishadi-da, ahlik bor joyda baraka hozir deb.

Ma`lumki, tafakkur mahsuli va fikr bayon qilish nutq orqali amalgam oshiriladi. O`quvchi tafakkuri qanchalik rivojlangan bo`lsa, uning fikr ifodalash mahorati shunchalik yuqori bo`ladi. Shuning uchun ham maktabda ona tili mashg`ulotlari uchun ajratilgan vaqtning ko`pchilik qismi bolalarda mustaqil va ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda to`g`ri va ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan. Bu qo`yilgan talab o`quvchilar tomonidan bajarilsa, ona tili mashg`ulotlari samarali bo`ladi. Buning uchun o`quvchilar bilan ko`proq ijodiy fikrlash mashg`ulotlari olib borish maqsadga muvofiqdir. Masalan, quyi sinf o`quvchilari bilan **“Diqqat !”** o`yinini o`tkazish mumkin. Bu o`yin qisqa muddatga mo`ljallangan bo`lib, uni quyidagicha tashkil qilish mumkin. O`yinda o`quvchilarga “Diqqat!” deyiladi. Shunda o`quvchilar qo`llarini stol yoki partaning ustiga qo`yib, ko`zlarini yumishadi, Tashqaridan eshitilayotgan tovushlarga va sinfdagi harakatlarga xayolan diqqatini qaratadilar. Har bir o`quvchi ko`zlari yumuq payt sezganlarini hikoya qilib beradi. Masalan, “ Bahor. Bahorgi ko`katlar, mevali daraxtlar gullarining hidi derazadan kelib turibdi. Ko`chada harakat qilayotgan mashinalarning gurillagan shovqini eshitilayapti. Yo`lakda yurayotgan kishilarning qadam sharpalari eshitilmoqda. Maktab hovlisi devori orqa tarafida kuchuk hurayapti. ” Eng mukammal va ravon hikoya qilgan o`quvchi g`olib hisoblanadi.

Bu o`yinda o`quvchining eshitish qobiliyati va eshitganlaridan ajratib aytib berish mahorati hamda so`z boyligi aniqlanadi.

O`quvchilarning nutqiy ko`nikmalarini o`stiruvchi ikkinchi o`yin – **“Suratli kartochka”**. Bu o`yinda sinf uch guruhga ajratilib yoki uch komanda tuzilib, ularga suratli kartochka tarqatiladi. 1 – guruh o`quvchilari suratga qarab iloji boricha ko`proq so`z topishlari, 2 - guruh gap tuzishlari, 3-guruh o`quvchilari esa

rasmga qarab hikoya qilishlari kerak. Har bir guruhda eng oxirgi javobni bergan va undan keyin hech kim hech nima qo'sha olmagan o'quvchi g'olib sanaladi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish va sinab ko'rish uchun **“Zanjir”** o'yinini qo'llasa bo'ladi. Bunda o'quvchilar qo'lga kubik beriladi. Kubikni birinchi olgan o'quvchi biror atqli ot aytishi va kubikni ikkinchi o'quvchiga o'tkazishi kerak. Kubikni olgan o'quvchi aytilgan atqli otning oxirgi harfidan boshlanadigan boshqa atqli ot aytishi lozim. O'yin shu tariqa davom ettirilib, shartni bajara olmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib sanaladi.

Bu tavsiya qilingan grammatik o'yin-topshiriqlar mavzuning xarakteriga qarab har qanday mavzuda qo'llanishi mumkin.

Ona tilidan o'quvchilarda ko'nikma va malaka hosil qilishning sinalgan yo'llaridan biri ularning bilimlarini mustahkamlashdir. Buning uchun o'quvchilarning bilim darajalarini hisobga olgan holda turli grammatik o'yinlar, savol- topishmoqlar tashkil qilish mumkin. Bular o'z o'rnida o'quvchilarni ijodkorlikka, ijodiy faoliyat ko'rsatishga da'vat etadi. Masalan, “So'z tarkibi va qo'shimchalar tasnifi” mavzusini mustahkamlash uchun quyidagicha o'yin-topishmoqdan foydalanish mumkin.

1. U bo'lmasa tarqoqmiz,

Der qo'shimchaning biri.

Bizni bag'riga olar

Tarkibimiz sarvari.

(O'zak, asos)

2. Turli qo'shimchalar olar,

O'z- o'zidan ko'payar.

(O'zakdosh so'zlar)

3. Ishsizni ishli qilar,

Beodobni odobli.

Zar zargarga aylanar,

Bu qanday qo'shimchalar.

(So`z yasovchi qo`shimchalar)

4. So`zlarni bog`lash uchun,

Belni bog`lab turaman.

Ma`noga ta`sir etmay,

Uni bir oz buraman.

(So`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar)

5. Uydan uycha yasaydi,

Qizlardan-chi qizaloq.

Deymiz doim erkalab

Dilbarxonni qo`g`irchoq.

(Shakl yasovchi qo`shimchalar)

6. “Suv”ga qo`shsang odam bo`lar’

“Osh”ga qo`shsang odam bo`lar.

(-chi va -paz qo`shimchalari)

Bu topishmoqlarni musobaqa tarzida o`tkazsa yanada yaxshi natija beradi.

Shuningdek, bu mavzu uchun **“Eslab qol”** o`yinini tavsiya qilish mumkin. Bu o`yinda o`quvchilar uch guruhga ajratiladi. Quyidagi matn o`qituvchi tomonidan yoki magnit tasmasiga yozilgandan ikki marta o`qib beriladi.

Birinchi guruh o`quvchilar so`z yasovchi qo`shimchali so`zlarni, ikkinchi guruh o`quvchilar lug`aviy shakl yasovchi qo`shimchali so`zlarni, uchinchi guruh o`quvchilar aloqa-munosabat hosil qiluvchi qo`shimchali so`zlarni eslab qolib ularni aytib berishlari kerak. Topshiriqni to`g`ri bajargan guruh bir ball oladi.

Nasihat.

...Tag`in bir toifa odamlar hunarmandlardir, ular o`z rizq-ro`zlari uchun hunarmandchilik qiladilar.

Bular ham senga kerakli kishilardir, ularni o`zingga yaqin tut, manfaatlari tegadi, ey bahodir.

Temirchilar, etikdo`zlar, o`ymakor, duradgorlar, bo`yoqchilar, rassomlar, o`qsozlar va yoysozlar shu toifadan bo`ladilar.

Bu dunyoning go`zalliklari ulardan chiqadi, olamdagi hayratomuz ishlarni shular sodir qiladilar.

Bularga o`xshashlar ko`p, sanayversa suv cho`ziladi, sen o`zing tushunib ol, men so`zni tamomlayman.

**“To`kin dasturxon”** o`yini. Bu o`yinda o`qituvchining stoliga sun`iy mevalar terib qo`yiladi. Har bir mevaga qog`ozga so`z yozib yopishtirib qo`yiladi. Har qaysi guruhdan vakil chiqib, stoldagi mevalardan faqat o`zakdoshlarini topib patnisga terib olishi kerak. Topshiriqni to`g`ri bajargan guruh bir balli bo`ladi. So`zlar:

Bog`	Bo`y	Qirq
1. Bo`yimbog`	1. Bo`ydor	1. Qirqbo`g`in
2. Belbog`	2. Bo`ydoq	2. Qirqim
3. Bog`cha	3. Bo`yin	3. Qirqilmoq
4. Bog`dorchilik	4. Bo`ydoqlik	4. Qirqkokil
5. Bog`siz	5. Badbo`y	5. Qirqma
6. Bebog`	6. Bo`yimbog`	6. Qirqmoq
7. Bog`la	7. Bo`yinturuq	7. Qirqoyoq
8. Bog`im	8. Bo`yinch	8. Qirqquloq
9. Bog`ich	9. Bo`yli	9. Qirqtirmoq
10. Bog`bon	10. Bo`ychang	10. Qirqog`ayni

Eslatma: Mevalarni tayyorlash qiyinchilik tug`dirsa, so`zlarning sonini kamaytirish mumkin. Aynan shu so`zlardan boshqa ham o`zakdosh so`zlarni qo`yish mumkin.

**“Uch so`z ”** o`yini. Maktablardagi doskalar uch qismdan iborat. Shuning uchun har bir qismga bittadan “Bilim”, “Botir”, “Do`st” so`zlari yozib qo`yiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, doskaning o`zlari uchun ajratib qo`yilgan qismiga shu so`zlar ishtirok etgan maqollardan yozishlari kerak. Bu o`yinda vaqt

chegaralanadi. Besh daqiqa ichida qaysi guruh ko'p maqol yozsa, o'sha guruh g'olib sanaladi. (Har bir maqol uchun bir ball beriladi). Masalan,

Bilgan o'zar, bilmagan to'zar.

Bilagi zo'r birni yiqar, Bilimi zo'r – mingni.

Bilim aql chirog'i.

Bilim baxt keltirar.

Bilimli kishi o'zar, Bilimsiz kishi to'zar.

Botirdan o'lim ham qo'rqadi.

Mo'ltanidan “botir ” chiqsa, chodiriga o't qo'yar.

Botir topsa barcha yer, Baxil topsa, bosib yer.

Botir yovda bilinear, So'zchi dovda bilinar.

Botir qilichsiz ham botir.

Dushmaningni qarg'ama, do'stingga tegar.

Do'st achitib so'zlar, Dushman – kuldirib.

Do'st boshga boqar, Dushman – oyoqqa.

Do'sting ming bo'lsa ham – oz, Dushmaning bir bo'lsa ham – ko'p.

Do'st boshiga ish tushganda bilinadi.

“So'z tarkibi adashdi” o'yini. Doskaga har bir guruh uchun alohida-alohida beshtadan so'z yozilgan qog'oz(plakat) osib qo'yiladi. Har bir guruhdan vakillar chiqib, morfemalari adashtirib yozilgan so'zlarning asos va qo'shimchalarini chaqqonlik bilan o'z o'rniga qo'yishi kerak. Bu o'yin bilan muammoli vaziyat ham hosil qilish mumkin.

1 – guruhga	2 – guruhga	3 – guruhga
Lang'ayratditir	Lashtirmurakkabmoq	Imdonbillik
Likningxong'azal	Markazganlashiltir	Bilmoqjirat
Likchiquyonning	Chidorbog'ninglik	Rasionalirlik
G'allagikordalik	Nuqsonbegina	Malaisitgan
Likg'ildira	Kaparvarvatanlik	Lannafratditir

Asos va qo'shimchalarning o'rniga qo'yilgani (javobi)

G'ayratlantirdi	Murakkablashtirmoq	Bilimdonlik
-----------------	--------------------	-------------

G`zalxonlikning	Markazlashtirilgan	Biljiratmoq
Quyunchilikning	Bog`dorchilikning	Irrasionallik
G`allakorlikdagi	Benuqsongina	Isitmalagan
G`ildirakli	Vatanparvarlikka	Nafratlantirdi.

Topshiriqni tez bajargan guruhga bir ball beriladi.

“Hashar” o`yini. Duskaga birorta rasm osiladi(ilinadi). Har bir guruh birgalikda rasmga qarab “hashar” yo`li bilan (ya`ni har bir guruh a`zosi o`z jumlasini bilan qo`shilib) matn tuzish kerak. Tez va chiroyli matn tuzgan guruh bir ball oladi.



Guruhlarning bu topshiriq(o`yin-topshiriq)larni bajarganliklarini baholashda o`quvchilarning so`z qo`llashi, ijodiy fikrlashi, ijodkorlik qobiliyatlari, nutqining ravonligi e`tiborga olinadi va dars yakunida eng ko`p ball to`plagan guruh g`olib deb e`lon qilinadi. (Birorta rasm).

Biz yuqorida takrorlash, qayta xotirlash tipidagi mashg`ulotlarga mo`ljallangan topshiriqlar, o`yin-topshiriqlar, grammatik o`yinlar, topishmoqlardan namunalar keltirdik. Bular, o`ylaymizki, o`qituvchilar (metodikadan amaliy mashg`ulotga tayyorlanayotgan talabalar) uchun qo`llanma vazifasini o`taydi.

Shunday prinsp(tamoyil)lar asosida istagancha o`yin-topshiriqlar yaratib dars davomida qo`llashlari mumkin.

Yuqorida ta`kidlanganidek, ona tili ta`limining bosh maqsadi o`quvchilarni ijodiylikka, mustaqil fikrlashga, ijodiy faoliyat mahsulidan o`z vaqtida o`rinli foydalanishga o`rgatishdan iborat bo`lar ekan, o`quvchilar o`z fikrlarini isbot-dalillar bilan asoslay olishlari kerak bo`ladi. Buning uchun asosiy e`tiborni o`quvchilarda nutqiy ko`nikmalarni shakllantirishga qaratilmog`i zarur. Demak, har qaday sharoit(holat)da ham o`quvchilar mustaqil fikrlab gapirishlari zarur. Bunday faoliyatning ko`rinishlari juda ko`p. Shulardan biri o`quvchilarga muammoli savollar bilan murojaat qilishdir. Bunda o`quvchiga tayyor ma`lumotlarga asoslangan savollar emas, fikrlashga undaydigan, chuqur mulohaza qiladigan, mulohaza natijasini mustaqil ravishda javob beradigan savollar berish maqsadga muvofiq sanaladi. Masalan, Fonetika bo`limiga oid darslarda shunday muammoli vaziyat hosil qilish mumkin:

1 – topshiriq. Har biringiz nutq tovushlarini hosil qilib ko`ring. Ularni hosil qilishda qaysi nutq organlari ishtirok etadi?

Ko`rinib turibdiki, o`quvchilarning hammasi nutq tovushlarini bir xil talaffuz qila olmaydi. Ularning har biri o`zicha javob berishadi. Nutq tovushlari hosil qilishda ishtirok etuvchi nutq organlari: “F” – undoshini talaffuz qilganda pastki lab yuqori tishlarga yaqinlashadi, lekin jipslashmaydi. Ammo “pufladi” tipli so`zlardagi “F” undoshi ikki labning bir-biriga yaqinlashib, havoning oraliqdan o`tishi natijasida hosil bo`ladi. Bunday holatlarni o`quvchilarning o`zlariga bajartirish kerak.

2 – topshiriq. Nutq tovushlari talaffuzida qaysi nutq organlaringiz faol ishtirok etadi?

Bu o`rinda savol aniq bir fonema(tovush) yuzasidan bo`lmasdan, umuman tovushlar bo`yicha berilmoqda. O`quvchini o`ylashga majbur etadi va xarakterlilarini o`zi tanlaydi.

3 – topshiriq. Unli va undosh tovushlarni alohida-alohida talaffuz qilib ko`ring. Ularning talaffuzida qanday farq sezayapsiz?

Hamma o`quvchi ham farqli talaffuz qiladi. Lekin qanday farqli tomonlari borligini aytib berish ancha mushkullik tug`diradi. Buning uchun unli tovushlar qanday hosil bo`ladi va qaysi nutq organlari ishtirok etadi degan savolga javob topa bilishi kerak. Undosh tovushlarga ham shunday.

4 – topshiriq. 6 ta unli ishtirokida bir bo`g`inli so`zlar yozing. Ulardagi (so`zlardagi) unlilarni almashtirib ko`ring. Qanday o`zgarish sezayapsiz? Masalan: bir – ber, tur – ter.

Morfologiya bo`limiga oid darslarda quyidagicha muammoli vaziyat hosil qilish mumkin.

5 – topshiriq. – lar affiksi (qo`shimchasi) kishi nomlariga, bo`linmas narsalar(suyuqlik, mayday don: bug`doy, arpa, makkajo`xori)ga qo`shilganda qanday ma`nolar anglatadi: Ahmadlar keldi, Toshkentlarni ko`rgan, Abdulla suvlarni keltirdi.

6 – topshiriq. Otlardagi egalikning ko`pligi qanday ko`plikni anglatadi?

Ma`lumki, otlarda ko`plikning ifodalanishi ikki xil bo`ladi: 1) semantik ko`plik, 2) grammatik ko`plik. Semantik ko`plik so`z(ot) anglatgan ma`no birdan ortiq bo`lsa-da, grammatik ko`rsatgichga ega bo`lmaganligi uchun birlik deb hisoblanaveradi: bug`doy – bug`doylar. Demak, ko`plik deyilganda faqatgina grammatik ko`plik nazarda tutiladi.

Otlarning egalik qo`shimchalari bilan o`zgarishini ham birlik- ko`plik jihatdan farqlaymiz, ya`ni otlarga qo`shilgan egalik qo`shimchasining ko`plik shakli o`zi qo`shilib kelgan predmetning ko`pligini anglatadimi yoki o`sha predmetga egalik qilgan shaxsning ko`pligini anglatadimi degan savol tug`iladi? Bu savolga javob berish yuqoridagi topshiriqni to`g`ri bajarishdir.

7 – topshiriq. Ish-harakat bir kishi tomonidan bajarilsa-da, nima sababdan “men bajardim” deyish o`rniga ko`pchilik hollarda “biz bajardik ” deyiladi?

8 – topshiriq. “ Sizlarning yaxshingiz xushxulq, shirin suhbatlaringizdir” deyilgan hadisda “siz” so`zini qo`llash ham mumkin bo`lgan holda nega “sizlar ” so`zi qo`llanilgan?

9 – topshiriq. “Kishining ishi to`g`rilik bo`lsa, bu uning uchun eng yaxshi maqtovdir” degan gapdagi “u” va “bu” so`zlari olmoshning qaysi turlariga mansub va nima uchun?

Berilgan har uchala (7-,8-,9-) topshiriq kishilik olmoshlariga aloqador, ya`ni men, sen, u, biz, siz, ular olmoshlarining birlik yoki ko`pligiga misol qilingan. O`quvchiga muammo tug`dirayotgan holat mazmun jihatdan birlik (7-8-topshiriqlar) shakl jihatdan ko`plikda kelayotganidir. Yoki kishilik olmoshining III- shaxsdagi holati bilan ko`rsatish olmoshi bir xil ko`rinishga ega.

Bu topshiriqlar musobaqa tarzida bajartiriladi. Qaysi qator (maktablarda o`quvchilar sinfda asosan uch qator bo`lib o`tirishadi)dagi o`quvchilar tezroq va to`g`ri javob bersa, musobaqada o`sha qator(guruh) g`olib sanaladi .

Har qanday musobaqada guruhlar taqdirlanishi kerak, chunki rag`bat va maqtov yosh(o`quvchi)larni oldinga intilishga chorlaydi.

10-topshiriq.Harflarning joyini o`zgartirib, joy nomlari hosil qiling ?

mal-xab	—	Baxmal
anor – ohang	—	Ohangaron
zo`r – nav	—	Navro`z
qolub- almul	—	Mullabuloq
oq- lalmi	—	Olmaliq
boyagi-don	—	Yangiobod
armon-haq	—	Qahramon
o`st- kild	—	Do`stlik
kek-ko`tar	—	Ko`kterak
lolag`- laro	—	G`allaorol

11-topshiriq. “Chopmoq”, “Yugurmoq” fe`llarining mazmunan(semantik) farqli va yaqinlashadigan o`rinlarini aniqlang !

“Bola ko`chaga qarab chopdi (yugurdi)” gapida chopmoq va yugurmoq fe`llari bir- biriga yaqinlashadi. Ularni yaqinlashtiradigan harakat bolaning chopishi va yugurishi. Aslida ular o`rtasida ham ma`no nozikligi bor. Bola shiddat bilan

yugurib ketsa, unda chopdi bo`ladi (Bola chopib ketdi). Unday harakat bo`lmasa, “yugurib ketdi” bo`ladi. Ko`pchilik holatda bolaga buyruq beramiz “chopib bor!”.

Aslida “chopmoq” fe`li qo`l harakati bilan bog`liq bo`lib, “bolta bilan chopmoq”, “yer chopmoq”, “qilich chopmoq” nazarda tutiladi. Xulosa qilganda “chopmoq” qo`lga aloqador, “yugurmoq” oyoqqa aloqador harakatni anglatadi.

Hayotda uchraydigan narsa va hodisalarga o`quvchilarni munosabat bildirishga o`rgatish ularning fikrlarini tiniqlashtirib boradi.

Darsda muammoli vaziyat yaratishda fanlararo integratsiya ham yordam beradi. Masalan, o`quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish maqsadida iqtisodiy mavzudagi “Rivoyat” tahlil qilinishi mumkin. Bunda rivoyatning bir qismi (birinchi qismi) O`qilgan qismidan topshiriqlar beriladi. Topshiriqlarni bajarandan keyin rivoyatning ikkinchi qismi o`qiladi. O`quvchilar topshiriqni bajarishda chiqargan xulosalarini u bilan taqqoslaydilar. “Rivoyat”.

“ Kunlarning birida, kechasi bir boy daryodan o`tayotganida suvga o`n tanga puli tushib ketdi. Shunda boy ishchi yollab, pullarning hammasini topishni buyurdi. Buni kuzatib turgan bir kishi bu ishning foydasidan zarari ko`pligini, odam yollash, mash`ala sotib olish uchun ko`p pul sarflanishini aytdi...” Shu joyga kelganda yuqoridagi matn asosida topshiriqlar beriladi.

I topshiriq. Matndagi fe`llarni aniqlang .

II topshiriq. Fe`llar qanday gap bo`lagi vazifasida kelmoqda?

III topshiriq. O`quvchilarning iqtisodiy bilimlarini va kuzatuvchanligini hisobga olib quyidagi savollar beriladi:

1. Kuzatuvchining gapini siz qanday baholaysiz?
2. Boyning o`rnida bo`lganda siz nima qilar edingiz?

Bu savollarga javob berish bilan o`quvchilarda hayotda uchraydigan narsa, hodisalarga o`z munosabatini bildirish ko`nikmalari shakllana boradi.

Shundan so`ng rivoyatning davomi o`qiladi. “...Boy kuzatuvchining fikriga e`tiroz bildirib, aytdi: — Bu ishda xasislik qilish kerak emas, chunki sarflangan pul yo`qolib ketmaydi, kishilarga foyda keltiradi. Suvga tushgan pul esa butunlay yo`q bo`lib ketadi.”

Tarqatma materiallar bilan ishlash.

Bunda ko`zda tutiladigan maqsad mavzu bo`yicha (yuzasidan) o`quvchilar bilimlarini aniqlash, nutq malakalarini tekshirish, o`z fikrlarini dalillar asosida bayon qila olish ko`nikmalari darajasini aniqlashdir.

1 – kartochka.

Ikkinchi qismi daryo, ko`l, soy, ariq, buloq so`zlaridan iborat qo`shma joy nomlariga misollar keltiring. Ularning ma`nolarini izohlang.

2 – kartochka.

Qo`shma so`zdan tarkib topgan 10 joy nomini toping. Ularning qaysi turkumdagi so`zlardan iboratligini aniqlang, imlosini izohlang.

3 – kartochka.

Berilgan qo`shma atoqli otlarning qismlari nima uchun qo`shib yoki ajratib yozilganligini izohlang.

O`rtaqishloq, O`rta Chirchiq, Oqdaryo, Ko`hna Urganch, Yangiqishloq, Do`ngqo`rg`on, Qotatepa, O`rta Osiyo, Galaosiyo, Qo`ytosh.

4 – kartochka.

Ot + ot, sifat + ot, son + ot qolipida yasalgan joy nomlariga misollar keltiring, ularning yozilish qoidasini tushuntiring.

5 – kartochka.

Jiydakapa, Oqsoy, Sultonqishloq, Pattakesar, Yettisoy, G`allaorol, K`okdala, Mirzacho`l, Tangatopdi, Beshtepa, Marjonbuloq, Yuqoribog`, Oltintopgan, Balandchaqir, Chimqo`rg`on toponim (joy nom)larining tarkibi qaysi so`z turkumidagi so`zlardan yasalganligini ayting.

6 – kartochka.

Olimjon — mening do`stim. U 7 – sinfda o`qiydi.

Alisher Navoiy — o`zbek adabiy tilining asoschisi. U XV asrda yashagan.

Gaplardagi “u” so`zi kishilik olmoshi yoki ko`rsatish olmoshi ekanligini aniqlang. Fikringizni isbotlang.

7 – kartochka.

Kishining go`zalligi uning tilidan bilinur.

Berilgan gapdagi qaratqich kelishigi qo`shimchasini olgan so`zlarning toping. Ularning qaysi so`z turkumiga kirishini aniqlang va uning sababini tushuntiring.

8 – kartochka.

1. Dugonasi ko`ylagining baridan sekin tortdi.
2. Yig`ilish qatnashchilarining bari ketishdi.

Bu gaplarda qatnashgan bari so`zining ma`nosini izohlang. Ular shakl va mazmuniga ko`ra qanday so`zlar sanaladi, qaysi so`z turkumiga mansub? Fikringizni isbotlang.

9 – kartochka.

Barcha yaxshilik xushxulqlikdadir.

Yaxshi so`z – jon ozig`i.

Gaplardagi qanday so`rog`iga javob bo`ladigan so`zlarni aniqlang.

Ular qaysi so`z turkumlariga taalluqli, nima uchun?

10 – kartochka.

7 – sinf, 2012 – yil, VII – asr kabi tartibni bildiradigan son (tartib sonlar)lar imlosi to`g`rimi? Fikringizni asoslang.

Bunday tarqatma materiallar bilan mustahkamlash yoki qaytarish darslarida ishlash maqsadga muvofiqdir. Bu kabi tarqatma materiallar nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ishlarni qiziqarli tashkil qilish, vaqtni tejash, ayniqsa, bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilar bilan ishlash imkonini beradi. Shuningdek, kartochkalarda tarqoq ravishda berilgan so`zlardan gap tuzish (abadiy, onamiz, yashamoq, qalbimiz; onalar kelajagi qo`lida millat, onalardir, tarbiyachilari odamzodning, birinchi; axloqsizlikning, hurmatsizlik belgisidir, onalarga birinchi; maoshingni oldingmi, ol,sovg`a, otangga, birinchi, onangga, buvingga; katta baxtdir, eng, ota-onang uchun, o`qishdagi, mehnatsevarliging; muvaffaqiyatlaring, sening, ishdagi .— Onamiz qalbimizda abadiy yashaydi. Millatning kelajagi onalar qo`lidadir. Odamzodning birinchi tarbiyachilari onalardir. Onalarga hurmatsizlik axloqsizlikning birinchi belgisidir. Birinchi maoshingni oldingmi, onangga, otangga, buvingga sovg`a ol. Sening mehnatsevarliging, o`qishdagi, ishdagi

muvaffaqiyatlaring ota-onang uchun eng katta baxtdir.), soʻz va iboralarni joyiga qoʻyib, toʻgʻri qoʻllay bilish, ularning leksik – stilistik(uslubiy) xususiyatlarini bilgan holda sinonimik variantlari bilan almashtirish kabi topshiriqlar ham berish mumkin. Masalan: Barcha balo tilingdandir gapidagi olmoshni sinonimik variantlari bilan almashtiring . Bu gapda barcha olmoshi qatnashayapti, uning sinonimik variantlari:

Barcha balo tilingdandir.

Hamma balo tilingdandir.

Har bir balo tilingdandir.

Bunday kartochkalarni oʻqituvchi har qanday mavzuga mos holda tuzish mumkin. Shuni ham eʼtiborga olish zarurki, biz tavsiya qilayotgan kartochkalar keyingi mavzularga asos, zamin boʻlmogʻi kerak. Tayyorlanayotgan kartochkalar, albatta, bolalarning yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda boʻlishi zarur.

Testlar bilan ishlash .

Test usuli taʼlim tizimida nisbatan yangi. U oʻquvchilar fikrlashini tezlashtiradi, ammo bunda oʻquvchi muloqat qilmaydi, oʻz fikrini ogʻzaki ifodalash imkoniyatiga ega boʻlmaydi. Shuning uchun oʻquvchilarga dastlabki test topshiriqlarini jamoa boʻlib bajarish imkoniyatini tugʻdirish kerak boʻladi. Chunonchi, “Sifat” mavzusi boʻyicha ishlashda oʻquvchilar eʼtiborini doskaga osilgan plakatdagi test savollariga qaratiladi.

I test. Nisbiy sifatlar qatorini toping.

A. Yaxshi, katta, koʻrpalik.

B. Qisqa, och, toʻlqinsimon.

D. Yashil, ommaviy, johil.

E. Ertalabki, ilmiy, tashqi.

F. Koʻpkina, kechki, kamgina.

Test haqida oʻquvchilarda koʻnikma hosil qilish maqsadida sifat haqidagi oʻquvchilar bilimi sinab koʻrilishi mumkin. Chunonchi, belgini ifodalashiga koʻra

sifatlarning asliy va nisbiy sifatlarga ajratilishi, ularning asosiy hususiyatlari eslatilsa bo`ladi.

II test. Berilgan gaplardagi aniqlovchi vazifasida kelgan asliy sifat qatorini toping.

- A. Dalada kuzgi ishlar qizib ketdi.
- B. Dam oluvchilar tushki ovqatga kelishdi.
- D. Bu ikki kichigining tiliga sira tushunmayman
- E. Aniqlovchining tagiga to`lqinli chiziq chiziladi.
- F. Musobaqada jizzaxlik o`quvchilar g`olib chiqishdi.

Bu test savollar bir-ikki o`quvchi tomonidan o`qitiladi va javoblari so`raladi. Ular o`z javoblarini isbotlashadi. Shundan so`ng boshqa o`quvchilar ham o`z javoblarini aytishib bahslashadi. Test savollariga javob topishda bunday bahs uyushtirish o`quvchilar faolligini oshiradi, ularning og`zaki nutqini o`sishida samarali ta`sir ko`rsatadi.

Aqlpesha o`yinlar .

Bunday o`yinlar sirasiga turli boshqotirmalar, so`zlardan so`z yasash, kataklardagi so`zlarga sinonimlarini qo`yish, bo`sh kataklarni to`ldirish kabilar kirib, ular darsning turli paytlarida o`quvchilarni dam oldirishga qo`l keladi. Bu o`yinlar, albatta, mavzu bilan bevosita bog`lanish kerak.

So`zdan so`z yasang.

Bu o`yinining variantlari juda ko`p. Biz tavsiya qilayotgan yasashda so`z morfemalar vositasida yasaliib, so`zning boshidan oxiriga qarab boriladi. Orqaga qaytish, morfemalarning o`rnini almashtirish mumkin emas. Bu o`yin so`z tarkibini o`quvchilarning o`zlashtirishini osonlashtiradi. “Maydalab”ni maydalang: ma, may, mayda, maydala, maydalab, dala, lab – 7 ta so`z.

Bir so`zdan o`n so`z yasang – so`zlarni izohlang. Masalan,

O`tinchimiz

O` - undov                      o`tinchi – o`tin teruvchi

O`t – maysa, olov              o`tinchim – o`tin teruvchiga egalik qilish

o`ti – olovi                      o`tinchim – iltimosim
o`tin – quruq o`tin o`tinchimi – o`tinchilikni so`rash
o`tinch – iltimos                o`tinchimiz - o`tinchi bizga qarashli

Yasalgan so`zlar o`quvchilar tomonidan izohlanadi. Bunung natijasida o`quvchilar nutqi, tafakkuri rivojlanadi.

“Yo`qolmas so`zlar ” o`yini. Shunday so`zlar topingki, ularning birinchi harfi olib tashlansa ham qolgan qismi leksik ma`no anglat sin. O`yinda o`quvchilar uch guruhga bo`linadi: Birinchi guruh otdan ot, ikkinchi guruh fe`ldan fe`l, uchinchi guruh aralash so`z turkumlaridan misollar yozadilar.

Namuna:

I guruh	II guruh	III guruh
qasr – asr	sochmoq – ochmoq	sariq – ariq
choy – oy	sotmoq – otmoq	ayamoq – yamoq
shuvoq – uvoq	toshmoq – oshmoq	chana – ana
sabr – abr	ko`rmak – o`rmak	jilg`a – ilg`a
ro`y – o`y	jilvira – ilvira	achit – chit

Vaqt imkoniyatiga qarab so`zlar ishtirokida gaplar ham tuzish mumkin.

“Zinapoya” o`yini

Bunda berilgan so`z asosida “zina” katakchalar to`ldiriladi.

T			
U			

R							
K							
I							
Y							

T	O	L				
U	L	O	Q			
R	I	X	S	I		
K	I	M	X	O	B	

I	S	T	E	H	Z	O	
Y	O`	L	B	O	SH	CH	I

Asos soʻzlar yordamida boʻsh kataklarni toʻldiring.
 Bu oʻyin sinonimlarga oid mustahkamlash darslarida qoʻllanadi.

I a

				T				
				A				
				R				
				A				
				F				

I b

				T	E	G	R	A
				H	A	R	Yo	N
			Q	U	R	Sh	O	V
		T	E	V	A	R	A	K
A	T	R	O	F				

IIa

				Q				
				A				
				D				
				R				

II b

					L			
					I			

	A	R	D	O	Q	L	I	
					A	Z	I	Z
	Q	A	D	R	D	O	N	
			H	U	R	M	A	T
							L	I

IIIa

					J					
						A				
						S				
							U			
							R			

III b

					Sh	I	J	O	A	T	L	I
						M	A	R	D			
Q	O`	R	Q	M	A	S						
			Yo	V	Q	U	R					
			B	O	T	I	R					

IV a

		N				
		O				

E	'	Z	O	Z	L	L	I				
				Q	I	M	M	A	T	L	I

			M	
		U		
	S			

IV b

	A	N	D	I	Sh	A
		O	R			
Sh	A	R	M			
		U	Ya	T		
	I	S	N	O	D	

V a

		B				
		E				
		Sh				
		A				
		K				

V b

A	L	B	A	T	T	A			
	B	E	G	U	M	O	N		
		SH	U	B	H	A	S	I	Z

M	U	Q	A	R	R	A	R
	Sh	A	K	S	I	Z	

VI a

			O				
			B				
			D				
			A				
			N				

VI b.

			T	O	Z	A		
			B	A	G'	O	Ya	T
A	Sh	A	D	D	I	Y		
B	I	R	A	M				
	Ch	U	N	O	N			

VII a

					U		
					L		
					K		
				A			
				N			

VII b

				U	L	U	G'
H	A	Y	B	A	T	L	I

	B	U	Yu	K				
		A	Z	A	A	M	A	T
G	I	G	A	N	T			

Tayanch soʻzlar yordamida boʻsh kataklarni toʻldiring. Bu oʻyinda ham tik (vertikal), ham yoʻnalish (gorizontal) boʻyicha bir xil soʻzlar chiqishi kerak.

I a

B	I	L	I	M
I				
L				
I				
M				

I b

B	I	L	I	M
I	R	O	D	A
L	O	T	O	S
I	R	O	R	A
M	A	C	A	L

II a

V	A	T	A	N
A				
T				
A				
N				

II b

V	A	T	A	N
A	R	I	Z	A
T	I	L	I	M
A	Z	I	Z	A
N	A	M	A	T

III a

III b

X	O	H	I	SH
---	---	---	---	----

O				
H				
I				
SH				

X	O	H	I	SH
O	V	O	Z	A
H	O	Z	I	R
I	Z	I	D	A
SH	A	R	A	F

IV a

X	A	T	O
A			
T			
O			

X	A	T	O
A	T	I	R
T	I	L	I
O	R	I	F

IV b

“Boshqotirma” o`yini.

Bu o`yinni har qanday sinfda, xususan, 5-sinfda fonetika bilan bog`lab o`tkazish maqsadga muvofiq bo`ladi. Boshqotirmada har bir harf uchun uchta so`z topiladi. Birinchi bo`g`in hammasi uchun umumiy bo`ladi. Namuna:

val	liq	ris	voh	im
Av – lod	Ba – qa	Vo – diy	Gu – gurt	Do – na
liyo	ho	ha	ruh	ri

Shu tarzda davom ettiriladi. Bu bilan o`quvchilarning bo`g`in haqidagi bilimlari mustahkamlanadi .

“So`zlardan adashmang ” o`yini.

Bunda yozilishi har xil ma`nosi bir xil so`zlar ro`yxati tuziladi. Masalan:

Baravar – barobar

Shoyi – shohi

Arava – aroba

Kaptar – kabutar

Asta – sekin

G`arib – miskin

Lab – dudoq kabi.

Ma`lumki, o`quvchi og`zaki va yozma nutqi rivojida matnning ahamiyati beqiyos. Zamonaviy talab ham shuni taqozo qiladi. O`quvchilarning matn tuzishdagi qobiliyatini, uquvini tekshirib ko`ruvchi vositalardan biri **bayon yozdirishdir**. Bayon mavjud matnni qayta hikoya qilib berishdan iborat. O`quvchilarda bayon yozish malakasi shakllangandan so`ng maxsus topshiriqli bayonlar yozdirish ijobiy natija beradi. Qo`shimcha topshiriqli yoki topshiriqli bayonda tuzilayotgan matndagi (bayondagi) birinchi shaxsni uchinchi shaxs bilan

almashtirish yoki aksincha bo'lishi mumkin. Bu topshiriqni bajarish jarayonida faqatgina shaxs almashmasdan gapning tuzilishi ham o'zgarib ketadi.

O'quvchilarning matn tuzishdagi mahoratini ko'rsatuvchi o'yinlardan biri **“Rasmi diktant”**dir. Bu o'yinni o'tkazish tartibi : Maxsus plakatga yoki doskaga quyidagi so'zlar(mavzular) yozib qo'yiladi:

1. Kuchli shamol.
2. Yuk mashinasi.
3. Tug'ilgan kun.
4. Eski botinka.
5. Jaxldor muallim
6. Donishmand chol.
7. Yomg'irli kun.
8. Chempion kabi.

Bu mavzularni o'quvchilar tanlash huquqiga ega. Ular tanlagan mavzularining rasmini chizishadi va shu rasm asosida matn yaratiladi. Matn qaysi grammatik kategoriya o'tilayotgan bo'lsa, shu mavzuga bag'ishlanadi (Mavzular ro'yxati sharoit taqozasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan o'zgartirilishi mumkin).

XULOSA

Ona tili o'qitish metodikasi fan sifatida pedagogika bilim yurtlari va oliy pedagogik o'quv yurtlarida o'tgan asrning ikkinchi choragidan o'qitila boshlagan. Bu vaqtda bitta-ikkita qo'llanma yaratilgan edi. Shundan buyon bu fan bo'yicha qator o'quv qo'llanmalari, metodik qo'llanmalar yaratildi.

Bunday metodik adabiyotlarda ona tili o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari belgilab berildi. Ayniqsa, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta'lim mazmuni yangilangach, bu fanning maqsadi ham o'quvchilarda til imkoniyatlaridan mustaqil holda o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy istiqbol g'oyasi hamda sharqona tarbiya berishga qaratildi. Ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq

sharoitiga mos holda og`zaki va yozma shakllarda to`g`ri, aniq, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilmog`i lozim.

“Ona tili o`qitish metodika”sining fan sifatida shakllanishida uning tekshirish metodlarining ahamiyatini ongli o`zlashtirish lozim. Chunonchi, kuzatish metodik tajribani o`rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, o`quvchilar bilan shaxsiy suhbat va boshqalar ona tili o`qitish metodikasini takomillashtirishda hamma vaqt faoliyat ko`rsatadi.

Ta`lim mazmunining zamonaviylashuvi, uni amaliyotada qo`llashga bo`lgan talabchanlik yangi-yangi zamonaviy dars tiplari yuzaga keltirdi:

1. Ona tilidan yangi bilim berish darslari.
2. O`tilganlarni mustahkamlash darslari.
3. Bilim va malakalarni tekshirish darslari.

Natijada, dars ichki tuzilishi ham ko`proq o`quvchilarning mustaqil ishlashiga qaratildi: Chunonchi,

- a. Darsning tashkiliy qismiga 5-7 minutgacha.
- b. Yangi mavzu bayoni uchun 13-15 minutgacha.
- v. Grammatik qoida va xulosalar ustida ishlash 3-5 minut.
- g. Yangi o`tilgan materialni mustahkamlash 13-15 minut.
- d. Uyga vazifa berish 3-5 minut.

Dars tarkibiy qismlaridagi asosiy nuqtalardan biri uyga vazifa berish va uni so`rashdir.

Ta`lim mazmunining o`zgarishi, ta`limga yangi pedagogik texnologiyalarning joriy qilinayotganligi zamonaviy o`qitish metodlarini talabalarning o`zlashtirishlarini dolzarb masala qilib qo`yadi.

Darsning hamma qismlarida qo`llash mumkin bo`lgan metodlardan biri suhbat metodidir. Bu usulda o`quvchi nutqi, tafakkuri, izlanuvchanligi, topqirligi namoyon bo`ladi. Bu metodni to`g`ri va oqilona qo`llay bilish o`qituvchi sa`y-harakatiga bog`liq.

Metodikaning umumiy masalaridan so`ng tilshunoslik bo`limlarini o`rganish yuzasidan qisqacha ma`lumotlar berildi.

Ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarning savodxonligini ta'minlashi zarur. Buning uchun to'g'ri talaffuz normalarini o'quvchilar egallashlariga, nutq tovushlarining talaffuzi va imlosiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Fonetika va leksikologiya bo'limlarini o'qitishning o'ziga xos prinsplari (tamoyillariga)lariga to'xtalangan.

Grammatika o'qitish o'qituvchi faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. DTS talabi ham o'quvchi nutqini rivojlantirish, nutqning mazmuni va intonatsiyasiga e'tiborni qaratishdir.

O'quvchilar sintaksisni o'rganish orqali o'z nutqida uchraydigan xatolarni anglab yetadilar, ularni bartaraf qilishga harakat qiladilar. Bu bo'limning ahamiyati shundaki, bu bo'lim orqali o'quvchilar ijtimoiy aloqadorlikni, ya'ni inson o'z fikrini obyektiv borliqdagi ko'rgan, bilganlari asosida tartibga solishni, borliqda alohida ajralib qolgan narsalarning yo'qligini bilib oladilar.

Orfografiya va uni o'qitish o'rta maktabda asosiy muammolardan biri. Chunki orfografiyaga bag'ishlangan maxsus dars yo'q. U haqida ma'lumot orfografiyaga aloqador mavzulardagina beriladi. Unday mavzular 5-9-sinflarning turli o'rinlarida (chorak boshi, oxiri, o'rtasi, o'quv yilining turli vaqtlari) o'tiladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bunday mavzular (unlilar imlosi, ayrim undosh tovushlar va ularning imlosi kabi) o'tilayotganda va undan keyingi mustahkamlash darslarida imlo haqida batafsil ma'lumot berib borsagina o'quvchilarda orfografiya bo'yicha ko'nikma va malaka shakllana boradi.

Punktuatsiya o'qitish metodikasi haqida ham shunday fikrlar bildirish mumkin.

Davr talabi darajasida dars o'tish bevosita pedagogik texnologiya, ona tili o'qitishning nazariy va metodologik asoslari bilan bog'liq. Shu nazarda tutilib: 1. yangi pedagogik texnologiyalar va ularni amaliyotda qo'llash yuzasidan ham materiallar berildi. Boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan ona tili mashg'ulotlarida ko'proq e'tibor o'quvchi nutqini o'stirishga qaratiladi. O'quvchilar nutqini o'stiruvchi vositalardan biri ta'limiy o'yin-topshiriqlardan foydalanishdir. O'yin-topshiriqlar, birinchidan, o'quvchilar zerikkan, toliqqan, vaqtlarida o'tkazilib, ularning charchog'ini chiqaradi, ikkinchidan, fanga qiziqishini orttiradi. Shu

maqsaddan kelib chiqib qator o`yin-topshiriqlar, topishmoqlardan namunalar berildi.

O`yin-topshiriqlarning joylashish o`rni mavzular doirasiga qarab joylashtirildi. Ya`ni avvalo, qayta xotirlashga qaratilgan, keyinroq o`quvchilarni o`ylashga majbur qiladigan va muammoli o`yin-topshiriqlar berildi. Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida va ularni tavsiflashda o`quvchi bevosita muloqatda bo`ladi. Bajargan topshirig`ini taqdim(bayon) qilish paytida o`ylashga, mavjud fikrining zaruriylarini ajratib olishga harakat qiladi. Natijada o`quvchining nutqi shakllana boradi va rivojlana boradi.